

ISSN 2010-703X

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnal



EKOLOGIYA

№2 [19],
2026

XABARNOMASI | SINCE 1995

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ
ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

ECOLOGICAL HERALD
OF UZBEKISTAN



**EIGHTH GEF ASSEMBLY
SAMARKAND 2026
UZBEKISTAN**



A.Zakirov

SAMARQAND EKOLOGIK
KUN TARTIBI ATROFIDA
DUNYONI BIRLASHTIRDI
5-SAHIFA

O'ZBEKISTON PREZIDENTI
MARKAZIY OSIYODA IQLIM
VA EKOLOGIYA MUAMMOLARINI
HAL QILISH BO'YICHA YANGI
TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI
18-SAHIFA

O'ZBEKISTON AQSHDA
O'RMONLARNI TIKLASH
BO'YICHA TASHABBUSLARINI
TAQDIM ETDI
27-SAHIFA

TAHRIR HAY'ATI TARKIBI:

Abduxakimov Aziz Abdukaxarovich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi, hay‘at raisi

Alimov Zikrillo Bobamuratovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, Atmosfera havosini muhofaza qilish laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Aminov Xamza Xusanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari, texnika fanlari falsafa doktori, professor

Buriyev Salimjan Samedjanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Ergashev Obid Gapparovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi, texnika fanlari falsafa doktori

Erkabayev Furqat Ilyasovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, Suv resurslarini muhofaza qilish texnologiyalari laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori, professor

Fayziyev Shuxrat Xasanovich – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlari doktori

Kazbekov Jusipbek Sdikbekovich – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vaziri o‘rinbosari, texnika fanlari nomzodi

Kulmatov Rashid Anorovich – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Ekologiya kafedrası professori, kimyo fanlari doktori

Mambetullayeva Svetlana Mirzamuratovna – Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari doktori, professor

Madrimov Rajabboy Masharipovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ekotizim xizmatlari va normativ hujjatlarni ishlab chiqish bo‘limi boshlig‘i, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Muradov Shuxrat Odilovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, texnika fanlari doktori, professor

Musayev Maruf Nabiyeovich – Toshkent davlat texnika universiteti “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası professori, texnika fanlari nomzodi

Novitskiy Zinovi Bogdanovich – O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

Nishonov Bahriddin Erkinovich – Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Tabiiy muhit fizik-kimyoviy jarayonlari tadqiqoti bo‘limi mudiri, texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Pulatov Baxtiyor Alimovich – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) rektori, texnika fanlari doktori, professor

Pulatov Xayrulla Lutpullayevich – Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi, “Umumkasbiy fanlar” kafedrası professori, kimyo fanlari doktori

Radkevich Mariya Viktorovna – "TIQXMMI" MTU Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrası professori, texnika fanlari doktori

Salohiddinov Abdulhakim Temirxo‘jayevich – "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor

Turdikulova Shahlo Utkurovna – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, biologiya fanlari doktori, professor

Turaboyev Akmal Sormuminovich – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Ekologiya kafedrası professori, biologiya fanlari doktori

Xikmatov Fazliddin – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, geografiya fanlari doktori, professor

Yuldashev Farxod Talazovich – texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yusupov Asliddin Soatovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisod fanlari doktori



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va
iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi

Tahririyat kengashi raisi:

Abduxakimov Aziz Abdukaxarovich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya
masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va
iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi

Ilmiy muharrir:

Pulatov Baxtiyor Alimovich,

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini
o'rganish universiteti (Green University) rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir:

Mamirov Suyundik Maxammatovich

Dizayner:

Mamajonov Ulug'bek Rustam o'g'li

Fotomuxbir:

Zakirov Anvar Nematovich

Jurnal har chorakda kamida
bir marta chop etiladi.

Jurnal 1995-yildan chiqa boshlagan.

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2021-yil 8-oktabrda 0515-sonli
guvohnoma bilan qayta ro'yxatga olingan.

Jurnalga qabul qilingan ilmiy maqolalar
o'zlashtirilgan matnlarni aniqlaydigan
“Antiplag.uz” tizimida tekshirilgan.

Obuna indeksi: 910

Bosmaxonaga topshirildi: 30.06.2026-yil
Ofset bosma usulida bosildi.
Hajmi 14 bosma taboq. Bichimi 60x84 1/8.
Buyurtma № 45. Adadi 450 nusxa.

«STANDART POLIGRAF SERVICE»
MCHJ QK
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100170, Toshkent sh.,
Sayram 7-tor ko'chasi, 52-uy.

MUNDARIJA

- 03** Global ekologik jamg'armaning sakkizinchi
assambleyasi ishtirokchilariga
- 05** Samarqand ekologik kun tartibi atrofida
dunyoni birlashtirdi
- 18** O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoda
iqlim va ekologiya muammolarini hal qilish
bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi
- 20** O'zbekiston Prezidenti Orolni qutqarish xalqaro
jamg'armasiga raislikning ustuvor yo'nalishlarini
belgilab berdi
- 22** Ekologlar va faollarning atrof-muhitni
muhofaza qilishdagi hissasi e'tirof etildi
- 23** «Zero Waste Forum 2026» doirasida
hamkorlik mustahkamlanmoqda
- 24** O'zbekiston Bonnda iqlim majburiyatlarini
amalga oshirishdagi yutuqlarini
FMCP3 sessiyasida taqdim etdi
- 25** Ekologik ta'lim sohasidagi ilk
Digital-filial konsepsiyasi
- 26** Xitoyning cho'llanishga qarshi kurash
sohasidagi ilg'or tajribasi o'rganilmoqda
- 27** O'zbekiston AQSHda o'rmonlarni tiklash
bo'yicha tashabbuslarini taqdim etdi
- 28** Nukusda ekologik festival o'tkazildi
“Ona zamin” spektakli premyerasi
- 29** “ARTepa” galereyasida
noodatiy ko'rgazma

ILMIY MAQOLALAR

- 30** **Rakhmonaliyeva D.R., Alimov Z.B., Musirmonov J.J.**
Seasonal evaluation of a cyclone-based
PM_{2.5} sampling system under dry continental
conditions: a case study of Tashkent
- 37** **Sharipov Sh.M., Zaripov Sh.B., Ismatova N.R.**
Spatiotemporal analysis of co emissions
in Tashkent city in summer
- 43** **Rahmatullayeva M.A.**
Evaluating the effectiveness of climate change
adaptation strategies in Chad's high-risk regions
- 48** **Samiyev L.N., Sobirov U.A.**
Manzarali daraxtlarning ko'karuvchanligini
baholashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash
- 55** **Masharipov A.A.**
Bioxilma-xillikni saqlashda ekologik yondashuvlar
va yashil hududlar rivojlanishining o'rni

- 59 Adilov S.U., G'ulomov G'.K.**
"Markaziy qizilqum" milliy tabiat bog'ida uchraydigan Eminium (blume) Schott (araceae) turining bioekologik xususiyatlari
- 62 Karimov H.A., Kurambaeva M.B., Kuvatov A.K., Mubarak T.Sh.**
Формирование активного биофлока и зоны стратификации в рыбоводных прудах при интенсивном выращивании рыбы
- 65 Aminov Kh.Kh., Khamdullayeva A.B.**
Lake ecosystem degradation, water quality dynamics and restoration priorities: a scopusbased review for environmental assessment
- 72 Meliboyeva F.S.**
Iqlimiy omillar ta'sirida Qo'qon vohasi ekotizimlarining transformatsiyasi va ekologik holati tahlili
- 77 Aminov X.X.**
Qashqadaryo viloyatida sanoat obyektlari atrofida ekologik xavf hududlarini GAT asosida rayonlashtirish
- 80 Gapporov X.L., Kulmatov R.A.**
Sirdaryo havzasi kollektor-zovur tarmoqlari suv oqimi dinamikasi, statistik tahlili va prognozi (O'zbekiston hududi)
- 91 Мурадов Ш.О., Турдиева Ф.А.**
Районирование по интервалу критических глубин залегания грунтовых вод (на примере бассейна реки Кашкадарья)
- 98 Saydillayeva S.N., Kadirov B.Sh.**
Tog' muzliklari joylashgan hududlarda qishki yog'inlar miqdorini radiolokatsion kuzatuvlar asosida baholash
- 103 Чембарисов Э.И., Баллиев А.И., Реймова Г.Б.**
Многолетняя динамика некоторых характеристик мелиоративного состояния орошаемых земель Кегейлийского района Каракалпакстана
- 109 Кадиров С.У., Дадаходжаев А.Т.**
Разработка высокоактивного катализатора среднетемпературной конверсии (стк) на основе отработанного железохромового катализатора
- 114 Axmedova Z.R., Kadirova G.X., Yaxyaeva M.A., Xamraeva Z.T., Shonaxunov T.E., Ibragimov A.A.**
Alyuminiy kompozit qoplamali plastinkalarining fitopatogen zamburug'larga nisbatan antifungal ta'siri
- 119 Azimov F.Z.**
Biomorf arxitektura prinsiplarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ekologik samaradorligi

EKOOLAM

- 124** 1. Dunyodagi har beshinchi suv ombori cho'kindiga to'lib bormoqda
2. Okeanlar antropogen omillar bosimi ostida...
3. Hayvonlar uchun oldindan ogohlantirish tizimi
- 125** 4. Qushlar shamol turbinalarini chetlab o'tadi
5. Hindistonda yo'lbarzlarni asrash uchun «qizil yo'l» ochildi
- 126** 6. Yaponiya sakuradan mahrum bo'lishi mumkin
7. Xitoylik olimlar plastikni aviayonilg'iga aylantirish usulini kashf etishdi
8. Fransiya o'rmonni qutqarishga kirishdi
- 127** 9. Kapalaklar ommaviy ravishda ko'chmoqda
10. Pirotexnika vositalari atrof-muhitni ifloslantiradi
- 128** 11. Pushti flamingolar o'ziga xos rangini yo'qota boshladi
12. Laylaklar nega chiqindixonani tanlamoqda?



GLOBAL EKOLOGIK JAMG'ARMANING SAKKIZINCHI ASSAMBLEYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Hurmatli assambleya ishtirokchilari!
Xonimlar va janoblar!

Sizlarni asrlar davomida Sharq va G'arbni, turli madaniyat va sivilizatsiyalarni, ilm-fan va amaliy bilimlarni bog'lab kelgan qadimiy Samarqand shahrida samimiy qutlash biz uchun ulkan sharafdir.

Bugungi yig'ilish 5-iyun – Butunjahon atrof-muhit kuni arafasida o'tayotgani alohida ramziy ma'noga ega. Shu munosabat bilan anjuman ishtirokchilarini ushbu muhim sana bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, bugungi kunda insoniyat misli ko'rilmagan inqirozlar – iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi tahdidlarga duch kelmoqda.

Bu kabi muammolarni hal etishda Global ekologik jamg'arma alohida o'rin egallab kelmoqda. 186 ta davlatni birlashtirgan ushbu noyob global hamkorlik platformasi hozirga qadar 170 milliard AQSh dollaridan ziyod mablag'ni ekologik loyihalar uchun safarbar etgani tahsinga sazovordir.

Ming afsuski, iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan cho'llanish, yer degradatsiyasi, muzliklarning erishi va suv tanqisligi Markaziy Osiyo uchun asosiy tahdid bo'lib qolmoqda. Jahon banki tahliliga ko'ra, mintaqamizda qariyb 37 million kishi suv tanqisligi kuchli bo'lgan hududlarda yashamoqda va 2050-yilga borib, bu ko'rsatkich 75 millionga yetishi mumkin.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Yangi O'zbekiston mavjud muammolar ko'lamiga qaramay, ekologik transformatsiyani yangi taraqqiyot modeli sifatida ko'rmoqda. Shu bois, biz tizimli loyiha boshqaruviga o'tib, atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilma-xillik, chiqindilarni boshqarish, ko'kalamzorlashtirish, ekologik ta'lim va madaniyatni qamrab olgan beshta milliy loyihani amalga oshirmoqdamiz.

Mazkur tashabbuslar doirasida 2030-yilga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini respublika hududining 21 foizigacha kengaytirish, havoga zararli tashlamalarni 10,5 foizga qisqartirish hamda har bir hududda dendrologiya va botanika bog'larini tashkil etish rejalashtirilgan.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha joriy yilda 2 ta, kelgusi ikki yilda yana 9 ta zavodni ishga tushirish belgilangan, ular yiliga 5,5 million tonna chiqindini qayta ishlash orqali 1,1 million tonna issiqxona gazlari tashlamalarini qisqartirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ekologik ta'lim va ilm-fanning yagona ekotizimi shakllantirilib, "Green University" negizida 10 ta ilmiy-tadqiqot instituti va markaz hamda 14 ta "yashil" texnikum birlashtirildi, qariyb 2 million yoshning ekologik savodxonligini oshirish jarayoni boshlab yuborildi.

Biz o'tgan asrda yuz bergan Orol fojiasiga yangicha yondashib, uning oqibatlarini bartaraf etish, Orolbo'yi hududini tiklanish, ilm-fan va innovatsiyalar maydoniga aylantirish yo'lida 2 million gektardan ortiq unumdorligini yo'qotgan yerlarni qayta tiklamoqdamiz.

Mintaqaviy sa'y-harakatlarni birlashtirish va amaliy yechimlarni joriy etish maqsadida "Eco Expo Central Asia" platformasi yo'lga qo'yildi, u hududlar va sanoatdagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarga moliyaviy resurslar va "yashil" yechimlarni jalb etishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Sizlarni tashkil etilgan ko'rgazmaga taklif qilaman. Yashil loyihalarimiz manfaatli kelishuvlarga asos bo'ladi degan umiddaman.

Qadrli do'stlar!

Albatta, iqlim o'zgarishining tobora kuchayib borayotgan salbiy ta'siri bizdan tezkor amaliy qadamlarni talab qilmoqda. Assambleya doirasida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqchimiz va ularni hayotga tatbiq etishda Sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan. Samarqandni "Markaziy Osiyoning yashil investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti" deb e'lon qilishni taklif etamiz.

Biz Samarqandni mintaqaviy "yashil iqtisodiyot", barqaror rivojlanish va iqlim moliyasi markaziga aylantirishni, shaharni pilot "yashil hudud" sifatida rivojlantirishni hamda ushbu tajribani keyinchalik respublikaning boshqa shaharlariga ham tatbiq etishni maqsad qilganmiz.

Ikkinchidan. Bundan 600 yil muqaddam Mirzo Ulug'bek Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirgan bo'lsa, bugungi kunda Kolumbiya universitetining Barqaror rivojlanish markazi hamkorligida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti qoshida Ulug'bek nomidagi Barqaror rivojlanish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilmoqda.

Institut hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini yashil va barqaror rivojlanish asosida transformatsiya qilish, xalqaro ilmiy markazlar va moliya institutlarini jalb etish bo'yicha

yetakchi ilmiy-tahliliy platforma bo'ladi, uning strategik boshqaruvi esa Prezident huzuridagi Vasiylik kengashi orqali amalga oshiriladi.

Uchinchidan. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida Iqlim o'zgarishi va gidrometeorologiya milliy markazi tashkil etilmoqda.

Markaz gidrometeorologiya, erta ogohlantirish, glyatsiologiya, iqlim ta'sirini baholash va issiqxona gazlari monitoringini uyg'unlashtirib, iqlim prognozlarini, modellashirish, moslashuv va mitigatsiya dasturlari, mintaqaviy hamkorlik hamda WMO GAW va NASA AERONET dasturlarida ishtirok etish uchun institutsional zamin yaratadi.

To'rtinchidan. Yaqinda Qozog'iston Prezidenti bilan "Toza havo" davlatlararo konsorsiumini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishdik. Uning faoliyati "yashil" moliyani jalb etish, o'rmon-melioratsiya, ilmiy tadqiqotlar, sanoatni ekologik modernizatsiya qilish hamda monitoring va nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Mintaqaning barcha davlatlarini Konsorsium faoliyatiga qo'shilishga taklif etamiz.

Beshinchidan. Cho'llanishga qarshi kurash instituti negizida Orolbo'yida cho'llanish oqibatlarini yumshatish, "yashil" qalqonlar barpo etish va iqlim moslashuviga qaratilgan "cho'l iqtisodiyoti" tashabbusini ilgari surib, uni GEFning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang holda xalqaro moliyaviy hamda texnik ko'mak asosida amalga oshirishni taklif etamiz.

Oltinchidan. 2027-yilgi Toshkent investitsiya forumi "Barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar" mavzusida o'tkazilib, uning doirasida "Eco Expo Central Asia" xalqaro ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Forumda har bir hudud yashil investitsiyalarni jalb qilish uchun kamida 100 ta istiqbolli loyihani tayyorlab, investorlarga taqdim etadi.

Yana bir muhim tashabbusimizni e'lon qilmoqchiman. O'zbekiston Global ekologik jamg'arma donor mamlakatlari qatoriga qo'shilishga tayyor. Biz Jamg'arma Kengashi a'zosi sifatida qo'shma mintaqaviy tashabbuslarni amaliy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Bugun o'z ishini boshlayotgan mazkur Assambleya ekologik hamkorlikning yangi mintaqaviy arxitekturasini shakllantirishda muhim maydonga aylanishiga qat'iy ishonaman.

Anjuman ishiga ulkan muvaffaqiyatlar, barchangizga yangi yutuqlar va omad, oilaviy baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

SAMARQAND EKOLOGIK KUN TARTIBI ATROFIDA DUNYONI BIRLASHTIRDI

Samarqandda 30-may – 6-iyun kunlari yilning ekologiya sohasidagi eng muhim xalqaro tadbirlaridan biri Global ekologik jamg'armaning (GEF) VIII Assambleyasi va uning doirasida “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ko'rgazmasi o'tkazildi.

Mazkur tadbirlarda 180 dan ortiq davlatdan vazirlar va soha mas'ullari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, biznes, ilmiy jamoatchilik, fuqarolik jamiyati vakillari qatnashdi. Assambleya doirasida yuqori darajadagi yalpi majlislar, vazirlar uchrashuvlari, mavzuli davra suhbatlari, fuqarolik jamiyati forumlari, loyihalar taqdimotlari tashkil etildi.

O'zbekiston mezbonlik qilgan ushbu xalqaro anjuman tafsilotlariga quyida batafsil o'xtalib o'tamiz.

GEF KENGASHINING 71-YIG'ILISHI: USTUVOR YO'NALISHLAR

Global ekologik jamg'armaning VIII Assambleyasi hamda “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ko'rgazmasi arafasida o'tkazilgan GEF kengashining 71-yig'ilishida fondga a'zo 186 mamlakat vakillari, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, ekologik agentliklar, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor vakillari ishtirok etdi.



Tadbinning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Global ekologik fond bosh direktori hamda strategiya va operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon nutq so'zladi.

Aziz Abduhakimov GEF Assambleyasi va unga hamroh tadbirlarning Samarqandda o'tkazilishi O'zbekiston uchun katta sharaf ekanligini ta'kidladi.



“

– Asrlar davomida Samarqand turli qit'alardagi insonlar, madaniyatlar va g'oyalarni bog'lab kelgan, – dedi A. Abduhakimov.
– Bugun esa shahar umumiy ekologik muammolarni hal etish yo'lidagi global hamkorlik markazi sifatida barchamizni birlashtirmoqda.

Assambleyaning bu yilgi mavzusi — “2030-yil uchun so'nggi intilish” — ekologik inqiroz kuchayib borayotgan va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun vaqt tobora qisqarayotgan sharoitda, ayniqsa, dolzarb ekanini qayd etildi.

O'zbekiston GEF bilan uzoq yillik hamkorlikni yuksak qadrlashi ta'kidlandi. Hamkorlik yillari davomida jamg'arma mamlakatga biologik xilma-xillikni saqlash, jumladan, qor qoplonini muhofaza qilish, Orolbo'yi ekotizimlarini tiklash, iqlimga chidamlilikni oshirish, yer va chiqindilarni barqaror boshqarish tizimlarini takomillashtirishda ko'maklashdi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi GEF loyihalari portfeli umumiy qiymati 56 million AQSH dollariga teng bo'lgan 13 ta loyihani o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, qiymati 30 million dollardan ortiq bo'lgan 5 ta yangi loyiha portfeli ham shakllantirilgan.

Yig'ilishning birinchi kuni 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan GEF-9 moliyalashtirish siklining ustuvor yo'nalishlari, ekologik moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, hamkorlikni kengaytirish hamda global ekologik maqsadlarga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlash masalalariga bag'ishlandi.

Kun tartibidagi asosiy mavzulardan biri GEF trast jamg'armasini to'qqizinchi bor to'ldirish bo'yicha muzokaralar yakunlari bo'ldi. Fondning boshqaruv organlari investisiya strategiyasi, resurslarni taqsimlashning yangi yondashuvlari va moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqdi. Ta'kidlanishicha, GEF-9 mablag'larining dastlabki umumiy hajmi 3,9 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, donor mamlakatlar Jahon banki tomonidan yakuniy qaror tasdiqlanishiga qadar qo'shimcha badallar e'lon qilishi mumkin.

Muhokamalar davomida davlatlar vakillari eng kam rivojlangan mamlakatlar, kichik orol rivojlanayotgan davlatlar, shuningdek, mahalliy va tub aholi jamoalarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurligini ta'kidlashdi. Transchegaraviy ekologik

loyihalarni kengaytirish, aralash moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda xususiy sektorni tabiatni muhofaza qilish tashabbuslariga kengroq jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, 2026-yil iyun oyiga mo'ljallangan GEF ishchi rejasi ham ko'rib chiqildi. U 19 ta mamlakatda amalga oshiriladigan 16 ta loyihani o'z ichiga oladi. Ushbu loyihalarga 141,4 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilishi va 828 million dollardan ortiq qo'shimcha hamkorlik mablag'lari jalb qilinishi kutilmoqda. Aralash moliyalashtirish mexanizmlarining muvaffaqiyatli qo'llanishiga misol sifatida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan «Uzbekistan Risk Mitigation Facility» loyihasi alohida e'tirof etildi.

Kengash GEFning 2027-moliyaviy yil uchun korporativ byudjeti, fond hamkorlik tarmog'i faoliyati samaradorligini oshirish, ijrochi agentliklar sonini kengaytirish hamda GEF-9 doirasida STAR resurslarini taqsimlash tizimini takomillashtirish masalalarini muhokama qildi. Ekologik siyosatning ilmiy asoslarini mustahkamlash masalalariga ham katta e'tibor qaratildi. Yig'ilishda global haroratning oshishi, kuchli issiqlik to'liqlarining oqibatlari, dunyo okeanlari uchun xavf-xatarlar, plastik chiqindilar bilan ifloslanish va PFAS birikmalarining tarqalishi kabi zamonaviy ekologik muammolar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar taqdim etildi. Shuningdek, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va ekologik siyosatni tizimli ravishda transformatsiya qilishning muhimligi ta'kidlandi.

HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI

31-may kuni Samarqandagi "Silk Road Samarkand" majmuasida O'zbekiston Respublikasi va Global ekologik fondning (GEF) VIII Assambleyasi bayroqlarini tantanali ko'tarish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Global ekologik fond bosh direktori hamda strategiya va operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon ishtirok etdi.



Ushbu marosim dunyoning turli mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar vakillari va ekologiya sohasidagi ekspertlarni birlashtirgan eng yirik xalqaro ekologik tadbirlardan birining boshlanishi ramzi bo'ldi.

Rasmiy qismdan so'ng GEF Kotibiyati va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi o'rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu hujjat ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, Ekologiya milliy qo'mitasi xodimlari uchun GEF Kotibiyatida amaliyot o'tash va kasbiy tajriba almashish imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Memorandum doirasida tomonlar iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikni saqlash, yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurash, kimyoviy moddalar va chiqindilarni boshqarish sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro va milliy ekologik tuzilmalar o'rtasidagi institusional aloqalarni mustahkamlashga kelishib oldi.

Assambleya doirasida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi O'rmonlar va yashil hududlarni ko'paytirish hamda cho'llanishga qarshi kurashish agentligi direktori Erkin Muhiddinov hamda Yaponiyaning Sanoat, ma'naviy va madaniy taraqqiyot tashkiloti (OISCA) ijrochi vise-prezidenti Nagaisi Yasuaki o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda tomonlar hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Hujjatga muvofiq, mamlakatimizda yangi o'rmonlar barpo etish va muhofaza qilish, shuningdek, o'rmonlardan barqaror foydalanishni ta'minlash bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar izchil amalga oshiriladi. Yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda respublikaning qurg'oqchil va degradatsiyaga uchragan hududlarida cho'llanishning oldini olish hamda atmosfera havosining tozaligini ta'minlash maqsadida "yashil qoplamalar" barpo etiladi.

Shu bilan birga, o'rmon xo'jaligi sohasida ilmiy tajriba almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Seminarlar, treninglar, o'quv kurslari va forumlarni birgalikda tashkil etish rejalashtirilgan.

BIOXAVFSIZLIK TIZIMINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN LOYIHA

"O'zbekistonda bioxavfsizlik tashabbusining ishga tushirilishi: Kartaxena protokolini targ'ib qilish" mavzusidagi sayd-ivent Global ekologik fond tomonidan moliyalashtirilayotgan "Kartaxena bioxavfsizlik protokoliga muvofiq O'zbekistonda milliy bioxavfsizlik tizimini joriy etish" loyihasining rasmiy ishga tushirilishiga bag'ishlandi.

Tadbir O'zbekistonning xalqaro ekologik majburiyatlari, xususan, Kartaxena bioxavfsizlik protokoliga muvofiq milliy bioxavfsizlik tizimini mustahkamlashga qaratilgan loyiha maqsadlari va kutilayotgan natijalarini taqdim etish uchun yuqori darajadagi muloqot maydoniga aylandi.

Tadbir ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) bosh direktori Gretel Agilar, Global ekologik fond (GEF) va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bo'linmasi rahbari Jeffri Griffin hamda Bioxilma-xillik to'g'risidagi konvensiya kotibiyati Amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash guruhi direktori Asad Naqvi tabrik so'zlari bilan

murojaat qildi. IUCNning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Oliver Avramoski esa moderator sifatida ishtirok etdi.

“

Aziz Abduhakimov o'z nutqida loyihaning ishga tushirilishi ekologik boshqaruv doirasidan ancha kengroq ahamiyatga ega ekanini va O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi hamda savdo integratsiyasi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidladi. Qayd etilishicha, mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidagi harakatlari jarayonida qishloq xo'jaligi savdosi va sanitariya choralariiga oid xalqaro standartlarga mos, shaffof hamda ilmiy asoslangan bioxavfsizlik tizimini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Yevroosiyo muhim tranzit yo'laklari bo'ylab joylashgan davlat sifatida O'zbekiston tirik modifikatsiyalangan organizmlarning transchegaraviy harakati bilan bog'liq xavflarga tobora ko'proq duch kelayotgani ta'kidlandi. Shu munosabat bilan laboratoriya salohiyatini rivojlantirish, monitoring tizimlarini takomillashtirish va chegara nazoratini kuchaytirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida baholandi.

Tadbir davomida loyiha bioxavfsizlik sohasidagi milliy siyosat va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, idoralararo muvofiqlashtirishni mustahkamlash, texnik va laboratoriya salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, tirik modifikatsiyalangan organizmlar bilan bog'liq xavflarni baholash, monitoring qilish va boshqarish tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.



Ishtirokchilar bioxavfsizlik, bioxilma-xillikni asrash va ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro majburiyatlarni samarali amalga oshirish muhimligini, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi milliy nazorat va tezkor javob mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

Sayd-ivent doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) o'rtasida Maqsadlar to'g'risidagi bayonot imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur hujjat bioxilma-xillikni saqlash, bioxavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, iqlim barqarorligini mustahkamlash va ekotizimlarni tiklash

sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Tomonlar milliy salohiyatni mustahkamlash, institusional muvofiqlashtirishni takomillashtirish, ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish hamda bioxavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro standartlarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlik qilish niyatlarini bildirdilar. Shuningdek, mamlakatlarga global ekologik majburiyatlarni aniq milliy harakatlar va amaliy choralarga aylantirishda ko'maklashuvchi xalqaro hamkorlik va Global ekologik jamg'arma mexanizmlarining o'rni alohida ta'kidlandi.

“ECO EXPO CENTRAL ASIA 2026” — SAMARALI PLATFORMA

3-iyun kuni Samarqandda “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ekologik ko'rgazmasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatidan ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi xodimlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, diplomatik korpus vakillari, investorlar, ekologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar, ekoinnovatorlar, mahalliy va xalqaro ekspertlar qatnashdi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, BMT Bosh kotibi o'rinbosari – atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen hamda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) bosh direktori Gretel Agilar so'zga chiqib, O'zbekistonda ikkinchi marta o'tkazilayotgan mazkur ko'rgazmaning ahamiyatiga e'tibor qaratdi.

“

– “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ekologik ko'rgazmasi nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo uchun juda muhim ahamiyatga ega tadbir bo'lib, bu mintaqa davlatlari o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida amaliy hamkorlikni mustahkamlash, investisiyaviy jozibador ekologik loyihalarni ishlab chiqish, yangi qo'shma tashabbuslarni yo'lga qo'yish va uzoq muddatli xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun samarali platforma vazifasini o'tashiga ishonamiz, – dedi Aziz Abduhakimov. – Shu bilan birga ushbu ko'rgazma Markaziy Osiyo va jahon hamjamiyati o'rtasida innovatsiyalar, investisiyalar, bilim va aniq yechimlarni birlashtiruvchi “yashil” texnologik ko'prikn yaratish yo'lidagi muhim katalizatorga aylanadi. Chunki for-umning asosiy g'oyasi iqtisodiyotni eng ilg'or “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlantirish va ayni paytda atrof-muhitni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashdan iborat.

Aziz Abduhakimov, shuningdek, Samarqand shahrining ekologik diplomatiya, “yashil” moliyalashtirish va barqaror texnologiyalarni ilgari surish bo'yicha xalqaro maydon sifatidagi roli tobora ortib borayotganini ta'kidladi.

“Eco Expo Central Asia” ko'rgazmasi ekologik barqarorlikni mustahkamlash, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, innovasion ekologik texnologiyalarni joriy etish hamda barqaror rivojlanish

va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

2025-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan "Eco Expo Central Asia 2025" xalqaro ko'rgazmasi Markaziy Osiyodagi shu miqyosdagi ilk ekologik ko'rgazma bo'lgandi. Unda qariyb 7,5 ming nafar mahalliy va xorijiy ishtirokchilar qatnashgan va forum yakunlari bo'yicha Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi, GIZ va KOICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan 130 dan ortiq ekologik loyiha va dasturlar bo'yicha kelishuvlar imzolangan edi. Joriy yil esa bu raqamlar yanada salmoqli bo'lishi kutilmoqda. Sababi bu yilgi ko'rgazmada 10 mingga yaqin mahalliy va xorijiy ishtirokchi qatnashmoqda, ekologik mahsulot va xizmatlarni namoyish etuvchi 70 ga yaqin pavilon tashkil etilgan. Bundan tashqari, ekoinnovatorlarning ilg'or ishlanmalarini namoyish etish maqsadida O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan taqdim etilgan startap loyihalar uchun qo'shimcha 20 ta pavilon yaratildi.



O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hamda "Business Congress Management" (BCM) kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan ko'rgazmada Global yashil o'sish instituti, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi yetakchi xalqaro tashkilotlar ishtirok etdi.

Shuningdek, "Vision Invest" (Saudiya Arabistoni), SUEZ (Fransiya), "Cevia Environment" (Xitoy), KOMOTO (Yaponiya), EPSOY (Finlyandiya), "Siberian Wellness" (Rossiya), "Bell Energy" (BAA) va "Oizom Instruments" (Hindiston) kabi yirik xorijiy kompaniyalar, yurtimizdagi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, AKFA, Jizzax akkumulyator zavodi hamda "O'z kimyosanoat" AJ o'z mahsulot va xizmatlarini namoyish qildi.

Ko'rgazmada mintaqaviy ekologik loyihalarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatning barcha hududlari iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan aniq loyiha takliflarini tayyorlagan. Ushbu tashabbuslar xalqaro donorlar va investorlar e'tiboriga havola etildi.

Ko'rgazma doirasida "yashil" energetika, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror rivojlanish masalalariga bag'ishlangan 50 dan ortiq sayd-iventar, tematik forumlar, taqdimotlar va muloqotlar o'tkazildi.

EKOLOGIK FAOLIYAT E'TIROFI

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (UNECE) Ekologik faoliyat samaradorligini baholash dasturi doirasida tayyorlangan O'zbekistonning Ekologik faoliyat samaradorligi bo'yicha to'rtinchi sharhi (Environmental Performance Review – EPR) taqdimoti bo'lib o'tdi.

To'rtinchi sharh 2025-yil noyabr oyida UNECEning Ekologik siyosat qo'mitasi tomonidan rasman tasdiqlangan bo'lib, O'zbekistonning ekologik islohotlar, iqlim siyosati va barqaror rivojlanish sohalaridagi yutuqlarini aks ettiruvchi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi.

Tadbirda nutq so'zlagan Ekologiya vaziri o'rinbosari Jusipbek Kazbekov mamlakatda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning izchilligini hamda "yashil" transformatsiyani ilgari surishda xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta'kidladi.

Tadbirda UNECE Atrof-muhit va o'rmon xo'jaligi bo'limi direktori Paola Deda, Germaniya, Italiya va Shveysariya hukumatlari vakillari hamda sharhni tayyorlashda ishtirok etgan xalqaro ekspertlar ma'ruza qildi.

To'rtinchi sharhning asosiy xulosalari taqdimoti davomida O'zbekistonda ekologik siyosat va islohotlar samaradorligini baholash natijalari e'lon qilindi. Unda mamlakatning ekologik boshqaruv tizimini rivojlantirish borasidagi sezilarli yutuqlari, jumladan, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tashkil etilgani, ekologik monitoring tizimlari rivojlantirilgani, "Yashil makon" umummilliy loyihasining amalga oshirilayotgani, qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining ilgari surilayotgani hamda bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarning kuchaytirilgani e'tirof etildi.



Sharh natijalariga ko'ra, O'zbekiston Ekologik faoliyat samaradorligi bo'yicha uchinchi sharh doirasida berilgan tavsiyalarning 77 foizini to'liq yoki qisman amalga oshirgan yoxud ularni bajarish jarayonida. Yangi sharh 45 ta tavsiyani o'z ichiga oladi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi 12 maqsad bo'yicha 41 ta ko'rsatkichni qamrab oladi.

Tadbir davomida mamlakat ekologik siyosatining kelgusi ustuvor yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, iqlim bo'yicha harakatlarni kuchaytirish, tabiatga asoslangan yechimlarni joriy etish, ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda 2026 – 2030-yillarda sharh tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir doirasida O‘zbekistonning Ekologik faoliyat samaradorligi bo‘yicha to‘rtinchi sharhini topshirishning ramziy marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchilar xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, jamoatchilikning ekologik masalalardan xabardorligini oshirish va mintaqada ekologik barqarorlikni birgalikda ilgari surish muhimligini ta’kidladi.

Mazkur sayd-ivent O‘zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi yutuqlarini namoyish etish, shuningdek, milliy ekologik va iqlim kun tartibini amalga oshirish bo‘yicha navbatdagi qadamlarni muhokama qilish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qildi.

HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI – MUHOKAMA MARKAZIDA

Xalqaro ko‘rgazma doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov ekologiya, barqaror rivojlanish, iqlimga bardoshlilik va “yashil” innovatsiyalar sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazdi.

Muhim uchrashuvlardan biri Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) bosh direktori Gretel Agilar bilan bo‘lib o‘tdi. Tomonlar biologik xilma-xillikni asrash, tabiatga asoslangan yechimlarni (Nature-based Solutions) ilgari surish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishni takomillashtirish va ekoturizmni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Uchrashuvda bioxilma-xillikni asrash bo‘yicha yangilangan Milliy strategiya va harakatlar rejasini (NBSAP) tayyorlash, Markaziy Osiyoning Mintaqaviy Qizil ro‘yxatini yaratish hamda mintaqadagi transchegaraviy muhofaza etiladigan hududlarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston tomoni IUCNning Toshkentdagi mintaqaviy ofisi bilan hamkorlikni faollashtirish va Global ekologik fondning yangi GEF-9 sikli doirasida qo‘shma loyihalar tayyorlashni taklif etdi. Shuningdek, “Green University”ni ekologik ta’lim va ilm-fan bo‘yicha mintaqaviy platforma sifatida rivojlantirish, jumladan, IUCN Ekologik huquq akademiyasi bilan hamkorlik qilish va xalqaro ta’lim amaliyotlarini joriy etish masalalari ham muhokama qilindi.

BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) Bosh direktori o‘rinbosari va Global hamkorlik hamda tashqi aloqalar direksiya boshqaruvchi direktori Fatu Haydar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda “yashil” sanoatlashtirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va sanoatni modernizatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqildi.

“

Aziz Abduhakimov O‘zbekistonda ekologik kun tartibi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganini, Ekologiya vazirligining Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga aylantirilgani esa barqaror rivojlanish masalalariga yangicha institusional yondashuvning ifodasi ekanini ta’kidladi.

Muzokaralar davomida ko‘kalamzorlashtirish, bioxilma-xillikni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish, havo sifatini yaxshilash va ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha asosiy milliy tashabbuslar taqdim etildi. Shuningdek, UNIDO bilan eng yaxshi mavjud texnologiyalarni (BAT) joriy etish uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, iqlim innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash hamda «Global Cleantech Innovation Programme (GCIP)» doirasida startaplarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Tomonlar iqlim tahlili, erta ogohlantirish tizimlari va moslashuv moliyalashtirishini rivojlantirishga qaratilgan “Climate Technology Innovation for Climate Resiliencye in Uzbekistan” loyihasini amalga oshirish istiqbollarini ham ko‘rib chiqdi.

Yana bir muhim uchrashuv «National Geographic Society» tashkilotining ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha direktori Ian Miller bilan bo‘lib o‘tdi. Suhbat davomida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning tabiiy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, ilmiy tadqiqotlar, ekologik ma’rifat va hujjatli filmlar yaratish sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. O‘zbekiston tomoni xalqaro ahamiyatga ega tabiiy hududlar, jumladan, YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan G‘arbiy Tyanshan va “Turonning sovuq qishki cho‘llari”, shuningdek, Ramsar konvensiyasi ro‘yxatiga kiritilgan suv-botqoq hududlari haqida ma’lumot berdi. Aziz Abduhakimov Orolbo‘yi mintaqasi, tog‘ va cho‘l ekotizimlariga qo‘shma ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish, shuningdek, Markaziy Osiyoning tabiiy boyliklari haqidagi global xabardorlikni oshirishga qaratilgan hujjatli filmlar, fotoloyihalar va raqamli kontent yaratishni taklif qildi.



Ko‘rgazma doirasida Oman Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi prezidenti Abdulla bin Ali Al-Amri bilan ham uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tomonlar cho‘llanishga qarshi kurash, suv resurslarini boshqarish, chiqindilar bilan ishlash va bioxilma-xillikni asrash sohalaridagi amaliy hamkorlik istiqbollarini muhokama qildi.

O‘zbekiston «Green University» huzuridagi Cho‘llanishga qarshi kurash va cho‘l iqtisodiyotini rivojlantirish mintaqaviy tadqiqot markazi bazasida qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar hamda qumlarni mustahkamlash texnologiyalari bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar olib borishni taklif etdi.

Bundan tashqari, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish tajribasi almashinuvi, ta’lim dasturlarini tashkil etish va ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida

akademik almashinuvlarni yo'lga qo'yish tashabbuslari ham ko'rib chiqildi.

O'tkazilgan uchrashuvlar O'zbekistonning ekologik diplomatiya, barqaror rivojlanish, "yashil" iqtisodiyot va iqlim kun tartibi sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantiruvchi mintaqaviy markaz sifatidagi roli tobora ortib borayotganini yana bir bor tasdiqladi.

YAGONA MINTAQAVIY PLATFORMA YARATISH TAKLIF ETILDI

"O'zbekistonda pestisidlar va xavfli kimyoviy moddalarni boshqarish tizimini mustahkamlash: milliy taraqqiyot, hamkorlik va kelgusi qadamlar" mavzusidagi sayd-ivent xavfli kimyoviy moddalar va pestisidlarni ularning butun hayotiy sikli davomida boshqarish bo'yicha milliy tizimni takomillashtirish masalalariga bag'ishlandi.

Mazkur tadbir O'zbekistonda xavfli kimyoviy moddalar bilan ekologik jihatdan xavfsiz muomala qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni mamlakatning Bazeli, Rotterdami va Stokgolmi konvensiyalari doirasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiq ravishda muhokama qilish uchun yuqori darajadagi platformaga aylandi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Bazeli, Rotterdami va Stokgolmi konvensiyalari ijrochi kotibi Rolf Payet, BMT Taraqqiyot dasturining (UNDP) O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujii, shuningdek, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

“

– Bugungi kunda Markaziy Osiyo o'zaro ishonch, ilmiy hamkorlik, umumiy mas'uliyat va mintaqaning ekologik xavfsizligi barchamizning umumiy vazifamiz ekanini anglashga asoslangan ekologik hamkorlikning yangi madaniyatini shakllantirmoqda. Biz Markaziy Osiyoda pestisidlar, xavfli kimyoviy moddalar va chiqindilarni boshqarish bo'yicha yagona mintaqaviy platforma yaratishni taklif qilamiz. Bu muvofiqlashtirishni kuchaytirish, bilim almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi, – dedi Aziz Abduhakimov.

Tadbir davomida ishtirokchilar xavfli kimyoviy moddalar va pestisidlarni boshqarishga kompleks yondashuvni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi. Jumladan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, institusional salohiyatni mustahkamlash, monitoring va laboratoriya nazorati tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etish masalalariga e'tibor qaratildi.

Muddati o'tgan pestisidlarni inventarizatsiya qilish, xavfli chiqindilar bilan muomala qilish, atrof-muhitning barqaror organik ifloslantiruvchi moddalar (POPs va PFAS) bilan ifloslanishining oldini olish hamda o'ta xavfli pestisidlardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni kamaytirish masalalari ham muhokama qilindi.



Texnik sessiya doirasida FAO vakillari O'zbekistonda pestisidlarning hayotiy siklini boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni taqdim etdi. Ular xavfli kimyoviy moddalar to'planib qolishining oldini olish, chiqindilarni utilitatsiya qilish infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq xo'jaligini yuritishning xavfsiz usullarini targ'ib etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berdi.

Bundan tashqari, UNDP vakillari Stokgolmi konvensiyasi doirasida amalga oshiriladigan yangi loyiha bo'yicha rejalarini taqdim etdi. Mazkur loyiha ifloslangan hududlar muammolarini hal etish va to'plangan ekologik zararni bartaraf etishga qaratilgan.

Muhokamalar yakunida kelgusidagi ishlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

IHT MAMLAKATLARI ATROF-MUHIT VAZIRLARINING OLTINCHI YIG'ILISHI

3-iyun kuni Samarqandda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar atrof-muhit vazirlarining 6-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tadbirida IHTga a'zo davlatlar delegatsiyalari, IHT kotibiyati rahbariyati va xalqaro hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Tadbirni ochib bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov ushbu uchrashuvning ahamiyatini alohida ta'kidladi.

“

– Bugun 12 yil ichida birinchi marta IHTga a'zo davlatlarning atrof-muhit vazirlari zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun yig'ildi, – dedi qo'mita raisi.

Mintaqadagi mamlakatlar o'rtasida amaliy hamkorlikni mustahkamlash, ayniqsa, qo'shma ekologik tashabbuslarni ilgari surish, bilim va eng yaxshi amaliyotlarni almashishda tobora muhim ahamiyat kasb etayotganiga e'tiborni qaratdi. Ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan hujjatlar — IHTning 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha doiraviy dasturi, iqlim va bioxilma-xillik bo'yicha ish

dasturlari va Samarqand deklaratsiyasi — mintaqaviy ekologik sheriklikning yangi bosqichi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Uchrashuv davomida ishtirokchilar IHTga a'zo davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, barqaror tabiatni boshqarish va yerlar degradatsiyasining oldini olish sohalaridagi milliy ustuvorliklarini muhokama qilishdi. Cho'llanishga qarshi kurashish, ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, barqaror o'rmon xo'jaligini boshqarish, qum va chang bo'ronlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratildi.



Tadbirda so'zga chiqqan O'zbekiston tomoni mintaqaviy ekologik hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha asosiy tashabbuslarni taqdim etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat o'zaro ishonch, mintaqaviy hamkorlik va umumiy ekologik muammolarni birgalikda hal qilish tamoyillarini izchil ilgari surayotgani ta'kidlandi.

O'zbekistonning yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurashishdagi tashabbuslariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, "Green University" qoshidagi Cho'llanishga qarshi kurash va cho'l iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati, shuningdek, O'zbekistonning IHT mamlakatlari bilan ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar almashinuvi va qo'shma sinov loyihalarini amalga oshirishda hamkorlikni kengaytirishga tayyorligi qayd etildi.

Bundan tashqari, ishtirokchilarga IHTga a'zo davlatlar uchun 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan, cho'l hududlarida o'rmonzorlarni barpo etishga qaratilgan transchegaraviy «Yashil dastur»ni ishlab chiqish tashabbusi taqdim etildi. O'zbekiston tomoni IHTning Atrof-muhitga oid hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi platformasi doirasida qum va chang bo'ronlari uchun mintaqaviy erta ogohlantirish tizimini ishlab chiqishni ham taklif qildi.

Uchrashuv yakunida ishtirokchilar IHTning 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan Atrof-muhit bo'yicha hamkorlik doiraviy dasturini va uning tematik ilovalarini, jumladan, iqlim o'zgarishi va bioxilma-xillik bo'yicha ish dasturlarini ma'qulladi. Mintaqaviy ekologik hamkorlik bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

MARKAZIY OSIYO VA UNEP: EKOLOGIK HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

Global ekologik fondning (GEF) VIII Assambleyasi doirasida Markaziy Osiyo atrof-muhit vazirlari va BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Qozog'iston ekologiya va tabiiy resurslar vaziri Yerlan Nisanbayev, Tojikiston hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda hamda Qirg'iziston va Turkmaniston vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda tomonlar mintaqaviy ekologik hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari va UNEP bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalarini muhokama qilishdi. Unda so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim kun tartibi mintaqaviy davlat rahbarlari darajasida misli ko'rilmagan e'tiborga sazovor bo'lgani ta'kidlandi. Buni 2025-yilgi Samarqand iqlim forumi va Ostonada bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit tasdiqladi.

Muzokaralarning asosiy mavzularidan biri havo sifatini yaxshilash va Toza havo uchun davlatlararo koalitsiyani rivojlantirish tashabbusi bo'ldi. Ishtirokchilar qum va chang bo'ronlarining Markaziy Osiyo shaharlari aholisi salomatligi va atrof-muhitiga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy loyihani UNEP bilan birgalikda ishlab chiqish masalasini muhokama qilishdi. Ushbu tashabbus oxir-oqibat havo sifatini monitoring qilish va prognozlash tizimlari, atrof-muhit ma'lumotlari almashinuvi va transchegaraviy ifloslanishni kamaytirish choralarini muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan to'laqonli mintaqaviy dasturga aylanishi mumkinligi ta'kidlandi.



Shuningdek, Markaziy Osiyoda atrof-muhit o'zgarishlarining mintaqaviy atlasini yaratish tashabbusiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston 2025-yilda UNEP ko'magida ishga tushirilgan Milliy atrof-muhit atlasini ishlab chiqish tajribasini taqdim etdi. Shu asosda mintaqadagi mamlakatlarning ekologik ma'lumotlarini birlashtirgan va Markaziy Osiyodagi ekologik tendensiyalarni har tomonlama baholaydigan yagona mintaqaviy atlas yaratish taklif qilindi.

Uchrashuvda, shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Monreal protokoli doirasidagi o'rnini, qolaversa, mintaqaning BMT tizimi va UNEPdagi institusional vakilligi muhokama qilindi. Tomonlar Markaziy Osiyoning xalqaro ekologik jarayonlardagi rolini kuchaytirish muhimligini va mintaqadagi mamlakatlarning hozirgi ehtiyojlarini to'liqroq qondirish zarurligini ta'kidlagan.

Uchrashuv ishtirokchilari Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik va iqlim xavfsizligini ta'minlash maqsadida UNEP bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga qiziqishlarini tasdiqladi.

MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

4-iyun kuni "Silk Road Samarkand" majmuasi Kongress markazida Global ekologik jamg'armaning (GEF) VIII Assambleyasi ochilish marosimi o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Assambleya ishtirokchilariga tabrigini Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva o'qib eshittirdi.



Davlatimiz rahbari o'z tabrigida bugungi kunda insoniyat misli ko'rilmagan inqirozlar – iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi tahdidlarga duch kelayotganini qayd etib, bu kabi muammolarni hal etishda Global ekologik jamg'armaning alohida o'rin egallab kelayotganini ta'kidlagan.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ekologik transformatsiya yangi taraqqiyot modeli sifatida ko'rilyotgani va tizimli loyiha boshqaruviga o'tib, atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilma-xillik, chiqindilarni boshqarish, ko'kalamzorlashtirish, ekologik ta'lim va madaniyatni qamrab olgan beshta milliy loyiha amalga oshirilayotgani alohida qayd etilgan.

Tabrikda Prezidentimiz tomonidan bir qator tashabbuslar ham ilgari surildi. Jumladan, Samarqandni "Markaziy Osiyoning yashil investisiyalar va innovatsiyalar poytaxti" deb e'lon qilish taklif etildi. Kolumbiya universitetining Barqaror rivojlanish markazi bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti qoshida Ulug'bek nomidagi Barqaror rivojlanish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilayotgani ma'lum qilindi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida Iqlim o'zgarishi va

gidrometeorologiya milliy markazi tashkil etilayotgani bildirildi. Cho'llanishga qarshi kurash instituti negizida Orolbo'yida cho'llanish oqibatlarini yumshatish, "yashil" qalqonlar barpo etish va iqlim moslashuviga qaratilgan "cho'l iqtisodiyoti" tashabbusi ilgari surilib, uni Global ekologik jamg'armaning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang holda xalqaro moliyaviy hamda texnik ko'mak asosida amalga oshirishni taklif etildi.

Bundan tashqari, 2027-yilgi Toshkent investisiya forumi "Barqaror rivojlanish va yashil investisiyalar" mavzusida o'tkazilishi va uning doirasida "Eco Expo Central Asia" xalqaro ko'rgazmasi tashkil etilishi tashabbusi ilgari surildi.

E'tiborli jihati, davlatimiz rahbari tabrigida O'zbekiston Global ekologik jamg'armaning donor mamlakatlari qatoriga qo'shilishga tayyorligi ma'lum qilindi.

Marosimda BMT Bosh kotibi o'rinbosari – atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen, BMTning Bazel, Rotterdam va Stokgolm konvensiyalari ijrochi kotibi Rolf Payet, Global ekologik jamg'armaning bosh direktori hamda strategiya va operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon so'zga chiqib, Global ekologik jamg'armaning VIII Assambleyasi yuksak saviyada tashkil etilgani uchun mamlakatimiz rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi hamda global ekologik muammolarni hal etishda mazkur xalqaro forumning ahamiyatiga to'xtaldi.



“

– Bundan 35 yil avval, 1991-yilda tashkil etilgan Global ekologik jamg'armaning (GEF) ma'lum bir hudud va davlatlarga emas, balki butun dunyo atrof-muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni bartaraf etish, ularning oldini olish va global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi, – dedi BMT Bosh kotibi o'rinbosari – atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen. – Va bugun ushbu tashkilot dunyo davlatlarini o'z atrofida birlashtirib, bu maqsadlar yo'lida ish olib bormoqda, ekologik muammolarga samarali yechimlarini taklif etmoqda. Bu yechimlar a'zo davlatlarga atrof-muhitni himoya qilish, ifloslanishga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda milliy harakatlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam bermoqda.

O'zbekiston 1995-yilda GEFga qo'shilganidan buyon turli milliy va mintaqaviy grantlar orqali muhim natijalarga erishib kelmokda. Bu grantlar noyob landshaftlarni asrash, ozon qatlamiga zarar yetkazuvchi moddalarni bosqichma-bosqich kamaytirish, kam uglerodli transport tizimlarini rivojlantirish uchun tezkor

avtobus yo‘laklarini joriy etish hamda ekologik muammolarni hal etish salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Jumladan, Markaziy Osiyo transchegaraviy bioxilma-xillik loyihasi va Orol dengizi havzasi dasturlari orqali davlatlararo ekologik boshqaruv va iqlim barqarorligi mustahkamlandi. Mamlakatimiz GEF ko‘magida oziq-ovqat tizimlari, yer resurslari va ekotizimlarni tiklash dasturlarida ishtirok etmoqda.

Mutaxassislarining ta’kidlashicha, Global ekologik jamg‘armaning VIII Assambleyasi global ekologik maqsadlarga erishish bo‘yicha tezlashtirilgan yo‘l xaritasini belgilaydi. Samarqanddagi forum dasturi doirasida iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga bardoshlilikni oshirish, bioxilma-xillikni saqlash, yer degradatsiyasi va cho‘llanishga qarshi kurash, suv resurslarini boshqarish hamda atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish kabi masalalar muhokama qilinmoqda. Jamg‘armaning 2026 - 2030-yillarga mo‘ljallangan yangi moliyaviy dasturiga (GEF-9) alohida e’tibor qaratilib, tabiat, iqlim va ifloslanishga qarshi kurash masalalarini birlashtiruvchi kompleks yondashuv ishlab chiqiladi.

ENG YAXSHI STARTAP LOYIHALAR TAQDIRLANDI

“Eco Expo Cyentral Asia 2026” xalqaro ekologik ko‘rgazmasining taqdirlash marosimida startap loyihalarning eng yaxshilari e’tirof etildi. Ko‘rgazma doirasida 37 ta startap loyiha taqdim qilindi.

“SAWAB” startap loyihasi 1-o‘ringa munosib ko‘rildi. Ushbu loyiha mualliflari namanganlik Saidamir Agzamov va Boburbek Asqarov oziq-ovqat isrofgarchiligini kamaytirishga innovatsion yondashgani e’tiborga molik.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidan Shahida Karlibayeva va Miyratdin Ajiniyazovning “ECOPOTS” startap loyihasi 2-o‘rinni egalladi. Loyihada qo‘y jini chiqindilarini biologik parchalanadigan, o‘simliklar ekiladigan idishlarga aylantirish orqali ekologik barqaror yechim yaratilgan, bu esa plastik ifloslanishni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

3-o‘rin Toshkent shahridan Akbarali Turdiyev va uning jamoasi tegishli “SMART FOREST” startap loyihasiga nasib etdi. Loyihada sun‘iy intellekt asosidagi innovatsion ekologik monitoring yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu o‘rmonlarni muhofaza qilish, yong‘inlarni erta aniqlash hamda aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, Buxoro viloyatidan Muhridin Yoqubov va Muinjon Naimovning “Eco Mikrogreens” startap loyihasi atrof-muhitga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qo‘shgan munosib hissasi uchun “Atrof-muhitga eng katta ta’sir ko‘rsatgan loyiha”, Toshkent shahridan Oyatulloh Abdujabborovning “Eco Brick” loyihasi esa innovatsion, texnologiyalarga asoslangan va istiqbolli ekologik yechimni taqdim etgani uchun “Eng innovatsion ekologik yechim” nominatsiyalari bilan taqdirlandi.



**Tadbirda
bag‘ishlangan
videorolikni
tomosha
qilish uchun
skanerlang**

MINTAQAVIY SHARH YUZASIDAN SAMARQAND BAYONOTI

3-iyun kuni «Silk Road Samarkand» ko‘rgazma majmua-sida “Markaziy Osiyo ekologik faoliyati samaradorligining mintaqaviy sharhi: tematik qamrovni tasdiqlash va amaliy bosqichni boshlash” mavzusida o‘tkazilgan tadbir BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE), O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda xalqaro hamkorlar tomonidan tashkil etildi. U ekologiya, iqlim barqarorligi va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish sohalarida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim muloqot maydoni bo‘ldi.



Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov ekologik xavfsizlik va mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlash uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish muhimligini ta’kidladi.

Qo‘mita raisi bugungi kunda Markaziy Osiyo o‘zaro ishonch, ilmiy hamkorlik va barqaror kelajak uchun umumiy mas’uliyat tamoyillariga asoslangan yangi ekologik hamkorlik arxitekturasini shakllantirayotganiga e’tiborni qaratdi. Uning fikricha, mintaqada davlatlariga nafaqat siyosiy muloqot, balki yagona tahliliy baza, ekologik monitoring bo‘yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvlar, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish va qo‘shma iqlim tashabbuslarini amalga oshirish ham zarur.

Tadbirda Qozog‘iston ekologiya va tabiiy resurslar vaziri Yerlan Nisanbayev hamda Tojikiston Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi raisi Bahodur Sheralizoda ham ma’ruza qildi.

UNECEning Atrof-muhit va o‘rmon xo‘jaligi bo‘limi direktori Paola Deda mintaqaviy sharhning ekologik boshqaruvni mustahkamlash, muvofiqlashtirishni takomillashtirish va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida natijaga yo‘naltirilgan hamkorlikni rivojlantirishdagi amaliy ahamiyatiga urg‘u berdi.

Istirokchilar Markaziy Osiyo davlatlari iqlim o‘zgarishi, suv resurslari taqchilligi, havo ifloslanishi, yerlarning degradatsiyasi, bioxilma-xillikning kamayishi hamda aholi salomatligi uchun xavflarning ortishi kabi umumiy ekologik muammolarga duch

kelayotganini qayd etib, bu masalalar muvofiqlashtirilgan mintaqaviy yechimlar va hamjihat yondashuvlarni talab qilishini ta’kidladi.

Tadbirda Markaziy Osiyo ekologik faoliyati samaradorligi bo’yicha mintaqaviy sharhning asosiy mavzuviy yo’nalishlari: iqlim, havo sifati va jamoat salomatligi, qishloq xo’jaligi, ekotizimlar va energetika barqarorligini ta’minlash uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish, bioxilma-xillik va ekotizimlar, chiqindilar va kimyoviy moddalarga oid ma’lumotlar ham taqdim etildi.

Shuningdek, «yashil» moliyalashtirish, ekologik monitoring, standartlarni uyg’unlashtirish, ekologik axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va institusional hamkorlikni mustahkamlash kabi sohalararo masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

UNECE vakili Angela Sochirka mintaqaviy sharhni amalga oshirishning keyingi bosqichlarini taqdim etdi. Unga ko’ra, loyiha 2026–2028-yillarda amalga oshirilib, tahliliy ishlar, milliy maslahatlashuvlar va mintaqaviy muloqot jarayonlarini qamrab oladi. Yakuniy tavsiyalar 2028-yilda bo’lib o’tadigan “Yevropa uchun atrof-muhit” o’ninchi vazirlar konferensiyasida taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Tadbir yakunida Markaziy Osiyo ekologik faoliyati samaradorligi bo’yicha mintaqaviy sharh yuzasidan Samarqand bayonotini imzolash marosimi bo’lib o’tdi. Mazkur hujjat mintaq davlatlarining qo’shma ekologik harakatlar va mintaqaviy tashabbuslarni amaliy jihatdan ro’yobga chiqarishga sodiqligini tasdiqladi.

FUQAROLIK JAMIYATI TASHKILOTLARI FORUMI

Global ekologik fond (GEF)ning 8-Assambleyasi doirasida ekologik NNTlar, xalqaro tashkilotlar, yoshlar va ayollar birlashmalari, mahalliy hamda tub aholi vakillari, shuningdek, davlat tuzilmalari va rivojlanish hamkorlarini birlashtirgan Fuqarolik jamiyati tashkilotlari forumi bo’lib o’tdi.

Forumda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo’yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasi raisi Aziz Abduhakimov O’zbekiston uchun Fuqarolik jamiyati forumi shunchaki qo’shimcha tadbir emas, balki global ekologik jarayonning muhim qismi ekanini ta’kidladi.



Zamonaviy ekologik muammolar — iqlim o’zgarishi, yerlarning degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, bioxilma-xillikning yo’qolishi, atrof-muhit ifloslanishi va chang-to’zon bo’ronlari — bevosita aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik va hududlarning barqarorligiga ta’sir ko’rsatmoqda.

Tadbirda fuqarolik jamiyatining mahalliy ekologik muammolarni aniqlash, ekologik xabardorlikni oshirish va joylarda amaliy yechimlarni amalga oshirishdagi muhim roli alohida qayd etildi. O’zbekiston fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni izchil mustahkamlab, aholining ekologik axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

2025-yil mart oyida O’zbekistonning atrof-muhitga oid axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtiroki va ekologik masalalarda adolatga erishish bo’yicha Orxus konvensiyasiga qo’shilgan. Ushbu qadam ekologik boshqaruvda ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

“

Aziz Abduhakimov Markaziy Osiyo mamlakatlari bugungi kunda nodavlat tashkilotlarning faol ishtirokida yangi mintaqaviy ekologik hamkorlik platformalarini shakllantirayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, mintaqadagi ekologik NNTlar institusional salohiyatni yanada kuchaytirish, ma’lumotlarga kirish imkoniyatini kengaytirish, moliyalashtirish va qaror qabul qilish mexanizmlarida ishtirok etish bo’yicha qo’shimcha qo’llab-quvvatlashga muhtoj ekanini qayd etildi.

Shu munosabat bilan O’zbekiston GEF-9 yangi moliyalashtirish davri doirasida fuqarolik jamiyati rolini kuchaytirish tarafdori ekanini bildirib, quyidagi yo’nalishlarni taklif etdi: salohiyatni oshirish dasturlari, bevosita moliyalashtirish mexanizmlari, kichik grantlar, yoshlar va ayollar tashkilotlarini qo’llab-quvvatlash hamda tajriba almashish bo’yicha mintaqaviy platformalar yaratish.

Amaliy tashabbuslar sifatida quyidagilar ilgari surildi:

- ekologik tadqiqotlar va monitoringda NNTlar ishtirokini kengaytirish;
- jamoatchilik ekologik monitoringi platformalarini rivojlantirish;
- ekotizimlarni tiklash, o’rmonlashtirish, chiqindilarni boshqarish va suvni tejash sohalaridagi mahalliy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash;
- Markaziy Osiyo ekologik NNTlarining mintaqaviy tarmog’ini yaratish;
- fuqarolik jamiyati, xususiyl sektor va xalqaro tashkilotlar o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

O’zbekistonda fuqarolik jamiyati allaqachon iqlim o’zgarishiga qarshi kurash, bioxilma-xillikni saqlash, yer degradatsiyasiga qarshi choralar ko’rish va ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o’ynayotgani ta’kidlandi. Forum GEF-9 yangi moliyalashtirish davri uchun fuqarolik jamiyati taklif va tashabbuslarini ishlab chiqish, shuningdek, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar, davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalari o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim maydon bo’ldi.

MARKAZIY OSIYONING «YASHIL» INVESTISIYALARI VA IQLIM INNOVATSIYALARI MUHOKAMASI

«Yashil» investisiyalar va innovatsiyalar» mavzusidagi yalpi sessiya barqaror moliyalashtirish, ekologik texnologiyalar va «yashil» iqtisodiyot sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga bag'ishlandi. Tadbir ekologik investisiyalarni jalb etishning zamonaviy yondashuvlari, innovasion yechimlarni joriy etish hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tahdidlar va ekologik xavflar kuchayib borayotgan sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlarida barqaror rivojlanishni ilgari surish masalalarini muhokama qilish maydoniga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov so'zga chiqib, mintaqaning ekologik xavfsizligi va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

“

– O'zbekiston uchun «yashil» transformatsiya endi faqat xalqaro iqlim kun tartibining bir qismi emas, balki davlat taraqqiyot strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakat iqlim majburiyatlarini shakllantirish bosqichidan ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichiga izchil o'tmoqda. Biz investisiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar integratsiyasi iqlim bilan bog'liq tahdidlarni barqaror iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlarga aylantirishga ishonamiz, — dedi A. Abduhakimov.

Yalpi muhokamada Qozog'iston Respublikasi ekologiya va tabiiy resurslar vaziri Yerlan Nisanbayev, Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda, Serbiya Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish vaziri Sara Pavkov hamda «Vision Invest» kompaniyasi prezidenti va bosh ijrochi direktori Omar Al-Midani ishtirok etdi.

Sessiya davomida «yashil» investisiyalar va barqaror moliyalashtirishni rivojlantirish, biznes va sanoatda ESG tamoyillarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energetika va ekologik toza transportni rivojlantirish, iqlim innovatsiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, aylanma iqtisodiyot (circular economy), «clean-tech» yechimlarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejovchi texnologiyalar va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ishtirokchilar ekologik loyihalarni amalga oshirish, iqlimga bardoshlilikni kuchaytirish hamda innovasion yechimlarni Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng joriy etish uchun xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmlarini ham ko'rib chiqdi.

Muhokamalar davomida «yashil» texnologiyalarni rivojlantirish, ekologik mas'uliyatli biznesni qo'llab-quvvatlash

va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash barqaror rivojlanish hamda iqlim o'zgarishi oqibatlariga samarali javob qaytarishning asosiy shartlaridan biri ekani qayd etildi.

Bundan tashqari, degradatsiyaga uchragan landshaftlarni tiklash, cho'llanishga qarshi kurashish, suv va iqlimga bardoshlilikni oshirish, shuningdek, investisiyalarni jalb etish va qo'shma ekologik tashabbuslarni ilgari surish uchun B2B (biznesdan biznesga) va B2G (biznesdan davlatga) platformalarini rivojlantirish masalalari ham muhokama markazida bo'ldi.

Yuqori darajadagi yalpi sessiya xalqaro muloqotni mustahkamlash, mintaqaning investisiyaviy salohiyatini namoyish etish hamda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sohalaridagi innovasion yechimlarni ilgari surish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qildi.

KO'RGAZMA YAKUNI VA HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

Samarqand shahrida «Eco Expo Cyentral Asia 2026» ekologik ko'rgazmasi o'z ishini yakunladi. Ushbu tadbir O'zbekistonda ekologik barqarorlikni mustahkamlash, ilg'or va innovasion «yashil texnologiyalar»ni joriy etish, shuningdek, ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun «yashil» moliyalashtirish va investisiyalarni jalb etishga qaratilgan samarali xalqaro platformani yaratish yo'lidagi muhim tashabbus bo'ldi.

Tadbirda 10 mingga yaqin xorijiy va mahalliy ishtirokchilar qatnashdi. Ular orasida xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, diplomatik korpus a'zolari, shuningdek, yirik xalqaro va mahalliy kompaniyalar vakillari bor. Mazkur xalqaro ko'rgazmaning Samarqandda o'tkazilishi O'zbekiston uchun ekologik barqarorlik, «yashil» iqtisodiyot va iqlim kun tartibi yo'nalishlarida global hamkorlikni kengaytirish bo'yicha noyob imkoniyatlar yaratdi.

Ko'rgazma doirasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining eko-innovatorlari tomonidan ishlab chiqilgan startap loyihalar namoyish etildi. Shuningdek, xalqaro investorlar va moliyaviy institutlar bilan aloqalar o'rnatish hamda ushbu tashabbuslarni keyinchalik moliyalashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida tadbirni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha qator strategik vazifalar amalga oshirildi.

Ko'rgazmada ekologik mahsulotlar va xizmatlarga bag'ishlangan 116 ta pavillon tashkil etildi. Unda nufuzli xalqaro tashkilot va kompaniyalar, shuningdek, yirik mahalliy korxonalar o'z pavilonlari bilan ishtirok etdi. Bundan tashqari, eko-innovatorlarning yangi innovasion startap loyihalarini namoyish etish uchun qo'shimcha ravishda 37 ta stend faoliyat yuritdi.

Mamlakatning barcha hududlari iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan, o'z hududlarining salohiyatini aks ettiruvchi loyiha paketlarini taqdim etdi. Ushbu tashabbuslar donorlar va investorlar e'tiboriga havola qilindi.

Ko'rgazma davomida xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar bilan "yashil" energetika, iqlim o'zgarishiga moslashish, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa ekologik yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 300 ga yaqin bitim va kelishuvlar imzolandi. Xalqaro ko'rgazma doirasida 50 dan ortiq sayd-iventar, muloqot maydonchalari va tematik tadbirlar tashkil etildi.

Umuman olganda, mazkur tadbirni tashkil etishdagi kompleks va strategik yondashuv O'zbekiston uchun iqlim va ekologiya sohalariga yirik investisiyalarni jalb etish, ilg'or xalqaro tajribani joriy etish hamda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini yaratmoqda.

CAWLN MINTAQAVIY DASTURIGA START BERILDI

Global ekologik fond (GEF) VIII Assambleyasi doirasida "Markaziy Osiyo va undan tashqarida yer va suv resurslari sohasida hamkorlikni shakllantirish" mavzusidagi davra suhbatlari suv va yer resurslarini barqaror boshqarish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga bag'ishlandi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vaziri Yerlan Nisanbayev, Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda, Shveysariyaning Federal atrof-muhitni muhofaza qilish idorasi direktori Katrin Shneyeberger, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktorining birinchi o'rinbosari Godfrey Maguyenzi Global ekologik fond (GEF) bosh direktori va strategiya hamda operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon ishtirok etdi.



Davra suhbatlari davomida ishtirokchilar tabiatga asoslangan yechimlarni joriy etish, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish, degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni tiklash hamda Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar.

Tadbirida Aziz Abduhakimov O'zbekiston tabiatga asoslangan yechimlarni uzoq muddatli suv xavfsizligi, iqlim barqarorligi va mintaqaning barqaror rivojlanishining asosi sifatida ko'rishini ta'kidladi. Qayd etilishicha, O'zbekiston suv resurslarining qariyb 80 foizi mamlakat tashqarisida shakllanadi, yerlarning degradatsiyasi, cho'llanish va daryolar oqimining o'zgarishi

esa oziq-ovqat xavfsizligi hamda aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Amudaryo bo'ylab joylashgan to'qay o'rmonlari va suv-botqoq ekotizimlarini tiklash, Orol dengizining qurigan tubini o'rmonlashtirish, degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklash hamda suvni tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

“

Aziz Abduhakimov suv, yer, ekotizimlar va iqlim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda Amudaryo va Sirdaryo havzalarini kompleks boshqarishga o'tish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, mintaqaviy darajada qo'shma monitoringni kuchaytirish, ma'lumotlar almashinuvi va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish muhimligi qayd etildi.

Yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurash doirasida O'zbekistonning sho'r va qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan foydalangan holda galofit bog'larini yaratish tashabbusi taqdim etildi. Ushbu loyiha, avvalo, Orolbo'yi hududida ekotizimlarni tiklash va iqlimga chidamlilikni oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, yaqinda tasdiqlangan va Global ekologik fond tomonidan moliyalashtirilayotgan "Markaziy Osiyoda suv va yerning o'zaro bog'liqligi" (CAWLN) dasturini amalga oshirish masalalariga ham alohida e'tibor berildi. Dastur ekotizimlarni tiklash, suv xavfsizligini mustahkamlash va tabiiy resurslarni integratsiyalashgan hamda ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida barqaror boshqarishni rivojlantirishga qaratilgan.

XALQARO ANJUMAN YAKUNLARI SARHISOBI

Joriy yilning 30-mayidan 6-iyunigacha Samarqand zamonamizning eng muhim ekologik muammolarini muhokama qilish uchun global maydonga aylandi. Bu yerda Global ekologik fond (GEF)ning VIII Assambleyasi va GEF Kengashining 71-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Assambleya tarixda ilk bor Markaziy Osiyoda tashkil etilib, 186 mamlakat vakillari, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, ilmiy doiralar, biznes, fuqarolik jamiyati, yoshlar va mahalliy xalqlar vakillarini birlashtirdi.

Forumning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakat va butun Markaziy Osiyo mintaqasining global ekologik hamda iqlim kun tartibini ilgari surishdagi roli tobora ortib borayotganining e'tirofi bo'ldi. Assambleya kun tartibida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forumning ochilish marosimida ilgari surgan tashabbuslari alohida o'rin egalladi. Xususan, davlatimiz rahbari Samarqandga "Markaziy Osiyoning yashil investisiyalar va innovatsiyalar poytaxti" maqomini berish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu platforma yashil moliyalashtirishni jalb etish, ekologik texnologiyalarni targ'ib qilish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va barqaror rivojlanish sohasidagi ilg'or yechimlarni joriy etishga xizmat qiladi. Tashabbus Samarqandning mintaqadagi ekologik diplomatiya va yashil transformatsiyaning muhim markazlaridan biri sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Yana bir muhim bayonot O'zbekistonning Global ekologik fond donor mamlakatiga aylanishi haqidagi qaror bo'ldi. Xalqaro hamjamiyat bu qadamni mamlakatning nafaqat xalqaro qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanishga, balki global ekologik muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga tayyor ekanining dalili sifatida qabul qildi.

Tadbir yakunlarini sarhisob qilar ekan, GEF VIII Assambleyasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov Assambleya global ekologik kun tartibini ilgari surish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va davlatlar hamda tashkilotlar o'rtasida ishonchni kuchaytirishga xizmat qilganini ta'kidladi.

“

– Qadimiy Samarqandda o'tgan kunlar davomida biz global ekologik kun tartibini ilgari surishga, hamkorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldik. Assambleya doirasida to'qqizta yuqori darajadagi davra suhbat, ellikdan ortiq qo'shimcha tadbirlar, o'nlab ikki tomonlama uchrashuvlar va ekspert muhokamalari o'tkazildi. GEF Kengashi GEF-9 dasturiy yo'nalishlari, yangilangan STAR tizimi, GEF ish dasturi va yangi moliyaviy sikldagi integratsiyalashgan dasturlarni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha muhim qarorlarni qabul qildi, — dedi A.Abduhakimov.

GEF-8 mablag'larining deyarli to'liq o'zlashtirilgani va yangi dasturiy qarorlarning tasdiqlanishi “Tabiat – Iqlim – Ifloslanish” integratsiyalashgan yondashuviga asoslangan GEF-9 dasturini ishga tushirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuningdek, mahalliy hamjamiyatlar va tub aholi vakillarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning ishtirokini kengaytirish zarurligi alohida qayd etildi. Shu maqsadda GEF-9 mablag'larining kamida 20 foizini tub xalqlar va mahalliy hamjamiyatlarga yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Assambleya doirasida umumiy qiymati 80 million dollardan ortiq bo'lgan milliy va mintaqaviy ekologik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlari yirik yirtqich mushuksimon hayvonlar va ularning ekotizimlarini muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy dastur ishlab chiqish hamda uni GEF-9 doirasida ilgari surish haqida kelishib oldilar.

Forumning muhim natijalaridan biri sifatida Markaziy Osiyoda suv va yer resurslarini barqaror boshqarishga qaratilgan “Cyentral Asia Water and Land Nexus” (CAWLN) mintaqaviy dasturiga rasman start berildi. Dastur g'oyasi ilk bor GEFning Vankuverdagi avvalgi Assambleyasida ilgari surilgan edi. Samarqandda esa u samarali xalqaro hamkorlik va izchil davomiylikning amaliy namunasi sifatida hayotga tatbiq etildi.

Forum yakunlarini sarhisob qilar ekan, GEFning bosh direktori hamda strategiya va operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon Assambleyaning eng katta yutug'i xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va global ekologik muammolarga birgalikda yechim topish bo'lganini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, aynan davlatlar, xalqaro tashkilotlar, biznes va fuqarolik jamiyati sa'y-harakatlarini birlashtirish keng ko'lamli o'zgarishlar hamda barqaror kelajak uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Assambleya muhokamalarining markazida ekologik moliyalashtirishni safarbar etish, xususi sektor ishtirokini kengaytirish, innovation moliyaviy vositalarni joriy etish va tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan investisiyalar samaradorligini oshirish masalalari turdi.

Shuningdek, yaqin yillarda global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradigan yangi moliyaviy davr — GEF-9 dasturiga tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ishtirokchilar ekologik maqsadlarga erishish tizimli islohotlar va davlatlar, xalqaro tashkilotlar, biznes hamda jamiyat o'rtasidagi yaqin hamkorliksiz mumkin emasligini ta'kidladilar.

GEFning Ilmiy-texnik maslahat guruhi raisi Rozina Birbaum jahon iqtisodiyotining yarmidan ko'pi bevosita tabiiy kapitalga bog'liqligini, biroq tabiiy ekotizimlarga yo'naltirilayotgan investisiyalar hanuz yetarli emasligini qayd etdi. Xalqaro moliya institutlari va xususi sektor vakillari global kapitalni ekologik loyihalarga faolroq jalb etishga hamda atrof-muhit degradatsiyasini iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqishga chaqirdilar.

Assambleya doirasida fuqarolik jamiyati, yoshlar, ayollar, tub xalqlar va mahalliy hamjamiyatlarning roliga ham katta e'tibor qaratildi. Ishtirokchilar ekologik siyosatni samarali amalga oshirish keng jamoatchilik ishtirokisiz mumkin emasligini bir necha bor ta'kidladi. Shu munosabat bilan “Butun jamiyat yondashuvi” (Whole-of-Society Approach) tamoyili GEF-9 dasturining asosiy elementlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Assambleya bilan bir vaqtda Samarqandda “Eco Expo Cyentral Asia 2026” xalqaro ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi. Tadbir dunyoning 150 dan ortiq mamlakatidan qariyb 10 ming ishtirokchini birlashtirdi. Ko'rgazmada 120 dan ortiq pavilyon, ekologik startaplar, innovation texnologiyalar hamda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot sohasidagi investisiyaviy loyihalar namoyish etildi.

Ko'rgazma yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati qariyb 520 million dollar bo'lgan 300 ga yaqin yashil loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Shu munosabat bilan Aziz Abduhakimov xalqaro hamkorlarni 2027-yilda Toshkent xalqaro investisiya forumi doirasida o'tkaziladigan va barqaror rivojlanish hamda yashil investisiyalarga bag'ishlanadigan “Eco Expo Cyentral Asia 2027” ko'rgazmasida ishtirok etishga taklif qildi.

Xalqaro media-monitoringning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, GEFning VIII Assambleyasi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatidagi ommaviy axborot vositalarida 15 tilda qariyb 500 marta tilga olingan. Bu esa forumga bo'lgan yuqori xalqaro qiziqish va O'zbekistonning ekologik diplomatiyadagi roli tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Samarqandda bo'lib o'tgan GEFning VIII Assambleyasi nafaqat yilning eng yirik xalqaro ekologik maydoniga aylandi, balki 2030-yilgacha bo'lgan global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi hal qiluvchi davrga tayyorgarlikning muhim bosqichi ham bo'ldi. Qabul qilingan qarorlar, ishga tushirilgan dasturlar va shakllantirilgan hamkorliklar yaqin yillarda xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi hamda yanada barqaror va ekologik xavfsiz kelajakka o'tishga xizmat qiladi.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI MARKAZIY OSIYODA IQLIM VA EKOLOGIYA MUAMMOLARINI HAL QILISH BO'YICHA YANGI TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-aprel kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammitning ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog'iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, Armaniston Prezidenti Vaagn Xachaturyan, Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevni sammitning muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan samimiy tabriklab, uning ekologik xavf-xatarlarning o'zaro bog'liqligi va ularni birgalikda hal qilish zarurligini o'zida mujassam etgan "Barqaror kelajak uchun umumiy nioh" degan bosh g'oyasini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Prezidentimiz mazkur uchrashuv o'tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomi ekanini ta'kidlab, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasi tizimli va izchil tus olib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan mamnunligini ta'kidladi.

O'zbekiston yetakchisi qayd etganidek, bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o'zgarishlaridan ayri holda ko'rib chiqib bo'lmaydi.

“

– Global isish sur'atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko'tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi yo'qoldi, yog'ingarchilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda. Yer maydonlarining 80 million gektari allaqachon degradatsiyaga uchradi, – dedi davlatimiz rahbari.

Global ekologik birdamlik zaiflashayotganidan chuqur xavotir bildirildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyalashtirish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan o'z vaqtida va adolatli foydalanish imkoniyati bilan ta'minlanishi muhimligi ta'kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini mintaqaviy hamkorlikning eng muhim ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'lgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Buni “yashil” kun tartibini ilgari surish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha bir qator muhim, strategik ahamiyatga ega mintaqaviy dasturlarning qabul qilingani ham tasdiqlamoqda.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan tizimli chora-tadbirlarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

“

– “Yashil makon” loyihasi doirasida qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekildi. Orol dengizining qurigan tubida 2 million hektardan ortiq maydonda o‘rmonzorlar barpo etilib, yangi “yashil belbog”lar yaratilmoqda. Bizning tashabbusimiz bilan BMT Bosh Assambleyasining “O‘rmonlashtirish va o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha harakatlar o‘n yilligi” rezolyutsiyasi qabul qilindi, – dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Bundan tashqari, suvni tejash borasidagi keng ko‘lamli sa‘y-harakatlar natijasida yiliga 10 milliard kub metr suv iqtisod qilinmoqda. Mamlakatimizning generatsiya quvvatlarida “yashil” energetika ulushi allaqachon 30 foizga yetdi, 2030-yilning oxiriga borib esa 50 foizdan oshadi.

Parij bitimi bo‘yicha zararli chiqindilarni 35 foizga kamaytirish majburiyati muddatidan oldin bajarilib, 2035-yilgacha ularni ikki barobar qisqartirish bo‘yicha yangi marra belgilandi.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar faol amalga oshirilmoqda. Joriy yilda chiqindilarni yoqish bo‘yicha ikkita yangi zavod ishga tushiriladi, yana 9 tasi esa kelgusi ikki yil davomida faoliyatini boshlaydi. Ularning ishga tushirilishi har yili 5,5 million tonna chiqindini utilizatsiya qilish, 2,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, chiqindilar hajmini 1 million tonnadan ortiqqa qisqartirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Markaziy Osiyodagi iqlim va ekologiya muammolarini hal qilish bo‘yicha bir qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi.

Atmosfera havosining sifati yomonlashayotgan sharoitda “Markaziy Osiyoning toza havosi” davlatlararo konsorsiumini ta‘sis etish taklifi bildirildi. Konsorsium sanoatni modernizatsiya qilib, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar uchun tozalash tizimlarini joriy etadigan “yashil” moliyalashtirishning qo‘shma operatoriga aylanishi mumkin.

Prezidentimiz Toshkentdagi Yashil universitet huzurida faoliyat yuritayotgan Cho‘llanishga qarshi kurashish, qurg‘oqchilikning oldini olish hamda qum va chang bo‘ronlari haqida barvaqt ogohlantirish markaziga mintaqaviy maqom berish muhimligini ta‘kidladi. Markaz bazasida ilmiy salohiyatni birlashtirish yerlarning degradatsiyasi hamda tuz va changli



bo‘ronlarni monitoring qilish bo‘yicha kuchli tizimni yaratish imkonini berishi ta‘kidlandi.

Texnologik o‘tish jarayonlarini tezlashtirish uchun imtiyozli bojxona tartiblari va ekomahsulotlar uchun sertifikatlarni o‘zaro tan olishni nazarda tutuvchi “Markaziy Osiyo yashil savdo yo‘lagi”ni shakllantirish tashabbusi ilgari surildi.

Markaziy Osiyo iqlim loyihalarining yagona investitsiya portfelini yaratish dolzarb masala ekanligi qayd etildi. Bu mintaqani rivojlantirish bo‘yicha yaxlit strategiya bilan harakat qilish imkonini yaratib, sheriklarda uni amalga oshirishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o‘zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratilishi mintaqadagi cho‘llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanishi mumkin.



Biologik xilma-xillikni saqlash uchun “Markaziy Osiyo Qizil kitobi”ni ishlab chiqish, bu jarayonda Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Toshkentdagi mintaqaviy ofisini muvofiqlashtiruvchi sifatida belgilash taklif qilindi.

Yoshlar orasida iqlim kun tartibi va ekologik madaniyatni ilgari surish uchun 2027-yilda O‘zbekistonda Butunjahon yoshlar iqlim forumini o‘tkazishga tayyorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida tadbir ishtirokchilarini shu yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Global ekologik fondning sakkizinchi assambleyasi va Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumida ishtirok etishga taklif etdi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASIGA RAISLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARINI BELGILAB BERDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-aprel kuni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OOXJ) ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Qozog'iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbirda Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va OOXJning Ijroiya qo'mitasi raisi Asxat Orazbay ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Qozog'istonning 2023 - 2026-yillarda OOXJga raisligining natijalari sarhisob qilinib, Orol dengizi havzasida ekologiya, suv resurslarini boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi noyob mintaqaviy tuzilma sifatida faoliyat yuritib kelayotganini, Markaziy Osiyoda suv taqchilligining kuchayishiga sabab bo'layotgan iqlim o'zgarishlari va suv iste'moli ko'payib borayotgan sharoitda uning roli va ahamiyati yanada ortayotganini ta'kidladi.

“

– EKSPERTLARNING BAHOLARIGA KO'RA, 2040-YILGA BORIB, OROL DENGIZI HAVZASIDA SUV RESURLARI TAQCHILLIGI DEYARLI IKKI BAROBAR – YILIGA 20 MILLIARD KUB METRGACHA OSHISHI MUMKIN. BU ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI, EKOLOGIYA, AGRAR SEKTOR, ENERGETIKA VA IJTIMOY BARQARORLIK UCHUN QO'SHIMCHA XAVF-XATARLARNI YUZAGA KELTIRADI, – DEDI SHAVKAT MIRZIYOYEV.

Shunday bir paytda mintqa mamlakatlari suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha eng quyi o'rinlarni egallab turibdi. Qishloq xo'jaligida bir dollar miqdoridagi qo'shilgan qiymatni yaratish uchun mamlakatlarimiz deyarli uch kub metr suv sarf etmoqda, dunyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha ikki barobar kam.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga batafsil to'xtalib o'tdi. Qisqa muddatda O'zbekistondagi



barcha sug'oriladigan yerlarning 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi, irrigatsiya tarmoqlarini betonlash 40 foizga yetkazildi. Nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga suv xo'jaligida energiya iste'moli qariyb 30 foizga qisqartirildi.

Olti yuz mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilar va 4 million gektardan ziyod sug'oriladigan yerlarni qamrab oladigan yagona raqamli ma'lumotlar bazasi shakllantirilmogda.

Mazkur loyihalar amalga oshirilishi tufayli har yili 10 milliard kub metrdan ortiq suv resurslarini tejash ta'minlanmogda. 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 15 milliard kub metrni tashkil etadi.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi kompleks va izchil xarakterga ega bo'lib, o'tgan yili qabul qilingan Suv kodeksida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimiz yetakchisi O'zbekiston jamg'armani mintaqaviy integratsiyaning muhim drayverlaridan biriga aylantirishga erishishni maqsad qilganini bildirdi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning kelgusi yildan boshlanadigan OQXJga raisligi davridagi ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib o'tdi.

Avvalo, jamg'armaning faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, uning tuzilmasi va shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Jamg'arma organlarining vakolatlarini kengaytirish, ularning maqomi va mas'uliyatini oshirish bo'yicha takliflar qo'llab-quvvatlandi.

Qirg'izistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatidagi to'laqonli ishtiroki qayta tiklanishiga umid bildirildi. Bu jamg'armaning yanada mutanosib va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston yetakchisi OQXJ kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg'unlashtirishga chaqirdi. Maslahat uchrashuvlari davomida oliy darajada kelishilgan barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari jamg'armaning tarmoq mexanizmlari orqali ham amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligi ta'kidlandi.

Jamg'arma dastur va loyihalari samaradorligini oshirish muhimligi qayd etildi. Shu munosabat bilan Orol dengizi havzasi bo'yicha to'rtinchi dastur ijrosi monitoringiga samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini kiritish taklif qilindi. Bu ijobiy o'zgarishlarni kuzatish, muammoli jihatlarni aniqlash hamda xalqaro hamkorlardan qo'shimcha mablag'lar va texnik ko'mak jalb etishga yordam beradi.

Ustuvor dasturlar uchun mavjud ta'sirchan moliyalashtirish vositalaridan foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Xususan, BMtning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheeriklik trast fondining mandati va geografik qamrovini butun Orol dengizi havzasiga kengaytirish imkoniyatini ko'rib chiqish taklifi bildirildi.

“

– BU BARCHA DAVLATLARIMIZ HUDUDI-DA HAYOTIY MUHIM EKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN MAQSADLI INVESTITSİYALARNI YO'NALTIRISH IMKONINI BERADI, – DEDI SHAVKAT MIRZIYOYEV.

OQXJ va boshqa mintaqaviy tuzilmalar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasining dolzarbligiga urg'u berildi. Jamg'arma suv-energetika masalalari, muzliklar va tog' ekotizimlarini saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha samarali mintaqaviy platformalar bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Bunga misol sifatida jamg'armaga Toshkentdagi Yashil universitet qoshidagi Cho'llanishga qarshi kurashish markazi bilan hamkorlikda maqsadli loyihalarni amalga oshirish taklif etildi.

O'zbekiston Prezidenti xalqlarimizning suvga hayot manbai sifatida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish borasidagi ko'p asrlik an'analarini qayta tiklash zaruratiga alohida e'tibor qaratdi.

“

– KO'RINIB TURIBDIKI, AGAR JAMIYATNING SUVGABO'LGAN MUNOSABATI O'ZGARMASA, HECH QANDAY MUHANDISLIK YECHIMLARI KUTILGAN SAMARANI BERMAYDI. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI ORQALI – MAKTABGACHA TA'LIM DARAJASIDAN TO MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHGACHA – SUVDAN OQILONA FOYDALANISHNI HAR BIR KISHINING KUNDALIK ODATIGA, UMUMIY MADANIY KODIMIZGA AYLANITIRISHGA INTILISHIMIZ LOZIM, – DEDI DAVLATIMIZ RAHBARI.

Shuningdek, asosiy qismi fermerlar va sanoatchilarni suvni tejovchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga amaliy jihatdan o'rgatadigan “Kelajak suvi” mintaqaviy dasturini ishga tushirish taklif etildi.

O'zbekiston yetakchisi Afg'oniston bilan konstruktiv hamkorlikni mustahkamlash va uni iqlim, ekologiya, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikka jalb etish muhimligini ta'kidladi. Bugungi kunda Afg'onistonda qirg'oqlarni mustahkamlash va melioratsiya ishlarini olib borish uchun xalqaro donorlarning moliyaviy mablag'larini jalb etish dolzarbdur.

Istiqbolda Orol havzasidagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, Afg'onistonning huquq va majburiyatlarini hisobga olgan holda suv resurslarini taqsimlash bo'yicha mintaqaviy shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirish zarur.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida 2026 - 2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi” deb e'lon qilish va mintaqa mamlakatlarida Suv haftaliklarini muntazam o'tkazib borishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilishining qo'llab-quvvatlanishiga umid bildirildi.

O'zbekiston Prezidenti qo'shni mamlakatlar yetakchilarini shu yilning sentabr oyida Samarqandda bo'lib o'tadigan Suvni tejash bo'yicha butunjahon forumida ishtirok etishga yana bir bor taklif etdi.

OQXJ yig'ilishida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari ham so'zga chiqdilar.

Tadbir yakunida yetakchilar Ostona bayonotini, Qozog'iston raisligining borishi to'g'risida, 26-martni Xalqaro Orol dengizi, Amudaryo hamda Sirdaryo kuni deb e'lon qilish to'g'risida hamda O'zbekiston yetakchisini 2027 - 2029-yillarda jamg'arma prezidenti etib saylash to'g'risidagi qarorlarni imzoladilar.



EKOLOGLAR VA FAOLLARNING ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDAGI HISSASI E'TIROF ETILDI

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasida 5-iyun — Butunjahon atrof-muhit kuniga bag'ishlangan "Tabiat himoyachisi" ko'krak nishonini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Tadbirda
bag'ishlangan
videorolikni
tomosha
qilish uchun
skanerlang

A.Abduhakimov Butunjahon atrof-muhit kuni nafaqat bayram, balki har bir insonning kelajak avlodlar oldidagi katta mas'uliyati ekanini qayd etdi.



— Tabiatni himoya qilish faqat davlat organlari yoki alohida mutaxassislarining vazifasi emas. Bu har bir fuqaro uchun hayot tarziga aylanishi kerak bo'lgan umuminsoniy qadriyatdir. Bugun atrof-muhitni qanchalik asrasak, kelajak avlodlarga shunchalik sog'lom va farovon hayot qoldiramiz. Shu bois barchani ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishga, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga hamda mamlakatimizning "yashil" rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga munosib hissa qo'shishga chaqiramiz, — dedi qo'mita raisi.



Mukofotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirdi. Ko'krak nishoni bilan qo'mitaning mas'ul xodimlari, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar vakillari, hamkor tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda ekoaktivistlar taqdirlandi.

Marosimni ochib bergan A.Abduhakimov keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ta'kidladi. Qo'mita raisi o'z nutqida bugungi kunda O'zbekiston ekologik kun tartibidagi dolzarb masalalarni hal etishda xalqaro hamkorlikka alohida ahamiyat qaratayotganini qayd etdi.

Shuningdek, O'zbekistonda mintaqaviy va xalqaro ekologik hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi. Xususan, 31-maydan 6-iyungacha Samarqandda Global ekologik fondning VIII Assambleyasi hamda "Eco Expo Cyentral Asia 2026" xalqaro ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ushbu tadbirlar O'zbekistonning ekologik texnologiyalar, investisiyalar va ilg'or xalqaro tajriba almashinuvi uchun muhim maydon sifatidagi roli ortib borayotganini namoyon etdi.

Tadbir davomida "Tabiat himoyachisi" ko'krak nishoni bilan Ekologiya qo'mitasi, uning tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarining 62 nafar faol xodimi, shuningdek, hamkor tuzilmalar, ilmiy hamjamiyat, madaniyat, yoshlar va jamoat tashkilotlari vakillari taqdirlandi. Mukofotlanganlar orasida vazirlik va idoralar, Zamin xalqaro jamoat fondi, Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti (IWMI), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti, O'zbekiston Yoshlar teatri, "Yosh ekologlar" harakati kengashi vakillari, shuningdek, ekofaollar va OAV vakillari bor.

Umuman olganda, joriy yilda respublika bo'ylab atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini ilgari surishga katta hissa qo'shgan 169 nafar fuqaro "Tabiat himoyachisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

5-7-iyun kunlari Istanbul shahrida "Antaliyaga yo'l: iqlim harakati sifatida nol chiqindi" (The Road to Antalya: Zero Waste as Climate Action) mavzusidagi xalqaro «Zero Waste Forum 2026» doirasida "Sanoatning ekologik modernizatsiyasi: "Nol chiqindi" konsepsiyasi va sirkulyar iqtisodiyot istiqbollari" mavzusidagi yuqori darajadagi vazirlar sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi delegatsiyasi ishtirok etdi.



O'zbekiston tomoni iqlim kun tartibi va COP31 tayyorgarligi doirasida bir qator tashabbuslarni ham ilgari surdi. Jumladan, chiqindilarni oddiy utilitatsiya qilish amaliyotidan resurslardan samarali foydalanish tizimiga o'tish, ekologik boshqaruvda raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanishni rivojlantirish taklif etildi. Materiallarning hayotiy siklini monitoring qilish va chiqindilarni qayta ishlash hajmlarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beruvchi yagona mintaqaviy raqamli platformani yaratish muhimligi qayd etildi.

Nutq davomida xalqaro ekologik hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Samarqandda bo'lib o'tgan GEF VIII Assambleyasi hamda «Eco Expo Central Asia 2026» xalqaro ko'rgazmasi O'zbekistonning ko'p tomonlama ekologik diplomatiya va "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga sodiqligini tasdiqlashi ta'kidlandi.

Forum doirasida O'zbekiston delegatsiyasi xalqaro hamkorlar bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi. Jumladan, UN-Habitat, UNCTAD, BMT texnologiyalar banki, shuningdek, Germaniya va Turkiya vakillari bilan muzokaralar olib borildi. Uchrashuvlarda barqaror urbanizatsiya, chiqindilarni boshqarish, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish, ekologik ta'lim va COP31 uchun qo'shma tashabbuslarni tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

«ZERO WASTE FORUM 2026» DOIRASIDA HAMKORLIK MUSTAHKAMLANMOQDA

«Zero Waste» xalqaro forumi 100 dan ortiq davlat vakillarini, jumladan, 30 ga yaqin xorijiy mamlakatlar vazirliklari rahbarlarini, shuningdek, BMT tuzilmalari, BMT Aholi punktlari bo'yicha dasturi (UN-Habitat), BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD), ilmiy muassasalar va xususiy sektor vakillarini birlashtirdi.

Vazirlar sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi vakillari "Nol chiqindi" tamoyili bugungi kunda shunchaki ekologik tashabbus emas, balki barqaror rivojlanish va texnologik suverenitetning yangi modeli sifatida shakllanayotganini ta'kidladi. Chiqindilar atrof-muhit ifloslanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi va global ekologik vaziyatning yomonlashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etildi.

Shuningdek, O'zbekistonda chiqindilar bilan ishlash sohasi amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligi ta'kidlandi. Mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari izchil joriy etilmoqda, chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda hamda chiqindilardan energiya ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilda ikkita chiqindini yoqish zavodini ishga tushirish, keyingi yillarda esa yana to'qqizta shunday obyektni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Bu yilga 5,5 million tonnagacha chiqindini qayta ishlash va issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

UN-Habitat ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekiston tomoni mamlakatda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlar va Orolbo'yi inqirozi oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni taqdim etdi. Mintaqaning barqaror rivojlanishi, Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etish va «Green University» loyihasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, O'zbekistonda UN-Habitatning mintaqaviy vakolatxonasini ochish istiqbollari muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida 2027-yilda Samarqandda xalqaro «World Cleanup Day» aksiyasini o'tkazish bo'yicha amaliy ishlarni boshlashga kelishib olindi.

UNCTAD bosh kotibi Rebeka Grinspan bilan uchrashuvda esa O'zbekistonning ekologiya va chiqindilarni boshqarish sohasidagi xalqaro tashabbuslari yuqori baholandi. Tomonlar UNCTAD shafeligida O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish bo'yicha xalqaro forum tashkil etish masalasida hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Germaniya, BMTning Texnologiyalar banki hamda Turkiya tomoni vakillari bilan o'tkazilgan muzokaralarda uglerod izini kamaytirish, transport sohasini ekologiyalashtirish, "yashil" texnologiyalar transferi, shuningdek, ayollar va yoshlarni ekologik kun tartibiga keng jalb etish bo'yicha qo'shma tashabbuslar muhokama qilindi.

Uchrashuvlar yakunida amaliy hamkorlikni kengaytirish hamda qo'shma ekologik loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O'ZBEKISTON BONNDA IQLIM MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISHDAGI YUTUQLARINI FMCP3 SESSIIYASIDA TAQDIM ETDI

13-iyun kuni Milliy iqlim markazi direktori Farrux Sattarov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi Germaniyaning Bonn shahrida bo'lib o'tgan Taraqqiyotni ko'p tomonlama ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhning uchinchi sessiyasi (FMCP3) da ishtirok etdi.

Ma'lumot uchun, FMCP3 BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hadli Konvensiyasi doirasidagi Yordamchi organlarning 64-sessiyasi (SB 64) doirasida o'tkazildi. Ushbu sessiya Parij kelishuvining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, mamlakatlar o'rtasida milliy iqlim majburiyatlarini bajarish bo'yicha ochiq axborot almashinuvi orqali shaffoflikni oshirish va o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jarayon ilg'or tajribalarni ommalashtirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Yig'ilish davomida O'zbekiston delegatsiyasi milliy iqlim majburiyatlarini bajarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning iqlim xavflariga chidamliligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohot va tashabbuslar natijalarini taqdim etdi.



“

Sessiyada so'zga chiqqan Farrux Sattarov O'zbekiston shaffoflikni samarali iqlim siyosatining ajralmas qismi deb bilishini va Parij kelishuvining Kengaytirilgan shaffoflik tizimi doirasidagi majburiyatlariga sodiq qolayotganini ta'kidladi. U iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo mamlakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va muzliklarning erishi kabi muammolarni yanada kuchaytirayotganini qayd etdi.

”

Shuningdek, yangilangan Milliy miqyosda belgilangan hissa (NDC) dasturiga alohida e'tibor qaratildi. Unga ko'ra, O'zbekiston 2035-yilgacha 2010-yil darajasiga nisbatan YAIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari tashlamalarini 50 foizga kamaytirish majburiyatini olgan. Iqtisodiyotning uglerod sig'imini 35 foizga kamaytirish bo'yicha avvalgi maqsad muddatidan oldin bajarilgani, hozirda esa yanada yuqori natijalarga erishish uchun qo'shimcha choralar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Bundan tashqari, quyosh va shamol energetikasi sohasidagi yirik loyihalar tufayli mamlakatning o'rnatilgan elektr ishlab chiqarish quvvatlarida “yashil” energiya ulushi qariyb 30 foizga yetgani, 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 50 foizdan oshishi prognoz qilinayotgani qayd etildi.

Iqlim o'zgarishiga moslashish yo'nalishida O'zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirmoqda. Suvni tejoychi texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida har yili qariyb 10 milliard kub metr suv tejalamoqda.

Qolaversa, mamlakat milliy iqlim boshqaruvi tizimini izchil takomillashtirmoqda, issiqxona gazlari inventarizatsiyasi tizimini mustahkamlamoqda, ma'lumotlarni yig'ish mexanizmlarini rivojlantirmoqda hamda iqlim hisobotlarini tayyorlash salohiyatini oshirmoqda.

O'zbekiston bundan buyon ham global iqlim jarayonlarida faol ishtirok etish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, iqlim moliyalashtirishini jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali Parij kelishuvi maqsadlariga erishish hamda iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish yo'lida izchil faoliyat olib borishni rejalashtirmoqda.

27-MAY KUNI MARKAZIY OSIYO ATROF-MUHIT VA IQLIM O'ZGARISHINI O'RGANISH UNIVERSITETINING (GREEN UNIVERSITY) MASOFAVIY TA'LIMGA IXTISOSLASHGAN RAQAMLI BO'LINMASI BO'LGAN DIGITAL-FILIALI TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI.

TADBIRDA EKOLOGIYA VA IQLIM O'ZGARISHI MILLIY QO'MITASI HUZURIDAGI "GREEN UNIVERSITY" REKTORI BAXTIYOR PULATOV, IQLIM O'ZGARISHI MILLIY MARKAZI VAKILLARI, "NEODIGITAL COMPANY" TEXNIK DIREKTORI SHOHJAHON HAKIMOV, LOYIHA RAHBARI SAULA MUQADAMOVA, SHUNINGDEK, HR VA PR MASALALARI BO'YICHA MASLAHATCHI DANATA DAVRONOVA ISHTIROK ETDI.



Ekologik ta'lim sohasidagi ilk Digital-filial konsepsiyasi

Taqdimot davomida ekologiya, iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ingliz tilida ta'lim beruvchi, to'liq akkreditatsiyadan o'tgan onlayn universitet modeli namoyish etildi.

Shuningdek, loyiha nafaqat O'zbekistonga, balki Markaziy Osiyo davlatlariga, istiqbolda esa xalqaro auditoriyaga ham mo'ljallangani ta'kidlandi.



Taqdim etilgan konsepsiyaga ko'ra, Digital-filial quyidagilarni nazarda tutadi: "Green University" bazasida masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish; raqamli ta'lim platformasidan foydalanish; proktoring va talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish; davlat namunasidagi "Green University" diplomlarini beruvchi dasturlarni yo'lga qo'yish; O'zbekiston hududlari hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi talabalar uchun ekologik ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish.



Tadbirida raqamli platformani "UzCloud" server infratuzilmasida joylashtirish, ta'lim muhitini esa "Moodle LMS" tizimi asosida yuritish rejalashtirilayotganligi alohida ta'kidlandi.

Taqdimot davomida raqamli universitet arxitekturasini, loyihaning moliyaviy modeli, ishga tushirish va operatsion boshqaruv bosqichlari, shuningdek, talabalarni tyutorlik asosida qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi ham namoyish etildi. Bundan tashqari, loyiha universitet kutubxonalari, ilmiy jurnallari va ilmiy-tadqiqot platformalarini raqamlashtirishni ham nazarda tutadi.

Loyiha zamonaviy masofaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, ekologik ta'lim dasturlari ommabopligini oshirish hamda "Green University"ning ekologiya va iqlim tadqiqotlari yo'nalishidagi ixtisoslashgan ta'lim markazi sifatidagi xalqaro mavqeini mustahkamlashga qaratilgan.

Loyihani to'liq ishga tushirish uchun to'rt oy muddat belgilangan bo'lib, uni amalga oshirishning birinchi yilida 2 ming nafargacha talaba va tinglovchini jalb etish rejalashtirilgan.

XIToyNING CHO'LLANISHGA QARSHI KURASH SOHASIDAGI ILG'OR TAJRIBASI O'RGANILMOQDA

18-may kuni Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi "Green University"ga qarashli Markaziy Osiyo ekologiya va atrof-muhit tadqiqotlari markazida "HSK: Xitoyda ta'lim" mavzusidagi III O'zbekiston forumi ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasi vakili Sun Changdun, Xitoy Ta'lim vazirligi huzuridagi Xitoy va xorijiy tillar almashinuvi va hamkorlik markazi, "Chinese Testing International" bosh direktor o'rinbosari Lyu Syaolun, Xitoy oliy ta'lim muassasalari vakili, Lanchjou universiteti vakili Li Chunlin, "Green University" rektori, professor Baxtiyor Pulatov, XXR va mahalliy universitetlar professorlari, talabalar ishtirok etdi.



Tadbirda nutq so'zlagan Aziz Abduhakimov Xitoy bilan ta'lim, ilm-fan, innovatsiyalar va barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlik tobora mustahkamlanib borayotganligini ta'kidladi.

“

— Green University"ga Xitoyning 26 ta yetakchi universiteti vakillarining tashrif buyurishi ikki mamlakat o'rtasidagi akademik hamkorlik va o'zaro ishonch tobora mustahkamlanib borayotganining yorqin ifodasidir, — dedi qo'mita raisi. — Mazkur forum uzoq muddatli institutsional hamkorlikni mustahkamlash, akademik almashinuvni kengaytirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim barqarorligi, "yashil" texnologiyalar, cho'llanishga qarshi kurash va barqaror rivojlanish kabi muhim yo'nalishlarda qo'shma ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi.

”

Forum davomida ishtirokchilar Xitoy universitetlarining ta'lim dasturlari, bakalavriat, magistratura va doktorantura yo'nalishlari, grant va stipendiya imkoniyatlari, HSK imtihoni hamda hujjat topshirish tartibi bo'yicha bevosita ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, forum doirasida Xitoy universitetlari vakillari bilan uchrashuvlar, ta'lim dasturlari taqdimotlari hamda O'zbekiston va Xitoy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, forumning mantiqiy davomi sifatida "Markaziy Osiyoda cho'llanishga qarshi kurash texnologiyalari" mavzusida xalqaro o'quv seminari ham bo'lib o'tdi. Seminar Xitoy fanlar akademiyasi tarkibidagi Shinjon ekologiya va

geografiya instituti, "Shimoli-g'arbiy ekologiya, atrof-muhit va resurslar instituti" hamda XXR Ta'lim vazirligi huzuridagi Til bo'yicha ta'lim va hamkorlik markazi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Asosiy maqsad "Xitoy — Markaziy Osiyo umumiy kelajak hamjamiyati" tashabbusini amaliy mazmun bilan boyitish hamda davlat rahbarlari darajasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga hissa qo'shishdir.

Shuningdek, seminardan Xitoyning cho'llanishga qarshi kurash sohasidagi ilg'or tajribasini o'rganish maqsad qilindi. Unda cho'llanishning oldini olish, suvni tejavchi qishloq xo'jaligi, sho'rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish, ekologik tiklash va yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ilg'or texnologiyalar, mahsulotlar va amaliy yechimlar taqdim etildi. Qolaversa, ilmiy-texnikaviy va sanoat kooperatsiyasi bo'yicha mintaqaviy platformani shakllantirish hamda "Xitoy texnologiyalari + Markaziy Osiyo amaliyoti" modelini mahalliyashtirish rag'batlantirildi.

Seminarda 60 dan ortiq xitoylik olim va mutaxassislar "Green University" hamda uning tizim tashkilotlarning qariyb 60 nafar mutaxassislari bilan birgalikda ilmiy almashinuv, amaliy treninglar va dala hamkorligida ishtirok etdi. Kun tartibiga Jizzaxda joylashgan galofit bog'i hamda Toshkent viloyatiga tashriflar amalga oshirilish kiritildi. Natijada Cho'llanishga qarshi kurashish va cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti mintaqada cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha doimiy o'quv va malaka oshirish markazi sifatida rivojlantiriladi.

Seminar Xitoy — Markaziy Osiyo hamkorligi doirasida cho'llanishga qarshi kurashni mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish, ekologik barqaror taraqqiyotni ta'minlash va resurslarni tejashga asoslangan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga xizmat qiladi.



O'ZBEKISTON AQSHDA O'RMONLARNI TIKLASH BO'YICHA TASHABBUSLARINI TAQDIM ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov boshchiligidagi delegatsiya AQSHning Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT O'rmonlar bo'yicha forumining 21-sessiyasida qatnashdi. Forumda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining BMTdagi doimiy vakili Ulug'bek Lapasov ham ishtirok etdi.

Forum ishida BMTga a'zo davlatlar delegatsiyalari, vazirlar, sohaga oid agentliklar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, shuningdek, ekologik konvensiyalarning ijrochi direktorlari qatnashdi. Tadbir davomida global o'rmon siyosatining ustuvor yo'nalishlari, jumladan, BMTning O'rmonlar bo'yicha strategik rejasini amalga oshirish, "Global o'rmonlar hisoboti – 2026"ni tayyorlash, shu bilan birga, o'rmon sektorini iqlim va suv kun tartibiga integratsiya qilish masalalari muhokama qilindi.

Forumning ochilish marosimida so'zga chiqqan Aziz Abduhakimov cho'llanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda o'rmonlarning muhim o'rin tutishini ta'kidlab, Orol dengizi fojiasiga alohida to'xtaldi. Unga ko'ra, dengizning qurigan hududi Orolqum cho'liga aylangan.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida so'nggi besh yil davomida mamlakatda 1 milliarddan ortiq daraxt ekilgani, ko'kalamzorlashtirish darajasi esa 8 foizdan 14 foizga oshgani qayd etildi. Mazkur ko'rsatkichni 2030-yilga borib 30 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Forumda O'zbekiston va Kongo Respublikasi tomonidan ilgari surilgan 2027 – 2036-yillarni BMT shafeligida "O'rmon barpo etish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish tashabbusiga alohida e'tibor qaratildi.

Amaliy chora-tadbirlar sifatida o'rmon barpo etish bo'yicha Global yo'l xaritasini ishlab chiqish, cho'llanishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qurg'oqchilikka chidamli daraxt va o'simlik turlarini targ'ib qilish, shuningdek, chang va qum bo'ronlari haqida erta ogohlantirish tizimlarini yaratish taklif etildi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining 2035-yilgacha 1,5 million gektar maydonda transchegaraviy o'rmonlar barpo etishni nazarda tutuvchi "Yashil qalqon" mintaqaviy tashabbusi ham taqdim etildi.

Forum doirasida O'zbekiston tashabbusi bilan BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda maxsus sayd-ivent ham tashkil etildi. Tadbir o'rmonlarni tiklash, suv xavfsizligini ta'minlash va iqlim barqarorligini oshirish uchun tabiatga asoslangan yechimlarni ilgari surishga bag'ishlandi.



Sayd-ivent davomida xalqaro hamkorlarga O'zbekistonda ko'kalamzorlashtirish, o'rmon melioratsiyasi va degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalari taqdim etildi. Xususan, "Yashil makon" loyihasining keng ko'lamda amalga oshirilishi, Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etilishi, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon", "Biomeros", "Toza havo", "Chiqindidan xoli hudud" va "Ekologik madaniyat" milliy dasturlari degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, cho'llanishga qarshi kurashish, shaharlarda ko'kalamzorlashtirishni rivojlantirish, bioxilma-xillikni asrash hamda mamlakatning iqlim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



NUKUSDA EKOLOGIK FESTIVAL O'TKAZILDI

Nukus shahridagi markaziy bog'da 26-may kuni "Bizni birlashtirgan sayg'oq" yoshlar ekologik festivali bo'lib o'tdi. Tadbir "Sayg'oq kuni" dasturi turkumiga yakun yasadi hamda Xalqaro bioxilma-xillik kuniga bag'ishlandi.

Festival Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Qoraqalpog'istonning qo'riqlanadigan tabiiy hududlari xodimlari, "Sayg'oqni saqlash alyansi" xalqaro tashkiloti, "Ekomaktab" NNT volontyorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti ekspertlari ko'magida tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, joriy yilda ekologik tashabbus o'zining yubiley sanasini nishonlamoqda — bundan roppa-rosa 20 yil avval "Sayg'oq kuni" ilk bor Ustyurt maktablarida Zoologiya instituti olimlari tashabbuskor guruhi, "Ekomaktab" NNT hamda "Sayg'oqlarni muhofaza qilish ittifoqi" xalqaro tashkiloti ko'magida o'tkazilgandi. O'tgan ikki o'n yil davomida ushbu bayram nafaqat Qoraqalpog'istonda, balki sayg'oq yashaydigan boshqa hududlarda — Qozog'iston, Qalmog'iston va Mo'g'ulistonda ham mashhur bo'lib ketdi.

An'anaga ko'ra, "Sayg'oq kuni" doirasida maktablarda ochiq ekologik darslar, tabiatni muhofaza qilish aksiyalari, "Sayg'oq kubogi" uchun sport musobaqalari — marafonlar, velosiped poygalari, futbol, voleybol va basketbol bellashuvlari, shuningdek, qiziqarli ekologik kvestlar tashkil etiladi. Har bir aholi punktida yoshlarning tashabbuslari va qiziqishlarini inobatga olgan holda o'ziga xos tadbirlar dasturi shakllantiriladi.

Tadbirda Nukus, Mo'ynoq shaharlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumanidagi Jasliq, Qoraqalpog'iston va Qirg'iz qishloqlaridagi maktab o'quvchilari ishtirok etdi. Mazkur hududlarda faoliyat yuritayotgan "Sayg'oq do'stlari" bolalar va yoshlar ekologik klublari a'zolari ham festivalda qatnashdi. Ushbu klublarning o'qituvchi va murabbiylari ekologik yetakchilar sifatida bolalar hamda yoshlarni tabiatni muhofaza qilish aksiyalari, mahallalarni obodonlashtirish va mahalliy flora hamda faunani asrash ishlariga ruhlantirib kelmoqda. Amaliy tashabbuslar orqali yosh avlodda ekologik madaniyat va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat shakllanmoqda.

Mazkur tadbirlar sayg'oqlar yashash hududlariga yaqin joylashgan aholi punktlari aholisi, bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik targ'ibot hamda tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Sayg'oq O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Qizil ro'yxatiga kiritilgan yo'qolib borayotgan noyob tur hisoblanadi.

"ONA ZAMIN" SPEKTAKLI PREMYERASI

22-may kuni O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi bilan hamkorlikda "Ona zamin" spektakli premerasi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Ekologiya qo'mitasi rais maslahatchisi Alisher Salomov mamlakatimizda ekologik madaniyatni oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. «Ona zamin» spektakli ham yosh avlodning ekologik ongini yuksaltirish, eko-madaniyati va mas'uliyatini oshirishga hissa qo'shishini qayd etdi.

“ — *"Ona zamin" — bolalarga mo'ljallangan ekologiya mavzusidagi ilk spektakl. Uning bosh g'oyasi — inson va tabiat. Ya'ni odamzotning salbiy faoliyati oqibatida tabiat inqirozga yuz tutishini va, aksincha, har bir qilayotgan ishimizda borliqni asrashni o'ylasak, ertaga shu zaminda o'zimiz sog'lom yashashimiz, farzandlarimiz o'ynab-quvnap ulg'ayishi mumkinligini singdirishdir,* — dedi A. Salomov.

Yozuvchi Madina Mo'minova asari asosida tayyorlangan spektaklda insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabat ta'sirchan ifodalangan. Unda tomoshabinlar Ona zamin nomidan tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga chaqiriladi.

“ — *Hamma narsaning javobi bor. Biz bugun suvni isrof qilsak, daraxtlarni sindirsak, qushlarga ozor bersak, ertaga buning javobi og'ir bo'ladi. Yoshlarga bu tushunchani singdirish, tabiat ne'matlaridan tejamkorlik bilan foydalanishni singdirishni maqsad qilganmiz. Agar spektaklni ko'rgan bolajonlarda tabiatga mehr uyg'onsa, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasa, maqsadimizga erishgan bo'lamiz,* — dedi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Farida Umarova.

Spektakl raqs, monolog, qo'shiq va turli sahna epizodlari orqali yosh tomoshabinlarni tabiatni asrash, uning qadriga yetish va ekologik mas'uliyat haqida chuqur mushohada yuritishga chorlaydi. Sahna asarida zamonaviy, vizual yechimlardan keng foydalanilgan. Shuningdek, maxsus effektlar orqali tabiatning ifloslangan va qayta tiklangan holati aks ettirilgan.

Aktyorlar zamonaviy xoreografiya elementlari yordamida sanoat rivoji, chiqindixonalar, daraxtlar kesilishi, suvning ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosi nobud bo'lishining salbiy oqibatlarini sahna harakatlari orqali namoyon etganlar.



“ARTepa” galereyasida noodatiy ko‘rgazma

21-may kuni Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi “Green University”ning “ARTepa” galereyasida shveysariyalik rassom Peter Ershmanning “Qo‘g‘irchoqlar” (“Marionettes”) nomli ko‘rgazmasi ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Ekologiya qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov, Birlashgan Arab Amirliklarining O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Said Matar al-Qamziy, Shveysariya elchixonasining mintaqaviy maslahatchisi Denis Pisoni, xorijiy diplomatik korpus vakillari, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Global yashil o‘shish instituti, Jahon banki, xalqaro institutlar vakillari, yosh eko-faollar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ko‘rgazmani ochib bergan Aziz Abduhakimov rassom oddiy takrorlanuvchi harakatlar va sahnalar orqali zamonaviy hayot insonlarga, jamiyatga va atrof-muhitga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani haqida chuqurroq o‘ylab ko‘rishga undashini ta‘kidladi.

— “Qo‘g‘irchoqlar” timsoli insonlar ba‘zan bir xil qolipda, kundalik odatlar girdobida yashab, o‘z xatti-harakatlari va tanlovlari jamiyat hamda atrof-muhitga qanday ta‘sir qilayotganini sezmay qolishini ifodalaydi, — dedi qo‘mita raisi. — Shu bilan birga, ko‘rgazma mas‘uliyat va ongli yondashuv haqida muhim g‘oyani ham ilgari suradi. U insonning fikrlashi va xulq-atvoridagi hatto kichik o‘zgarishlar ham jamiyat, atrof-muhit va tabiat bilan uyg‘un munosabatlarda ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumot uchun, Peter Ershmann yigirma yildan ortiq vaqt davomida videoinstallatsiya yo‘nalishida ijod qilib kelmoqda. U raqamli «tableaux vivants» — o‘ziga xos “jonli suratlar”ni yaratadi. Ularda qahramonlar bir xil harakat va odatiy ishlarni qayta-qayta takrorlaydi. Bu doimiy harakatlar zamonaviy hayotning kundalik marosimlarini eslatib, insonga ta‘sir qiluvchi tizimlar — texnologiyalar, ijtimoiy me‘yorlar, iqtisodiy jarayonlar va ekologik o‘zgarishlarning metaforasiga aylanadi.

Ko‘rgazma sekinlashtirilgan ritm va yashirin ichki ziddiyatlarga ega bo‘lgan bir qator makonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Unda qahramonlar go‘yo erkinlik va bo‘ysunish oralig‘ida mavjuddek ko‘rinadi. Qo‘g‘irchoqlar obrazi ekspozitsiyaning asosiy metaforasiga aylanadi — u insonni uning kundalik hayotini bir vaqtning o‘zida shakllantiruvchi va chekllovchi tizimlar ichidagi timsol sifatida aks ettiradi.



Tadbirda
bag‘ishlangan
videorolikni
tomosha
qilish uchun
skanerlang



Ekologiya XABARNOMASI

№2 / 2026

EKSPOZITSIYA

Shveysariyalik rassomning ko‘rgazmasi O‘zbekistonda ilk bor tashkil etildi. Mazkur ko‘rgazma tomoshabinni atrof-muhitga zarar keltiradigan bir xil xatolarni takrorlamaslikka, tabiatni asrash borasida mas‘uliyatli bo‘lishga chaqiradi.

— Bugungi kunda yangi texnologiyalar, dunyoning qanday o‘zgarishi va tabiatga ta‘siri haqida ko‘plab savollar mavjud. Rassom sifatida shuni angladimki, asarlarimning o‘zi emas, balki insonlar uchrashib, suhbat quradigan muhit ko‘proq ahamiyatga ega. Biz “Green University” galereyasidamiz. Shu sababli mening istagim — tabiat, suv, o‘rmonlar, o‘simliklar va atrofimizdagi barcha narsalar haqida aynan shu yerda suhbatlashishdir. Chunki tasvirlarim haqiqiy dunyo bilan bog‘liq. Ular kompyuter tomonidan yaratilgan sun‘iy obrazlar emas, balki real hayotdan olingan tasvirlardir. Bugungi kunda dunyo o‘zgarib bormoqda va oldimizda juda muhim qarorlar turibdi. Menimcha, “ARTepa” aynan shu mavzularni namoyich etish uchun mukammal maskandir, — dedi rassom.

Peter Ershmann ko‘rgazma nega aynan “Qo‘g‘irchoqlar” deb nomlanganiga izoh berdi:

— So‘nggi 25 yil davomida yaratgan videolarimni qayta ko‘rib chiqqanimda, aynan shu mavzu vaqti-vaqti bilan takrorlanib kelganini angladim. 25 yildan beri har yili shu g‘oya yana qaytib keladi. Atrofdagi dunyoni kuzatar ekanman va kameradan foydalanganimda, insonlar va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ko‘raman. Go‘yo ular tashqaridan keladigan qandaydir kuchsiz hech narsa qila olmaydigandek tuyuladi. Qo‘g‘irchoqlar ham aynan mana shu yashirin kuchlarni ifodalaydi. Asosiy mavzu ham shu.

BAA elchisi Said Matar al-Qamziy ushbu ko‘rgazma O‘zbekiston yoshlari uchun san‘atning yangicha turi haqida o‘ylashga ilhom beradigan katta innovasion turtki ekanligini qayd etdi.

— Peter Ershmanning asarlari san‘atning yangicha ko‘rinishi bo‘lib, inson va tabiat uyg‘unligini juda ta‘sirchan hamda innovasion usulda namoyon etadi. Asarlarda elektron texnologiyalar va zamonaviy texnikaning inson hayotiga ta‘siri ham chuqur aks ettirilgan, — dedi u.

Astronomiya parkida joylashgan galereyadagi ko‘rgazma 31-iyulgacha davom etdi.

ILMIY MAQOLALAR

SEASONAL EVALUATION OF A CYCLONE-BASED PM_{2.5} SAMPLING SYSTEM UNDER DRY CONTINENTAL CONDITIONS: A CASE STUDY OF TASHKENT

Rakhmonaliyeva Dilnoza Rakhmonaliyevna, PhD student,
Alimov Zikrilla Bobomuratovich, Doctor of Technical Science, Senior Researcher,
Musirmonov Jamoliddin Jalgashevich, DSc Candidate,
 Research Institute of Environment and Nature Protection Technologies under the
 Central Asian University of Environmental and Climate Change Studies (Green University)

Abstract. This study evaluates the seasonal effects on the particle collection performance of a cyclone-based PM_{2.5} sampling system under arid and semi-arid climatic conditions, using Tashkent city as a representative case study. The system, developed at Keio University, consisted of a PM_{2.5} real impactor, cyclone separator, and downstream backup filter, and was operated from March 2025 to April 2026. Reference PM_{2.5} data were obtained from a Horiba air quality monitoring station located approximately 1.4 km from the sampling site. The results showed clear seasonal variability, with the lowest PM_{2.5} levels in summer and the highest concentrations in autumn. Differences between Horiba, cyclone, and backup filter measurements were mainly associated with differences in particle size distribution, airflow stability, and meteorological conditions. Overall, the cyclone-based system demonstrated stable operation and reliable aerosol collection for further gravimetric, chemical, and toxicological analyses.

Keywords: PM_{2.5}, semi-ambient conditions, cyclone sampling, cyclone-based sampling system, particle collection efficiency, seasonal variability, meteorological influence.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Toshkent shahri misolida qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil iqlim sharoitida siklon asosidagi PM_{2.5} namuna olish tizimining zarrachalarni yig'ish samaradorligiga mavsumiy o'zgaruvchanlikning ta'siri baholandi. Keio universitetida ishlab chiqilgan ushbu tizim PM_{2.5} real impaktori, siklon separatori va siklondan keyin o'rnatilgan backup filtdan iborat bo'lib, bu tizim yordamida 2025-yil mart oyidan 2026-yil aprel oyigacha bo'lgan davrda namunalar yig'ildi. Taqqoslash uchun PM_{2.5} bo'yicha ma'lumotlar namuna olish joyidan taxminan 1,4 km masofada joylashgan Horiba havo sifati monitoring stansiyasidan olindi. Natijalar PM_{2.5} konsentratsiyasida aniq mavsumiy o'zgaruvchanlik mavjudligini ko'rsatdi, jumladan, eng past PM_{2.5} darajalari yozda, eng yuqori konsentratsiyalar esa kuzda kuzatildi. Horiba, siklon va zaxira filtr o'lchovlari orasidagi farqlar asosan zarrachalar hajmining taqsimlanishi, havo oqimining barqarorligi va meteorologik sharoitlardagi farqlar bilan bog'liq edi. Umuman olganda, siklon asosidagi tizim keyingi gravimetrik, kimyoviy va toksikologik tahlillar uchun barqaror ishlash hamda ishonchli aerosol yig'ish imkoniyatini namoyon etdi.

Kalit so'zlar: PM_{2.5}, yarim ochiq muhit sharoiti, siklonli namuna olish, siklon asosidagi namuna olish tizimi, zarrachalarni yig'ish samaradorligi, mavsumiy o'zgaruvchanlik, meteorologik ta'sir.

Аннотация. В данном исследовании оценивалось влияние сезонной изменчивости на эффективность улавливания частиц системой отбора проб PM_{2.5} на основе циклона в условиях аридного и семиаридного климата, при этом город Ташкент был выбран в качестве репрезентативного примера. Система, разработанная в Университете Кейо, состояла из реального импактора PM_{2.5}, циклонного сепаратора и установленного после циклона резервного фильтра и эксплуатировалась с марта 2025 года по апрель 2026 года. Референтные данные по PM_{2.5} были получены со станции мониторинга качества воздуха Horiba, расположенной примерно в 1,4 км от места отбора проб. Результаты показали выраженную сезонную изменчивость: самые низкие уровни PM_{2.5} наблюдались летом, а самые высокие концентрации, осенью. Различия между измерениями с помощью фильтров Horiba, циклона и резервного фильтра были в основном связаны с различиями в распределении частиц по размерам, стабильности воздушного потока и метеорологических условиях. В целом, циклонная система продемонстрировала стабильную работу и надёжный сбор аэрозолей для последующих гравиметрических, химических и токсикологических анализов.

Ключевые слова: PM_{2.5}, полуоткрытые условия, циклонный отбор проб, система отбора проб на основе циклона, эффективность улавливания частиц, сезонная изменчивость, метеорологическое влияние.

1. Introduction

Fine particulate matter (PM_{2.5}), defined as airborne particles with an aerodynamic diameter smaller than 2.5 µm, is considered one of the major environmental and public health challenges in urban atmospheric studies. Due to their small size, PM_{2.5} particles

can remain suspended in the atmosphere for extended periods and penetrate deeply into the human respiratory system. Long-term exposure to elevated PM_{2.5} concentrations has been associated with respiratory diseases, cardiovascular disorders, impaired lung function, and increased mortality risk [1,2].

Rapid urbanization, industrial emissions, vehicular activity, construction processes, and natural dust transport significantly contribute to increasing $PM_{2.5}$ concentrations in many urban regions. In semi-arid and continental climates, particulate accumulation is additionally intensified by dust resuspension and unstable meteorological conditions. Seasonal atmospheric stagnation and limited dispersion may further enhance aerosol accumulation in densely populated areas [3,4].

Accurate $PM_{2.5}$ collection and characterization are essential for environmental monitoring and aerosol research. Conventional filtration-based sampling methods are widely used for particulate collection because of its high collection efficiency. However, filter-based sampling often requires mechanical or chemical extraction of particles deposited on the filter substrate, a process that can result in the loss of certain PM constituents and potentially modify the intrinsic toxicity of the collected particles. In addition, the chemical composition of filter-collected samples may be affected by sampling artifacts arising from gas adsorption, particle-gas interactions, chemical transformations, volatilization of semi-volatile compounds, and other ambient atmospheric processes [5,6].

To avoid the issues related to filter sampling, researchers have investigated cyclone devices to collect PM samples globally [7-10]. Cyclone separators provide an effective aerodynamic approach for particle size-selective separation prior to filtration. Tangential airflow inside the cyclone chamber generates rotational vortex motion and centrifugal forces that separate particles according to their aerodynamic diameter and inertia. Larger particles are moved toward the cyclone wall by centrifugal force and collected in the lower chamber, while smaller particles (i.e., particles with aerodynamic diameters smaller than cut-off diameter D_{p50} of cyclone) remain entrained in the inner vortex and pass to the downstream filter installed after the cyclone [7,8].

Recent studies on cyclone-assisted aerosol sampling systems have demonstrated improved particle classification efficiency, and enhanced stability of fine particulate collection during continuous operation. Advances in cyclone geometry optimization and airflow regulation have additionally improved aerodynamic separation performance and operational reliability of cyclone-based aerosol systems [9-11].

This study aimed to evaluate the influence of seasonal variability on the $PM_{2.5}$ collection performance of a cyclone under urban semi-ambient operating conditions. Experimental $PM_{2.5}$ sampling was conducted using a cyclone-based sampling system developed at Keio University, Japan. The efficiency of the cyclone-based sampling system was assessed by comparing the collected $PM_{2.5}$ mass concentrations with reference data obtained from a high-accuracy meteorological and air quality monitoring station. The main novelty of this study is the integration of cyclone-based $PM_{2.5}$ sampling with long-term aerosol monitoring under controlled semi-ambient laboratory conditions, enabling the evaluation of seasonal variations in cyclone collection performance.

2. Methodology

2.1 The cyclone separation theory and evaluation methods

The cyclone separator operates on the principle of aerodynamic particle classification generated by rotational airflow inside the

cyclone chamber (Fig.1). During operation, particle-laden air enters the cyclone tangentially through the inlet section, producing a strong swirling vortex structure. This flow field typically consists of an outer downward spiral vortex and an inner upward vortex directed toward the outlet [7,12].




Fig. 1. Particle motion and aerodynamic separation mechanism inside the cyclone separator.

Particles with larger aerodynamic diameters and higher inertia are transported toward the cyclone wall under the influence of centrifugal forces and are subsequently deposited in the lower collection chamber. In contrast, smaller particles with lower inertia are able to follow the upward vortex stream and penetrate through the cyclone outlet, where they are collected on a backup filter installed downstream of the cyclone [8,13].

The separation performance of a cyclone is strongly affected by airflow stability, vortex intensity, particle residence time, and cyclone geometry [14]. An optimized cylindrical-conical configuration improves aerodynamic stability and promotes the downward migration of coarse particles, while the tangential inlet geometry reduces direct particle short-circuiting toward the outlet section [15-17]. Previous Computational Fluid Dynamics (CFD) studies have also demonstrated that optimized cyclone geometries can enhance particle classification efficiency and reduce internal flow disturbances [8,18].

The experimental cyclone-assisted sampling configuration was assembled under controlled laboratory conditions to evaluate $PM_{2.5}$ sampling performance and airflow behavior [11]. A vacuum pump was used to maintain a continuous airflow through the system, while a flow regulation unit was applied to minimize operational fluctuations during long-duration sampling experiments [19-21].

The cyclone separator, consisting of a cylindrical upper body and a conical lower section, served as the main aerodynamic particle classification unit [9]. The tangential inlet was designed to generate a stable vortex and improve centrifugal separation efficiency [10]. In the sampling configuration, coarse particles larger than $2.5 \mu m$ were initially removed by a real impactor, whereas fine particles with aerodynamic diameters smaller than $2.5 \mu m$ were directed into the cyclone and subsequently collected on the backup filter installed downstream of the cyclone [5,6]. This configuration was designed to ensure stable vortex formation, effective coarse particle pre-separation, reduced backup filter overloading, and continuous $PM_{2.5}$ collection during

long-duration laboratory operation [11].

After each experiment, the exposed filters were carefully removed from the sampling system and preserved under controlled laboratory conditions for subsequent gravimetric and physicochemical analyses.

Particle size distribution measurement for cyclone-based sampling devices, expressed through the particle penetration equation [22], is an important parameter for evaluating the sampling performance of the cyclone and assessing the potential health risks associated with particulate matter exposure [23,24]. This is particularly relevant because many health-relevant aerosol components, including transition metals, heavy metals, water-soluble fractions, and insoluble fractions, are predominantly concentrated in the fine particle size range of typical atmospheric aerosols [25].

An increase in the sampling flow rate generally decreases particle penetration through the cyclone by strengthening centrifugal separation [26]. However, excessively high flow rates may increase turbulence intensity inside the cyclone, which can cause the loss or re-entrainment of small and low-inertia particles [27]. Therefore, particle penetration measurement is essential for determining cyclone cut-off characteristics, evaluating $PM_{2.5}$ classification efficiency, and optimizing the operational flow conditions of cyclone-assisted sampling systems.

2.2. Study area and sampling location

$PM_{2.5}$ sampling experiments were conducted in Tashkent city, Uzbekistan, from March 2025 to April 2026. The monitoring site was located on the 3rd-floor balcony of the Uzbek-Japan Innovation Center of Youth under semi-ambient outdoor conditions. The sampling location was selected to represent urban atmospheric environments influenced by traffic activity, urban dust transport, and surrounding anthropogenic emissions.

Tashkent is the largest and most densely populated city in Uzbekistan with a continental semi-arid climate characterized by hot summers, cold winters, relatively low precipitation, and seasonal atmospheric stagnation conditions. The monitoring site was situated near urban traffic zones and residential areas where atmospheric particulate accumulation is influenced by vehicle emissions, construction activities, dust resuspension, and domestic heating sources. Natural gas is widely used for transportation and residential heating in Tashkent, while coal and wood combustion may additionally contribute to seasonal aerosol accumulation during cold periods.

2.3. Collection Samples of $PM_{2.5}$

$PM_{2.5}$ samples were collected using the cyclone-based sampling system developed at Keio University, Japan [11]. The experimental sampling configuration enabled simultaneous collection of fine particulate matter on a downstream backup filter and inside the lower cyclone collection chamber. Fine $PM_{2.5}$ particles passing through the cyclone vortex were collected on a quartz fiber filter with a diameter of 90 mm, while larger and denser particulate fractions separated by centrifugal forces accumulated inside the container installed at the bottom section of the cyclone separator [10,11].

Sampling experiments were conducted from March 2025 to April 2026 on the 3rd-floor balcony of the Uzbek-Japan Innovation Center of Youth in Tashkent under semi-ambient

atmospheric conditions. The cyclone airflow rate was maintained between 78 L/min and 85 L/min throughout the experimental investigation in order to ensure stable vortex formation and continuous aerodynamic particle separation during long-duration operation.

The developed cyclone-assisted sampling system provided effective pre-separation of coarse particles, reduced excessive filter loading, and enabled continuous accumulation of suspended $PM_{2.5}$ aerosol fractions suitable for subsequent gravimetric and physicochemical analysis. Collected powder samples accumulated inside the glass collection chamber exhibited concentrated dark particulate characteristics indicating successful collection of atmospheric fine aerosol components.




Fig. 2. Schematic drawing (a) and picture (b) of cyclone-based $PM_{2.5}$ sampling system.

Collected $PM_{2.5}$ samples and deposited particulate materials were preserved under controlled laboratory conditions for subsequent laboratory analysis. Temporal variations in $PM_{2.5}$ concentrations and aerosol accumulation behavior were further assessed using continuous atmospheric monitoring data obtained from a high-accuracy Horiba air quality monitoring system installed approximately 1.4 km away from the sampling location.

2.4 Meteorological Data Measurement

Ambient $PM_{2.5}$ concentration data were additionally obtained from a high-precision atmospheric air quality monitoring system manufactured by Horiba. The monitoring station was installed in the Almazar district of Tashkent. The distance between the Horiba atmospheric monitoring station and the experimental $PM_{2.5}$ sampling site was approximately 1.4 km at coordinates 41.350605° N, 69.224970° E. The Horiba $PM_{2.5}$ dataset was

used as supplementary reference information to characterize the ambient fine particulate matter concentration in the surrounding urban area during the sampling period and to support the interpretation of the experimentally collected $PM_{2.5}$ samples and compare the efficiency of the $PM_{2.5}$ Real Impactor.

3. RESULTS AND DISCUSSION

3.1 $PM_{2.5}$ Sample Collection

$PM_{2.5}$ samples were collected using the opinalable cyclone-based sampling system developed at Keio University, Japan [11]. The experimental setup consisted of a $PM_{2.5}$ real impactor, a cyclone separator, and a backup filter arranged downstream of the cyclone to capture fine particulate matter.

$PM_{2.5}$ samples were collected over periods of 20–35 days per set, depending on atmospheric particulate concentrations, at the 3rd-floor balcony of the Uzbek-Japan Innovation Center of Youth in Tashkent during March 2025 and April 2026.

The collected samples exhibited distinct visual characteristics. The $PM_{2.5}$ real impactor showed residual particulate deposition after sampling (Fig. 3a), while the backup filter installed after the cyclone captured suspended very small particles penetrate cyclone (Fig. 3b). The powder sample collected between 50 mg 150 mg for each sampling period using the cyclone appeared as a concentrated, powder particulate mass, demonstrating successful accumulation of fine aerosol fractions suitable for subsequent gravimetric and chemical analysis (Fig. 3c).




Fig. 3. $PM_{2.5}$ sample collection and deposition observed during laboratory experiments: (a) $PM_{2.5}$ real impactor after sampling; (b) Backup filter installed after cyclone; (c) Powder sample collected using cyclone.

3.2 Temporal and Seasonal Variation of $PM_{2.5}$ Concentration

Seasonal variation of $PM_{2.5}$ concentration was evaluated from March 2025 to April 2026 in order to assess the performance of the cyclone-assisted $PM_{2.5}$ sampling system. $PM_{2.5}$ concentrations were measured using data obtained from the HORIBA monitoring station, cyclone, backup filter (BF), and combined BF+Cyclone measurements. In this study, $PM_{2.5}$ concentration measured using the HORIBA monitoring station were considered the primary reference values for evaluating the cyclone-assisted sampling system because the HORIBA instrument was equipped with high-precision sensors, provided stable long-term monitoring performance under different seasonal conditions, and was located

in close proximity to the experimental sampling site.

During the spring season, $PM_{2.5}$ concentration measured HORIBA measurements showed noticeable differences compared with concentrations obtained from the cyclone and BF+Cyclone systems. Cyclone and BF+Cyclone measurements demonstrated relatively elevated concentration values during this period, suggesting that the cyclone-assisted system may have additionally collected particles larger than the $PM_{2.5}$ aerodynamic fraction. In contrast, BF measurements alone remained comparatively low. This behavior indicates that a portion of fine particles may have been retained within the internal cyclone chamber, or that the concentration of ultrafine particles reaching the backup filter was limited due to relatively lower fine aerosol loading in the ambient atmosphere.

During the summer season, $PM_{2.5}$ concentrations remained relatively low across all measurement systems. HORIBA data indicated lower atmospheric $PM_{2.5}$ concentrations compared with spring and autumn periods. Cyclone and BF+Cyclone measurements also remained at relatively low levels and showed closer agreement with the reference HORIBA values. Reduced $PM_{2.5}$ accumulation during summer was likely associated with enhanced atmospheric mixing, stronger wind circulation, increased vertical dispersion, and the absence of seasonal heating sources. The very low BF concentrations observed during this period further suggest that only limited fine particulate mass passed through the cyclone system and reached the backup filter stage.

Autumn showed the highest $PM_{2.5}$ concentrations compared with the other seasons throughout the sampling period. Particularly during late October and early November, HORIBA concentrations exceeded $100 \mu\text{g}/\text{m}^3$. Cyclone and BF+Cyclone concentrations also increased during this interval. However, their values remained significantly lower than the HORIBA measurements. This discrepancy suggests that the cyclone-assisted sampling system may not have completely captured the total atmospheric $PM_{2.5}$ mass under elevated aerosol loading conditions. Additionally, environmental factors such as atmospheric humidity, particle size distribution, aerodynamic particle behavior, and airflow stability likely influenced the separation and collection efficiency of the cyclone and backup filter system. BF concentrations also remained relatively low during autumn, indicating that a substantial portion of particulate matter may have accumulated within the cyclone chamber or upstream sections of the sampling system rather than on the backup filter.

During the winter season, HORIBA $PM_{2.5}$ concentrations remained lower than the extreme autumn peak values but still exhibited considerably elevated atmospheric particulate levels. In several sampling periods, particularly during February 2026, BF+Cyclone concentrations approached the HORIBA measurements, while BF concentrations also increased noticeably. These observations suggest that fine particulate fractions may have been captured more efficiently by the backup filter system during winter atmospheric conditions. Low temperature, atmospheric inversion, reduced boundary layer height, and increased domestic heating emissions likely contributed to enhanced $PM_{2.5}$ accumulation during winter.

Bioxilma-xillik — tirik organizmlarning genetik, tur va ekotizim darajasidagi xilma-xilligi bo'lib, u tabiat barqarorligi va insoniyat farovonligining muhim ekologik asosi hisoblanadi. Ekotizim xizmatlari, jumladan, modda va energiya aylanishi, iqlimni tartibga solish, tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslarini muhofaza qilish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bevosita bioxilma-xillik bilan bog'liq. Shu sababli bioxilma-xillikni saqlash masalasi global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi davrda bioxilma-xillikning keskin kamayib borishi insoniyat oldidagi eng dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon asosan antropogen omillar — iqlim o'zgarishi, yer resurslarining degradatsiyasi, suv tanqisligi, urbanizatsiya, ortiqcha yaylov yuklamasi hamda brakonerlik bilan bog'liq. O'zbekiston sharoitida ushbu muammolar yanada murakkablashib, ayniqsa, Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi va tabiiy ekotizimlarning

buzilishi bioxilma-xillikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston bioxilma-xillik jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchi hududlardan biri bo'lib, mamlakat hududida 4300 dan ortiq o'simlik va 16 mingga yaqin hayvon turlari mavjud. Ularning ma'lum qismi endemik va noyob hisoblanadi, bu esa ularni muhofaza qilish zaruratini yanada kuchaytiradi. So'nggi yillarda davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'ini kengaytirish, yashil hududlarni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, muhofaza etiladigan hududlar ulushining qariyb 14 foizga yetishi bioxilma-xillikni saqlash yo'lidagi muhim natijalardan biri hisoblanadi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, bioxilma-xillikni saqlash faqat hududlarni kengaytirish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon ekologik yondashuvlarga asoslangan holda olib borilishi, ya'ni bioindikatorlar, ekologik monitoring, GIS texnologiyalari va tizimli tahlil usullaridan foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, yashil hududlar rivojlanishini ilmiy asosda tashkil etish, mahalliy

liy (endemik) turlardan foydalanish va ekotizim xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida bioxilma-xillikni saqlashda ekologik yondashuvlar va yashil hududlar rivojlanishining o‘rmini ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- bioxilma-xillikning hozirgi holatini va uning asosiy ekologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- noyob va yo‘qolib borayotgan turlar dinamikasini baholash;
- bioxilma-xillikka ta’sir etuvchi antropogen va tabiiy omillarni aniqlash;
- yashil hududlar tizimining rivojlanish darajasi va ekologik samaradorligini baholash;
- bioxilma-xillikni saqlashda ekologik yondashuvlarning ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining asosiy tabiiy-ekologik hududlari — cho‘l (Qizilqum, Ustyurt), tog‘ (Tyan-Shan, Pomir-Oloy), voha va to‘qay ekotizimlari tanlandi. Ushbu hududlar bioxilma-xillikning asosiy markazlari bo‘lib, turli ekologik sharoitlar va antropogen yuklama darajasi bilan farqlanadi.

Tadqiqot predmeti esa mazkur hududlarda uchraydigan noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik hamda hayvon turlari, ularning populyatsion holati, tarqalish xususiyatlari hamda yashil hududlar bilan o‘zaro bog‘liqligidan iborat.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda bioxilma-xillikni saqlashga ta’sir etuvchi ekologik va antropogen omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi, zamonaviy ekologik yondashuvlar — bioindikatorlar, GIS texnologiyalari va monitoring tizimlari asosida baholanadi hamda ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, yashil hududlarni ilmiy asosda tashkil etish, mahalliy va moslashuvchan turlardan foydalanish hamda ekologik monitoring tizimini takomillashtirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ushbu natijalar qishloq xo‘jaligi, tabiatni muhofaza qilish, hududiy rejalashtirish va ekologik siyosatni shakllantirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. MATERIALLAR VA USULLAR.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston hududida bioxilma-xillikni saqlash jarayonlarini baholash hamda yashil hududlar rivojlanishining ekologik samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot ekologiya, biogeografiya va agroekologiya fanlari kesishmasida olib borilib, turli tabiiy-ekologik hududlar kesimida bioxilma-xillik holati tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi (2019-yil nashri va yangilanayotgan ma’lumotlar), Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) ma’lumotlari, Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya (CBD) hisobotlari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy tashkilotlar materiallari, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda ekologik monitoring natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy metodlar qo‘llanildi. Avvalo, adabiyotlar tahlili orqali bioxilma-xillikni saqlashning

nazariy asoslari, global va mintaqaviy tendensiyalar hamda ilmiy yondashuvlar tizimli ravishda o‘rganildi. Statistik tahlil usullari yordamida Qizil kitobga kiritilgan turlar soni, ularning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi va vaqt davomida o‘zgarish dinamikasi baholandi. Taqqoslash usuli orqali turli ekotizimlar kesimida bioxilma-xillik darajasi hamda yashil hududlar tashkil etilgan va tabiiy holatda saqlanib qolgan hududlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning ekologik samaradorligi tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv asosida bioxilma-xillikka ta’sir etuvchi asosiy omillar — iqlim o‘zgarishi, suv resurslari holati, yer degradatsiyasi va antropogen bosim o‘zaro bog‘liqlikda kompleks tarzda o‘rganildi. Ekotizimlarning ekologik holatini aniqlashda bioindikatorlar usuli muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, o‘simlik biomassa ko‘rsatkichlari, populyatsiya zichligi va tur xilma-xilligi kabi ko‘rsatkichlar orqali ekotizim barqarorligi baholandi.

Tadqiqot izchil bosqichlarda amalga oshirildi, ya’ni dastlab ilmiy manbalar yig‘ilib, tahlil qilindi, so‘ng statistik ma’lumotlar umumlashtirildi va ekotizimlar kesimida taqqoslovchi tahlil o‘tkazildi. Keyingi bosqichda yashil hududlar rivojlanishining ekologik samaradorligi baholanib, yakunda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. NATIJALAR VA MUNOZARA.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududida bioxilma-xillikning yuqori darajada shakllanganligini, biroq uning barqarorligi bir qator ekologik va antropogen omillar ta’sirida izdan chiqayotganini ko‘rsatdi. Tahlillar mamlakat hududida 4300 dan ortiq o‘simlik turlari va 16 mingga yaqin hayvon turlari mavjudligini tasdiqlab, ularning 8 – 10 foizini endemik turlar tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda bioxilma-xillik markazlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Qizil kitob ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, noyob va yo‘qolib borayotgan turlar soni vaqt o‘tishi bilan ortib bormoqda. Xususan, 2019-yilgi nashrda 314 o‘simlik va 200 dan ortiq hayvon turlari kiritilgan bo‘lsa, yangi nashrda bu ko‘rsatkichlarning ortishi kuzatilmoqda. Bu holat bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan choralar mavjud bo‘lishiga qaramay, ekologik tahdidlar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston bioxilma-xilligi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Miqdor	Izoh
Umumiy turlar soni	~27 000+	Flora va fauna umumiy yig‘indisi
Yuksak o‘simliklar	~4 500	Asosan tog‘ va voha hududlarida
Endemik turlar ulushi	8–10%	Mahalliy noyob turlar
Hayvonlar umumiy soni	~16 000	Turli sistematik guruhlar
Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar (2019)	314	Muhofaza talab turlar
Muhofaza hududlari ulushi	14%	So‘nggi yillardagi kengayish

Hududlar kesimida olib borilgan taqqoslovchi tahlillar natijasida bioxilma-xillikning eng yuqori darajasi tog‘li hududlarda (Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmalari) hamda to‘qay

ekotizimlarida kuzatilishi aniqlandi. Cho'l hududlarida esa turlar soni nisbatan kam bo'lsa-da, ular o'ziga xos ekologik moslashuv xususiyatlariga ega bo'lgan noyob turlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, sug'oriladigan agroekotizimlarda antropogen bosimning yuqoriligi tufayli bioxilma-xillik darajasi pasayish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval


Ekotizimlar bo'yicha bioxilma-xillik darajasi

Ekotizim turi	Bioxilma-xillik darajasi	Sabab
Tog' hududlari	Yuqori	Ekologik xilma-xillik
To'qay o'rmonlari	Yuqori	Suv resurslariga yaqin
Cho'l hududlari	O'rtacha	Moslashgan turlar
Agroekotizimlar	Past	Antropogen bosim

Turlar sonining ortib borishi bioxilma-xillikka tahdid kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, monitoring tizimi takomillashayotganini ham bildiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimi tahlili natijasida so'nggi yillarda ularning maydoni sezilarli darajada kengaygani qayd etildi. Hozirgi kunda muhofaza etiladigan hududlar umumiy maydoni 6 million gektardan ortiqni tashkil etib, mamlakat hududining qariyb 14 foizini egallaydi. Yangi milliy tabiat bog'larining tashkil etilishi va mavjud hududlarning kengaytirilishi bioxilma-xillikni saqlashda ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq ekologik monitoring natijalari bioxilma-xillikka salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar hali ham dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, iqlim o'zgarishi natijasida haroratning oshishi va qurg'oqchilik kuchayishi, yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi, ortiqcha yaylov yuklamasi hamda brakonerlik kabi omillar ko'plab turlar populyatsiyasining qisqarishiga olib kelmoqda (1-rasm).



■ 1-rasm. Ekologik tahdidlar taqsimoti

Ekologik yondashuvlar samaradorligini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, bioindikatorlar asosida olib borilgan monitoring ekotizim holatini aniq baholash imkonini beradi. O'simlik biomassa ko'rsatkichlari, tur xilma-xilligi indeksleri orqali ekotizim barqarorligi va degradatsiya darajasi aniqlanib, ekologik holatga baho berish imkoniyati kengaydi.

Yashil hududlar rivojlanishining tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, to'g'ri tashkil etilgan ko'kalamzorlashtirish ishlari

ekotizimlarning tiklanishiga, havo sifatining yaxshilanishiga va ayrim turlar uchun yashash muhitining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq ayrim hududlarda noto'g'ri tur tanlash, suv resurslarini yetarli hisobga olmaslik va monitoring tizimining sustligi sababli kutilgan natijalarga to'liq erishilmayotgani ko'rish mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar bioxilma-xillikni saqlashda ekologik yondashuvlar va yashil hududlar rivojlanishining muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan, tizimli va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligi aniqlandi.

Olingan natijalar O'zbekiston hududida bioxilma-xillikning yuqori darajada shakllanganligini tasdiqlagan bo'lsa-da, uning barqarorligi turli ekologik va antropogen omillar ta'sirida izdan chiqayotganini ko'rsatdi. Bu holat global tendensiyalar bilan uyg'un bo'lib, bioxilma-xillikning kamayishi butun dunyoda kuzatilayotgan ekologik muammolar bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda bioxilma-xillikning hududiy taqsimlanishi ekologik sharoitlarga kuchli darajada bog'liq. Tog'li hududlarda va to'qay ekotizimlarida turlar xilma-xilligining yuqori bo'lishi ushbu hududlarning nisbatan kamroq antropogen bosim ostida ekanligi bilan izohlanadi. Aksincha, sug'oriladigan agroekotizimlarda bioxilma-xillikning kamayishi yer resurslaridan intensiv foydalanish, kimyoviy vositalar qo'llanilishi va suv resurslarining noto'g'ri boshqarilishi bilan bog'liq. Bu holat agroekotizimlarda ekologik yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Qizil kitob turlari sonining ortib borishi bir tomondan monitoring tizimining rivojlanayotganini bildirsa, boshqa tomondan bioxilma-xillikka tahdidlar kuchayib borayotganini ham anglatadi. Bu esa mavjud muhofaza choralarining yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi va ularni takomillashtirish zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va sho'rlanish kabi omillar Markaziy Osiyo sharoitida bioxilma-xillik uchun asosiy xavf omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining kengaytirilishi bioxilma-xillikni saqlashda muhim ijobiy natija sifatida baholanishi mumkin. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu hududlarning samaradorligi faqatgina ularning maydonini kengaytirish bilan emas, balki boshqaruv sifatini oshirish, ilmiy monitoringni kuchaytirish va mahalliy ekologik sharoitlarga mos yondashuvlarni joriy etish bilan belgilanadi. Bu esa bioxilma-xillikni saqlashda hududiy yondashuv va differensial boshqaruv zarurligini ko'rsatadi.

Ekologik yondashuvlarning ahamiyati, ayniqsa, bioindikatorlar va ekologik monitoring tizimlari orqali yaqqol namoyon bo'ldi. Bioindikatorlar yordamida ekotizimlarning real holatini aniqlash, yashirin degradatsiya jarayonlarini erta bosqichda aniqlash va prognoz qilish imkoniyati mavjud. Bu esa ekologik boshqaruvda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, GIS texnologiyalarining qo'llanilishi bioxilma-xillikni hududiy tahlil qilish, ekologik muammoli zonalarini aniqlash va ularni boshqarishda samarali vosita ekanligini qayd etish mumkin.

Yashil hududlar rivojlanishi bioxilma-xillikni saqlashning

muhim komponenti sifatida namoyon bo'ldi. To'g'ri tashkil etilgan yashil hududlar ekotizimlarni tiklash, mikroiklimni yaxshilash va turlar uchun yashash muhitini kengaytirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim hollarda noto'g'ri tur tanlash, suv resurslarini hisobga olmaslik va ilmiy yondashuvning yetishmasligi ushbu tashabbuslarning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bu esa yashil hududlarni tashkil etishda ekologik moslik va ilmiy asoslangan rejalashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, bioxilma-xillikni saqlashda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvlarning ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan yondashuvlar bioxilma-xillikni saqlashda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu yondashuvlarni milliy siyosat va amaliyot bilan integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bioxilma-xillikni saqlashda ekologik yondashuvlar va yashil hududlar rivojlanishining o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ekologik monitoringni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash bioxilma-xillikni saqlash samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

4. XULOSA.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston hududida bioxilma-xillikning yuqori darajada shakllanganligini, biroq uning barqarorligi zamonaviy ekologik va antropogen omillar ta'sirida sezilarli darajada zaiflashayotganini ko'rsatdi. Olingan natijalar bioxilma-xillikni saqlash jarayoni murakkab va ko'p omilli tizim ekanligini hamda uni samarali boshqarish uchun kompleks

ekologik yondashuvlar zarurligini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mamlakat hududida mavjud noyob va endemik turlar sonining ortib borishi bir tomondan monitoring tizimining rivojlanayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan bioxilma-xillikka tahdidlar kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, yer degradatsiyasi, sho'rlanish, suv resurslarining kamayishi va antropogen bosim bioxilma-xillik uchun asosiy xavf omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'ining kengaytirilishi bioxilma-xillikni saqlash yo'lidagi muhim ijobiy natija sifatida baholanishi mumkin. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat hududlar maydonini kengaytirish yetarli emas, balki ularni ilmiy asosda boshqarish, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial yondashuvlarni joriy etish zarur.

Yashil hududlar rivojlanishi bioxilma-xillikni saqlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi. To'g'ri tashkil etilgan yashil hududlar ekotizimlarning tiklanishi, mikroiklimning yaxshilanishi va turlar uchun yashash muhitining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, yashil hududlarni tashkil etishda mahalliy (endemik) turlardan foydalanish, suv resurslarini hisobga olish va ilmiy asoslangan rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bioxilma-xillikni saqlash ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlarning uyg'unlashuvini talab etadi. Ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish O'zbekistonning ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimov O.S. va boshqalar. Arid hududlarda bioxilma-xillikni saqlash muammolari // «Ekologiya xabarnomasi» jurnali. №4. 2022.
2. Abduraimov O.S., Shomurodov H.F. Dorivor o'simliklar va ularning ekologik ahamiyati. – Toshkent, 2023.
3. Atamurodova D. O'zbekistondagi qo'riqxonalar va ularning bioxilma-xilligi. 2023.
4. Boltayeva Q.A. O'zbekiston qo'riqxonalari va milliy bog'lari. 2023.
5. Egamberdieva D. Soil Microbiome and Plant-Microbe Interactions in Arid Ecosystems. 2025.
6. Mirzaaxmedov X. Tabiatni muhofaza qilishning hududiy shakllari. Toshkent, 2023.
7. Isomiddinov A.O. O'zbekiston tabiiy geografiyasi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Toshkent, 2018–2024.
8. Shomurodov H.F., Rakhimova T., Rakhimova N.K., Abduraimov O.S. va boshq. Ontogenetic structure of rare plant species on the Usturt Plateau in Uzbekistan // Arid Ecosystems. – 2020. – Vol. 10. – № 3. – P. 238–243.
9. Sennikov A.N., Tojibaev K.Sh. Taxonomic diversity of Central Asian flora // Plant Systematics. – 2021.
10. Tojibaev K.Sh., Khassanov F.O., Turginov O.T. va boshqalar. O'zbekiston florasini va endemik o'simliklar tahlili // Botanika jurnali. – 2022.
11. Turdikulova Sh. IUCN Red List va O'zbekiston bioxilma-xilligi monitoringi materiallari. 2025.
12. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Toshkent: "Chinor ENK", 2019. – 314 b.
13. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (2019–2030)" // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. – Toshkent, 2019.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarori "2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".
15. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to'g'risidagi milliy ma'ruza (2023–2025 yillar).
16. Convention on Biological Diversity (CBD). Global Biodiversity Outlook 5. – Montreal, 2020.
17. International Union for Conservation of Nature (IUCN). The IUCN Red List of Threatened Species. – 2023.
18. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook. – Nairobi, 2021.
19. UNEP, FAO. Ecosystem services and biodiversity conservation reports. – 2021.
20. UNDP. Biologik xilma-xillikni saqlashning yangi milliy maqsadlari. – Toshkent, 2025. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-02/biologik_xilma-xillikni_saqlashning_yangi_milliy_maqsadlari.pdf

“MARKAZIY QIZILQUM” MILLIY TABIAT BOG’IDA UCHRAYDIGAN EMINIUM (BLUME) SCHOTT (ARACEAE) TURINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Adilov Sobitjon Uktamovich,

G’ulomov G’ofir Komil o’g’li,

“Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog’i katta ilmiy xodimlari.

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog’i hududida o’suvchi, Araceae (Kuchaladoshlar) oilasiga mansub, Eminium (Blume) Schott turining tarqalishi, ekologik muhitga moslashuvi, zaharliligi va dekarativ xususiyatlari o’rganilgan. O’simlikning cho’l sharoitidagi hayotiy sikli, morfologik xususiyatlari va u bilan bog’liq biologik tavsiflar haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o’simlikning tabiatdagi ahamiyati va uni saqlash bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Eminium, Araceae, Markaziy Qizilqum, cho’l florasini, zaharli o’simlik, bioekologiya.

Abstract. This article examines the distribution, ecological adaptation, toxicity, and ornamental properties of Eminium (Blume) Schott, a species belonging to the Araceae family, growing in the Central Kyzylkum National Nature Park. Scientific data on the plant’s life cycle under desert conditions, its morphological features, and related biological characteristics are presented. The study also highlights the ecological significance of the species and provides recommendations for its conservation.

Keywords: Eminium, Araceae, Central Kyzylkum, desert flora, poisonous plant, bioecology.

Аннотация. В данной статье изучены распространение, экологическая адаптация, токсичность и декоративные свойства вида Eminium (Blume) Schott, относящегося к семейству Araceae, произрастающего на территории Центрально-Кызылкумского национального природного парка. Приведены научные данные о жизненном цикле растения в условиях пустыни, его морфологических особенностях и связанных с ними биологических характеристиках. В работе также рассмотрено значение данного вида в природной среде и предложены рекомендации по его сохранению.

Ключевые слова: Eminium, Araceae, Центральный Кызылкум, пустынная флора, ядовитое растение, биоэкология.

1. KIRISH.

Cho’l hududlarining florasini o’rganish botanika fanining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududi o’zining murakkab iqlim sharoiti va o’simliklar xilma-xilligi bilan ajralib turadi [1,2]. Ushbu hudud floristik rayonlashtirish nuqtai nazaridan ham alohida o’rin egallaydi [12].

Qizilqum cho’li esa mintaqadagi eng yirik cho’l hududlaridan biri bo’lib, bu yerda ko’plab ekologik moslashgan o’simlik turlari shakllangan [3]. Araceae oilasi vakillari dunyoning turli hududlarida keng tarqalgan bo’lib, ularning sistematikasi va biologik xususiyatlari ko’plab olimlar tomonidan o’rganilgan. Ushbu oilaning ilmiy tasnifi dastlab Heinrich Wilhelm Schott tomonidan ishlab chiqilgan [7]. Keyinchalik Adolf Engler tomonidan o’simliklarning sistematikasi yanada takomillashtirilgan [11].

Markaziy Osiyo florasini o’rganishda Korovin, Kamelin kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega bo’lib, ular mintaq o’simliklarining ekologik va geobotanik xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar [5,10].

O’zbekiston florasini o’rganishda ham ko’plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo’lib, ularning natijalari o’simliklarning tarqalishi va ekologik moslashuvini aniqlashga xizmat qilgan [4]. Shunga qaramay, Eminium turkumiga mansub o’simliklarning Markaziy Qizilqum hududidagi bioekologik xususiyatlari etarli darajada o’rganilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot Eminium turining tarqalishi va ekologik moslashuvini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

O’zbekistonning eng yirik muhofaza etiladigan hududlaridan biri – “Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog’i Prezidentimizning 2022-yil 16-fevraldagi PQ-131-son qarori asosida

tashkil etilgan [8,9].

Mazkur hudud cho’l ekotizimlarini, noyob flora va fauna turlarini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Hudud iqlimi keskin kontinental bo’lib, yozda nihoyatda issiq va quruq, qishda esa sovuq bo’ladi [21]. Shu sababli bu yerda o’suvchi o’simliklar ekstremal ekologik sharoitlarga moslashgan. Qizilqum cho’lining o’simlik qoplami asosan saksovuq, boyalich, shuvoq, teresken kabi turlardan tashkil topgan [23]. Shu o’simliklar orasida biologik va ekologik jihatdan muhim bo’lgan Eminium (Blume) Schott turi ham uchraydi.

2. MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Tadqiqot manbai sifatida cho’l sharoitiga moslashgan Eminium (Blume) Schott tanlab olindi. Tadqiqot ishlari 2023-2024-yillar davomida “Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog’ining turli geobotanik uchastkalarida olib borildi. Dala tajribalari oldindan ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etilib, o’simliklarning unib chiqishi, o’sishi, rivojlanishi, yashovchanligi muntazam kuzatib borildi. Biometrik o’lchovlar (o’simlik bo’yi, poya va barglarining soni, rivoji va boshqalar) o’simlikshunoslik va introduksiya sohasida umum qabul qilingan uslublar asosida amalga oshirildi [2,6].

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodik yondashuvlar qo’llanildi: dala kuzatuv usuli – o’simliklarning tabiiy sharoitdagi holatini muntazam qayd etish [15]; floristik inventarizatsiya – hudud florasining tur tarkibini aniqlash va ro’yxatga olish [16]; geobotanik tavsiflash – o’simlik qoplami va fitotsenozlarning tuzilishini o’rganish [17]; morfologik tahlil – o’simlik organlarining tashqi belgilari va o’zgaruvchanligini baholash [18]; fitotsenotik tahlil – o’simlik jamoalarining tarkibi va o’zaro bog’liqligini aniqlash [20]. Shuningdek, mavjud herbariy

materiallari bilan solishtirma tahlillar olib borildi. Qo'llanilgan barcha usullar botanik va geobotanik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan, ilmiy jihatdan asoslangan metodlar hisoblanadi [13,14].

3. NATIJALAR VA MUNOZARA.

Dala kuzatuvlari natijasida Eminium (Blume) Schott turining Markaziy Qizilqum hududida asosan qumli tuproqlarda uchrashi aniqlandi. O'simlik bahor oylarida vegetatsiya davriga kirib, qisqa muddat ichida gullash va meva hosil qilish jarayonini yakunlaydi. Fenologik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, Eminium turi cho'l sharoitiga yuqori darajada moslashgan bo'lib, suv tanqisligi va yuqori haroratlarga chidamliligi bilan ajralib turadi [22]. O'simlikning ildiz tizimi chuqur joylashgan bo'lib, bu unga tuproqning pastki qatlamlaridagi namlikdan foydalanish imkonini beradi.



■ Rasm. Eminium (Blume) Schott.

Tadqiqot jarayonida "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ining turli uchastkalarida 1 gektar maydonlarga ajratilgan monitoring nuqtalarida Eminium (Blume) Schott turlarining zichligi, vegetatsiya davomiyligi, yashash muhitidagi o'zgarishlarga nisbatan reaksiyasi kuzatildi. Quyidagi jadvallarda ushbu ma'lumotlar tizimlashtirilgan:

1-jadval

Eminium (Blume) Schott turining 1 gektardagi uchrash soni (2023-2024-yil bahorgi kuzatuvlarga ko'ra)

Monitoring uchastkasi	Gektardagi o'simlik soni (dona)	
	2023-yil	2024-yil
qumli hudud (1-kuzatuv nuqtasi)	42	45
qumli-shag'alli (2-kuzatuv nuqtasi)	65	54
qumli hudud (3-kuzatuv nuqtasi)	38	42
shag'alli hudud (4-kuzatuv nuqtasi)	71	59

2-jadval

Vegetatsiya davri davomiyligi

Bosqichlar	Boshlanish sanasi	Tugash sanasi	Davomiylik (kun)
Vegetatsiya boshlanishi	10-15.03.	25-30.05.	10-15
Gullash bosqichi	01.04.	15.04.	15
Meva hosil bo'lishi	20.04.	10.05	20
Qurish, vegetatsiya yakuni	25.05.	01-05.06	5-10
Umumiy vegetatsiya davomiyligi	15.03.	01.06	75-80

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, Eminium (Blume) Schott turi bahor oylarida qisqa muddatli, ammo intensiv hayotiy davrga ega. Bu holat uning cho'l sharoitiga ekologik moslashganligidan dalolat beradi. Floristik inventarizatsiya asosida aniqlanishicha, Eminium turi alohida-alohida uchastkada uchraydi. Bu uchastkalar turli balandlik va tuproq tarkibiga ega bo'lib, o'simlik har bir joyda o'ziga xos fitotsenotik muhitda yashaydi. Unga ko'proq hamrohlik qiluvchi turlar sifatida Peganum harmala, Calligonum spp., Salsola arbuscula, Ephedra strobilacea va Astragalus turlari qayd etildi. Bu esa Eminium turining cho'l o'simliklari bilan barqaror ekologik o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi [24].

Morfologik tahlillar natijasida o'simlikning vegetativ qismlari (barg, poya) va generativ qismlari (gullari, mevalari) to'liq tavsiflandi. Barglar ko'proq bazal joylashuvga ega bo'lib, ularning ustki qismida mumli qatlam mavjud. Gullari qo'ng'ir-to'q qizg'ish (baxmal) rangda bo'lib, spiral shaklida o'ralib joylashgan. Mevalari urug'ga boy va kuchli zahar saqlovchi moddaga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu tahlillar natijasida barglarning bazal joylashuvi, qalin kutikula qavati hamda generativ organlarning o'ziga xos tuzilishi aniqlangan [19]. Eminium turining areali avval faqat Qizilqum cho'lining ayrim hududlarida qayd etilgan bo'lsa, ushbu tadqiqot orqali uning Markaziy Qizilqum hududida ham keng tarqalganligi aniqlandi [1,25].

Olingan tadqiqot natijalariga asoslanib, Eminium (Blume) Schott turini saqlab qolish va uning populyatsiyasini barqarorlashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy choralar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, turning populyatsiya holatini muntazam nazorat qilish maqsadida doimiy monitoring tizimini yo'lga qo'yish orqali uning sonidagi o'zgarishlar dinamikasi tahlil qilinadi va o'z vaqtida zarur choralar ko'rish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ushbu tur cho'l ekotizimlarining muhim qismi sifatida milliy va hududiy ekologik muhofaza dasturlariga kiritilishi lozim.

Mahalliy aholi o'rtasida o'simlikning zaharliligi va ekologik ahamiyati haqida tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borish ham muhim hisoblanadi. Eminium turining farmakologik va biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy GIS va boshqa raqamli texnologiyalar asosida turning tarqalish arealini aniqlash, xaritalashtirish va uzoq muddatli monitoringni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. XULOSA.

O'simlik namunalarini botanika bog'lari va gerbariy fondlarida saqlash ularning genetik va morfologik xususiyatlarini tadqiq etish imkonini beradi. Milliy tabiat bog'i hududida ekologik ta'lim va ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish orqali ushbu tur va boshqa noyob o'simliklar haqida keng jamoatchilikning xabardorligini oshirish mumkin. Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tashqi va ichki grantlar asosida ilmiy loyihalarni moliyalashtirish muhim omil hisoblanadi. Ushbu tavsiyalar orqali Eminium (Blume) Schott turini saqlab qolish, undan oqilona foydalanish va cho'l ekotizimlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Eminium (Blume) Schott turi "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i hududining ekologik sharoitlariga yuqori darajada moslashgan, biogeotsenotik kompleksning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O'simlikning qumli joylarda uchrashi, qisqa vegetatsiya davriga ega bo'lishi, chuqur ildiz sistemasi va barglarining qalin kutikulali tuzilmasi cho'l sharoitida yashashga moslashganligidan dalolat beradi. Uning zaharliligi bir tomondan ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qilsa, ikkinchi tomondan uning biologik himoya vositasi sifatida tabiiy ekotizimda muhim rol o'ynashini anglatadi. Shu sababli ushbu turning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, kelgusida dorivor yoki pestitsid xususiyatlarining ilmiy asoslangan yo'l bilan tadqiq qilinishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiboyev Komiljon Shavkatovich. O'zbekiston florasini va uning o'simlik geobotanik xususiyatlari. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2018. – 356 b.
2. Karimov Foziljon Xudoyberdiyevich. Cho'l o'simliklarining ekologik moslashuvi. Samarqand: «Registon» nashriyoti, 2020. – 248 b.
3. Madraximov Baxtiyor Bahodirovich. Araceae oilasining O'zbekistondagi vakillari. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2015. – 45–49 b.
4. Flora of Uzbekistan. Vol. IX: Araceae. Tashkent: Institute of Botany, Uzbekistan Academy of Sciences, 2021. – 210 p.
5. Камелин Рудольф Владимирович. Флора и растительность Средней Азии. Ленинград: Наука, 1973. – 280 с.
6. Nabiyeu Murodjon Mamatqulovich, Turgunov Jamshid Raximovich. Cho'l o'simliklarining biologik faolligi va ularning xalq tabobatidagi o'rni. Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2019. – 192 b.
7. Schott Heinrich Wilhelm. Genera Aroidearum. Wien: Carl Gerold's Sohn, 1857. – 120 p.
8. Qodirov Abduvali Sobirovich. Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog'i florasini va ekologik monitoring. Toshkent: «Ekologiya xabarnomasi» jurnali, 2022. – 33–39 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-131-son qaror. Toshkent, 2022-yil 16-fevral.
10. Коровин Евгений Петрович. Флора Средней Азии. Ташкент: Издательство «Фан», 1961. – 312 с.
11. Engler Adolf. Syllabus der Pflanzenfamilien. Berlin: Gebrüder Borntraeger, 1930. – 666 p.
12. Тахтаджян Армен Леонович. Floristic Regions of the World. Berkeley: University of California Press, 1986. – 522 p.
13. Odum Eugene Pleasants. Fundamentals of Ecology. Philadelphia: W.B. Saunders Company, 1971. – 574 p.
14. Walter Heinrich. Vegetation of the Earth and Ecological Systems of the Geo-biosphere. Berlin: Springer-Verlag, 1985. – 318 p.
15. Archibald Owen W. Ecology of World Vegetation. London: Chapman & Hall, 1995. – 510 p.
16. Работнов Тимофей Александрович. Геоботаника. Москва: Издательство МГУ, 1983. – 296 с.
17. Толмачёв Александр Иннокентьевич. Методы флористических исследований. Ленинград: Наука, 1974. – 184 с.
18. Быков Борис Александрович. Геоботаника. Алма-Ата: Наука, 1978. – 288 с.
19. Серебряков Иван Григорьевич. Морфология растений. Москва: Высшая школа, 1962. – 380 с.
20. Лавренко Евгений Михайлович. Пустыни Евразии. Москва: Наука, 1970. – 245 с.
21. Шенников Александр Петрович. Экология растений. Москва: Наука, 1950. – 376 с.
22. Rasulov Alisher Raxmonovich. Cho'l o'simliklari ekologiyasi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2008. – 210 b.
23. Shomurodov Husniddin Fayzullayevich. Biodiversity of Uzbekistan Flora. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2011. – 276 b.
24. Baitulin Ibragim Ospanovich. Botanical Geography of Central Asia. Almaty: Nauka, 1990. – 198 p.
25. Tursunov Xolmirza To'xtasinovich. Vegetation of the Kyzylkum Desert. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1985. – 240 b.

ФОРМИРОВАНИЕ АКТИВНОГО БИОФЛОКА И ЗОНЫ СТРАТИФИКАЦИИ В РЫБОВОДНЫХ ПРУДАХ ПРИ ИНТЕНСИВНОМ ВЫРАЩИВАНИИ РЫБЫ

¹Каримов Нариман Абдувахитович,

¹Курамбаева Мохира Бахрамовна,

^{1,2}Куватов Аскар Каракулович, DSc докторант,

³Мубарак Туйли кизи Шербутаевна, студент,

¹Научно-исследовательский институт окружающей среды и природоохранных технологий,

²Alfraganus university,

³Ташкентский государственный аграрный университет.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы формирования активного биофлора и зоны стратификации в рыбоводных прудах при интенсивном выращивании рыбы. Показана взаимосвязь между высокой плотностью посадки, накоплением органических веществ, развитием микроорганизмов и вертикальным разделением водной толщи. Рассматриваются условия формирования биофлора, причины возникновения стратификации, их влияние на гидрохимический режим пруда и продуктивность рыбоводных хозяйств Узбекистана. Представлены практические рекомендации по управлению этими процессами для повышения экологической устойчивости и эффективности интенсивного рыбоводства.

Ключевые слова: интенсивное рыбоводство, биофлок, стратификация, качество воды, прудовое рыбоводство, экологическая устойчивость.

Abstract. This article examines the formation of active biofloc and stratification zones in fish ponds under intensive aquaculture conditions. The relationship between stocking density, organic matter accumulation, microbial activity, and vertical water column separation is analyzed. Environmental risks associated with intensive aquaculture are identified and practical recommendations for water quality management are proposed. The results can be applied in fish farming systems of Uzbekistan to improve productivity and environmental sustainability.

Keywords: intensive aquaculture, biofloc, stratification, fish pond, water quality, sustainability.

Annotatsiya. Maqolada intensiv baliq yetishtirish sharoitida baliqchilik hovuzlarida bioflok hosil bo'lishi va suv qatlamlarining stratifikatsiyasi jarayonlari ko'rib chiqilgan. Yuqori zichlikda baliq yetishtirishda organik moddalar to'planishi, mikroorganizmlar rivojlanishi hamda suv qatlamlarining vertikal ajralishi o'rnatidagi bog'liqlik aniqlangan. Intensiv baliqchilikda ekologik xavflar baholangan va suv sifatini boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: intensiv baliqchilik, bioflok, stratifikatsiya, baliqchilik hovuzi, suv sifati, ekologik barqarorlik.

1. ВВЕДЕНИЕ

Биофлок – это пробиотическая формула, состоящая из развитого бактериального сообщества.

Стратификация – это процесс воздействия на семена холода и влаги, стимулирующий прорастание. В природе он происходит естественно, когда весной температура повышается, водные фито-флора выходят из периода покоя и начинает цветение воды.

В последние годы в Узбекистане активно развивается интенсивное рыбоводство, характеризующееся высокой плотностью посадки рыбы, увеличением объёмов кормления и ростом органической нагрузки на водоёмы. Эти факторы приводят к изменению как гидрохимических, так и гидро-биологических процессов в рыбоводных прудах. Одними из наиболее важных процессов являются – формирование активного биофлора, – зоны стратификации воды.

Оба процесса оказывают существенное влияние на кислородный режим и другие гидрохимические показатели воды и продуктивность рыбоводных хозяйств в целом. В целях уплотнения посадки прудов фермеры переходят на принудительное обогащение прудов кислородом используя при этом аэраторы для увеличения плотности посадки рыбы – это устройства (диффузорные, поверхностные, струйные),

обеспечивающие интенсивное насыщение воды кислородом (до 10–12 мг/л), удаление вредных газов С СО₂, метан) и перемешивание слоев. Они позволяют повысить плотность посадки рыбы в 2–3 раза, ускорить рост и предотвратить заморы [14].

Понимание механизмов формирования биофлора и стратификации позволяет повысить эффективность управления рыбоводными прудами при интенсивном выращивании рыбы.

2. МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования использовались: анализ научной литературы, сравнительный анализ интенсивных технологий рыбоводства, гидробиологические наблюдения, анализ гидрохимических показателей воды, обобщение данных рыбоводных хозяйств Узбекистана [9, 10, 11, 12, 13, 15, 19, 20].

Исследования проводились на рыбоводных прудах интенсивного типа глубиной 1,2–1,5 м при высокой плотности посадки рыбы.

3. РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Биофлок – это технология, при которой взвешенные частицы в воде (органика, остатки корма, экскременты) не просто оседают, а связываются в хлопья и используются системой. Система аквакультуры, в которой используется

«микробная биотехнология для повышения эффективности и использования рыбных кормов. Токсичные вещества, такие как азотистые соединения, обрабатываются и преобразуются в полезный продукт, например, белок, который используется в качестве дополнительного корма для рыб и ракообразных» [1]¹.

При интенсивном выращивании рыбы происходит накопление органических веществ в водной среде. Основными источниками органических веществ являются: комбикорма, экскременты рыбы, отмерший фитопланктон, микроорганизмы, органические взвешенные вещества [4, 18].

В условиях повышенной органической нагрузки происходит развитие гетеротрофных бактерий, формирующих биофлок. В таблице 1 приводятся основные факторы формирования биофлока.

Таблица 1

Основные факторы формирования биофлока

Фактор	Влияние на формирование биофлока
Высокая плотность посадки	Увеличение органических отходов
Интенсивное кормление	Рост органической нагрузки
Аэрация	Поддержание микроорганизмов
Источник углерода	Активизация бактерий
Температура воды	Ускорение микробиологических процессов

При добавлении источников углерода увеличивается соотношение CN, что ускоряет развитие гетеротрофных бактерий (Табл.2), [6,7].

Таблица 2

Источники углерода для формирования биофлока

Источник углерода	Особенности применения
Патока	Быстрое формирование биофлока
Сахар	Быстрое развитие бактерий
Пшеничные отруби	Медленное формирование
Рисовые отруби	Дополнительный корм
Крахмал	Стабильное развитие бактерий

Активный биофлок представляет собой агрегаты, состоящие из: бактерий, водорослей, простейших организмов, детрита, органических частиц.

Биофлок выполняет следующие функции: снижение аммиака, улучшение качества воды, дополнительный корм (простейшие), повышение продуктивности.

Формирование зоны стратификации, при интенсивном выращивании рыбы в прудах формируется вертикальная стратификация водной толщи.

Таблица 3

Характеристика слоев стратификации

Слой воды	Характеристика	Содержание кислорода
Эпилимнион	Тёплая вода, биофлок	Высокое
Металимнион	Переходный слой	Среднее
Гиполимнион	Холодная вода, ил	Низкое

Основные причины стратификации: температурные различия, различия плотности воды, накопление органических веществ, отсутствие перемешивания. В таблице 3 приводится характеристика слоев стратификации [2].

В нижнем слое происходит разложение и расщепление органических веществ, включая оседающий биофлок.

Схема рыбоводного пруда при интенсивном выращивании. Схема формирования биофлока и стратификации: Верхний слой (эпилимнион): активный биофлок, фитопланктон, высокая концентрация кислорода, активная рыба. Средний слой (термоклин) переходная зона и снижение кислорода. Нижний слой (гиполимнион) – накопление, органических веществ, разложение биофлока, образование аммиака и образование сероводорода [7].

Взаимосвязь биофлока и стратификации – Биофлок формируется преимущественно в верхнем слое воды. Постепенно частицы биофлока оседают на дно, где подвергаются разложению, что приводит к снижению кислорода, накоплению токсичных веществ, усилению стратификации [8].

При перемешивании воды возможны: снижение кислорода и стресс рыбы.




Рис. 1. Схема рыбоводного пруда при интенсивном выращивании

Практическое значение для рыбоводства (Табл.4).

Таблица 4

Положительные и отрицательные эффекты

Процесс	Положительное влияние	Риски
Биофлок	Дополнительный корм	Оседание органики
Стратификация	Стабилизация слоев	Дефицит кислорода

Для управления процессами рекомендуется: использование аэрации, перемешивание воды, контроль глубины, контроль кормления [2,9,14,11].

Практические рекомендации (Табл.5)

Таблица 5

Оптимальные параметры

Показатель	Оптимальное значение
Глубина пруда	1,2–1,5 м
Кислород	4–5 мг/л
Температура	24–30°C
Плотность посадки	Интенсивная

Статистика развития интенсивного рыбоводства в Узбекистане. По данным Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан и отраслевых исследований, в последние годы наблюдается устойчивый рост рыбоводной отрасли (Табл.6), [5].

Таблица 6

Динамика производства рыбы в Узбекистане

Год	Объем производства, тыс. тонн
2016	94
2018	120
2020	144
2022	165
2024	180
2025	более 206

Рост производства обусловлен: внедрением интенсивных технологий, увеличением плотности посадки, расширением прудовых хозяйств, внедрением биофлук технологий [3].

В условиях Узбекистана стратификация особенно выражена в летний период, когда температура воды в прудах достигает 28–32°C, что усиливает процессы разложения органических веществ и формирование биофлук. В южных и центральных регионах страны интенсивные технологии

применяются наиболее активно, что повышает актуальность управления процессами стратификации и формирования биофлук [4].

Таблица 7

Основные проблемы интенсивного рыбоводства Узбекистана

Проблема	Влияние
Высокая плотность посадки	Ухудшение качества воды
Избыточное кормление	Накопление органики
Недостаточная аэрация	Стратификация воды
Высокая температура	Снижение кислорода

4. ВЫВОДЫ

Таким образом, формирование активного биофлук и стратификации является естественным процессом интенсивного рыбоводства. Управление этими процессами позволяет повысить экологическую устойчивость и продуктивность рыбоводных хозяйств Узбекистана. Формирование биофлук улучшает кормовую базу в интенсивных рыбоводных прудах, однако стратификация может привести к дефициту кислорода. Оптимально для условий Узбекистана и Центра Азиатских стран внедрение технологии с полу-интенсивным ведением прудового рыбоводства.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Avnimelech Y. *Biofloc Technology: A Practical Guide Book*. – World Aquaculture Society, 2015. – DOI: 10.1002/9781118895838.
2. Boyd C.E. *Water Quality Management for Pond Fish Culture*. – Elsevier, 1998. – DOI: 10.1016/B978-0444886374.
3. Boyd C.E., Tucker C.S. *Pond Aquaculture Water Quality Management*. – Springer, 2012. – DOI: 10.1007/978-1-4615-5407-3.
4. FAO. *Aquaculture development*. – FAO Technical Guidelines, 2020. – DOI: 10.4060/ca9229en.
5. FAO. *Fisheries and Aquaculture Report*. – 2022. – DOI: 10.4060/cc0465en.
6. Hastuti S., Subandiyono. Application of biofloc technology in intensive farming affected production and blood performances of the catfish (*Clarias gariepinus*) // *Jurnal Teknologi*. – 2016. – Vol. 78, № 4-2. – P. 221–226. DOI: 10.11113/jt.v78.8212.
7. Tacon A.G.J. *Feed Management in Aquaculture*. – FAO, 2017. – DOI: 10.4060/i8179en.
8. Crab R., Defoirdt T., Bossier P., Verstraete W. Biofloc technology in aquaculture // *Aquaculture*. – 2012. – DOI: 10.1016/j.aquaculture.2011.10.02.
9. De Schryver P., Verstraete W. Nitrogen removal from aquaculture // *Aquaculture*. – 2008. – DOI: 10.1016/j.aquaculture.2008.02.012.
10. Kurambaeva, M.B. 2008. Improvement of fish feeding technology and prospects for development of aquaculture in Uzbekistan. PhD Dissertation, Research Institute of Zoology. Uzbekistan Academy of Sciences. Tashkent. Sep.
11. Karimov B., H. Lieth, M. Kurambaeva, N. Mullaboev and H. Lieth. 2005. Hydrological situation assessment in the southern Aral Sea region of Central Asia according to the last 15 years of collecting ecotoxicological data. in abstract volume. 15th Stockholm Water Symposium. Stockholm. Aug 21 – 27. pp. 320 – 321. Eng.
12. Kurambaeva, M.B. 2008. Scientific analysis of modern conditions and perspectives for aquaculture development in the lower Amudarya river basin. *Ecology Journal*. № 8. Tashkent. pp. 14 – 16.
13. Kurambaeva, M.B. 2008. Investigating opportunities to use formulated forages from local ingredients as additional feed for intensive aquaculture. *Biology Journal. UzAS*. “FAN” publisher. Tashkent. № 5. pp. 59–65.
14. Karimov B., H. Lieth, M. Kurambaeva and I. Matsapoeva. 2005. Problems of Fishermen in the southern Aral Sea region. *Journal of Marine Science / Special Issue: Mitigation and Adaptation Strategies for Global Change*. Germany. 10: pp. 87 – 103. Eng.
15. Kurambaeva, M.B. 2005. Development of plankton organisms by using different types of organic manures. *Biology Journal. UzAS*. “FAN” publisher. Tashkent. № 5. pp. 84 – 86.
16. Karimov B., I. Joldaseva, H. Blanchoud, M. Kurambaeva, N. Mullaboev and M. Chevreuil. 2004. Problems of sustainable fisheries and aquaculture in the southern Aral Sea region under anthropogenic impact. Aug. in abstract volume. The 14th Stockholm Water Symposium. Stockholm. pp. 272 – 273. Eng.
17. Kholmatov, N.M., M. Kurambaeva and B. Karimov. 2004. Fish productivity changes in natural reservoirs of the Aydar-Arnasay lake systems, depending on ecological factors. *Int'l Conf on Use of Geographic Information Systems and Simulation Models for Research and Decision Support in Central Asia basins*. Humboldt College. Jul 6 – 10. Tashkent. pp. 164 – 166.
18. Khanjani M.H., Mohammadi A., Emerenciano M.G.C. Water quality in biofloc technology (BFT): an applied review for an evolving aquaculture // *Aquaculture International*. – 2024. – Vol. 32. – P. 9321–9374. DOI: 10.1007/s10499-024-01618-w.
19. Phan L.P., Nguyen T.V. Efficiency of intensive tilapia culture in earthen ponds applied biofloc technology (BFT), probiotics and off-flavor control methods // *The Journal of Agriculture and Development*. – 2023. – Vol. 22, № 3. – P. 9–18. DOI: 10.52997/jad.2.03.2023.
20. Sumitro, Budiardi T., Fauzi H., Ekasari J. Production performance and nitrogen and phosphorus mass balance in biofloc-based African catfish intensive culture at different densities // *Jurnal Akuakultur Indonesia*. – 2021. – Vol. 20, № 1. – P. 82–92. DOI: 10.19027/jai.20.1.82-92.

LAKE ECOSYSTEM DEGRADATION, WATER QUALITY DYNAMICS AND RESTORATION PRIORITIES: A SCOPUS-BASED REVIEW FOR ENVIRONMENTAL ASSESSMENT

Aminov Khamza Khusanovich,

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Professor
Deputy Director of the Research Institute of Environment and Nature Conservation Technologies,
Khamdullayeva Aziza Bakhtiyor qizi,
Doctoral Student at the Research Institute of Environment and Nature Conservation Technologies

Abstract. Lake ecosystems are highly sensitive to climate variability, nutrient enrichment, hydrological changes and anthropogenic pressure. Their degradation is reflected in declining water quality, eutrophication, algal blooms, shoreline transformation, biodiversity loss and reduced ecosystem services. This review analyzes Scopus-indexed publications on lake ecosystems published between 2015 and 2026, with emphasis on water quality, eutrophication, environmental monitoring, remote sensing and restoration. The bibliometric results show that Environmental Science is the dominant subject area, while publication activity has increased notably after 2020. China, the United States and Canada are the leading countries in this research field. VOSviewer keyword analysis identified two main thematic clusters: water pollution, monitoring and sediment chemistry; and lake ecosystem, eutrophication, nutrients, phytoplankton and climate change. The study concludes that effective lake ecosystem management should integrate nutrient-load reduction, sediment control, phytoplankton monitoring, macrophyte restoration, shoreline protection, remote sensing indicators and long-term field observations. These findings are relevant for environmental assessment of arid and semi-arid lake systems, including the Aydar-Arnasoy lake system.

Keywords: lake ecosystem; water quality; eutrophication; phytoplankton; remote sensing; environmental monitoring; nutrient dynamics; ecosystem restoration.

4. XULOSA

Qo'qon vohasining uzoq yillik meteorologik ma'lumotlari va masofadan zondlash ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. 1930 – 2022-yillar oralig'idagi deyarli bir asrlik davrda havo haroratining chiziqli regressiya tahlili hududda o'rtacha yillik harorat 3.03°C ga ko'tarilganini ko'rsatdi. Bu global isish sur'atlaridan qariyb 2 barobar yuqori bo'lib, ayniqsa, qishki (+3.84°C) va kuzgi (+3.63°C) mavsumlarda isishning jadallashuvi voha landshaftlarining termal transformatsiyaga uchrayotganidan dalolat beradi.

2. Tadqiqotda iqlim isishi fonida o'simlik qoplamining (NDVI) barqarorligi birinchi marta Hurst (H) koeffitsiyenti orqali bashorat qilindi. Natijalar ($H > 0.5$) shuni ko'rsatdiki, gidrologik defitsit va isish bosimiga qaramay, vohada vegetatsiya ko'rsatkichlari (0.6–0.8) yuqori barqarorlikka ega. Bu "voha effekti" va inson tomonidan boshqariladigan irrigatsiya tizimi iqlimiy salbiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli kompensatsiya qilayotganini isbotlovchi yangi ilmiy yechimdir.

1-jadval

Qo'qon vohasining iqlimiy va ekologik holati bo'yicha umumiy baholash

Baholash ko'rsatkichi	Miqdoriy trend	Baholash mezon	Hududning sifat bahosi
Havo harorat	+3.03°C	IPCC xalqaro standarti ($>0.2^{\circ}\text{C}/10$ yil)	Jadal isish holatida
Atmosfera yog'inlari	Kam va beqaror ($R^2=0,09$)	Gidrologik balans buzilishi (defitsit)	Suv tanqisligi xavfi yuqori
O'simliklar (NDVI)	0.6–0.8 (yaxshi)	NDVI shkalasi (>0.5 zich o'simlik)	Ekologik barqaror
Urbanizatsiya	Shahar massivlari kengaygan	Issiqlik oroli effekti	Antropogen bosim ortib bormoqda

Izoh: Hududiy iqlimiy o'zgarishlar IPCC xalqaro standartlari, o'simlik qoplam holati esa NDVI (0.1–1.0) shkalasi hamda Hurst ($H > 0.5$) persistensiya koeffitsiyenti mezonlari asosida qiyosiy baholangan.

3. Landsat 7/8 tasvirlari yordamida olingan fazoviy tahlillar urbanizatsiya jarayonlari voqa markazida “issiqlik oroli” effektini kuchaytirayotganini aniqladi. Amaliy jihatdan, Qo‘qon shahrining shimoliy va shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi tartibsiz kengayishi unumdor sug‘oriladigan yerlarning qisqarishiga olib kelmoqda.

4. Tadqiqot natijalari kelajakda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarida “yashil iqtisodiyot” tamoyillaridan foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va shaharsozlikda yashil belbog‘larni ko‘paytirish orqali “issiqlik oroli” ta‘sirini yumshatish zarurligini ko‘rsatadi. Bu choratadbirlar iqlim o‘zgarishi sharoitida Qo‘qon vohasining ekologik chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Li, Z., Chen, Y., Li, W., Deng, H., & Fang, G. (2015). Potential impacts of climate change on vegetation dynamics in Central Asia. *Journal of Geophysical Research: Atmospheres*, 120(24), 12,345-12,356. DOI: 10.1002/2015JD023618
2. Li, X., Shi, Z., Yu, J., & Liang, J. (2023). Study on the Change in Vegetation Coverage in Desert Oasis and Its Driving Factors from 1990 to 2020 Based on Google Earth Engine. *Applied Sciences*, 13(9), 5394.
3. Chen Long-term monitoring of oasis transformation using Landsat imagery (1990-2020) *Remote Sensing*
4. Piao, S., Wang, X., Park, T., Chen, C., Lian, X., He, Y., ... & Myneni, R. B. (2020). Characteristics, drivers and feedbacks of global greening. *Nature Reviews Earth & Environment*, 1(1), 14-27.
5. Jiang, L., Jiapaer, G., Bao, A., Guo, H., & Ndayisaba, F. (2022). Spatiotemporal variation of vegetation and its response to climate change in Central Asia. *Ecological Indicators*, 129, 107915.
6. Chen, C., Park, T., Wang, X., Piao, S., Xu, B., Chaturvedi, R. K., ... & Myneni, R. B. (2019). China and India lead in greening of the world through land-use management. *Nature Sustainability*, 2(2), 122-129.
7. Tucker, C. J. (1979). Red and photographic infrared linear combinations for monitoring vegetation. *Remote Sensing of Environment*, 8(2), 127-150.
8. Hurst, H. E. (1951). Long-term storage capacity of reservoirs. *Transactions of the American Society of Civil Engineers*, 116(1), 770-799.
9. Zhang, Y., He, Y., Li, Y., & Yi, C. (2021). Vegetation dynamics and their response to hydro-climatic factors in typical arid oases. *Journal of Hydrology*, 598, 126268.
10. Alibekov, L. A. (2010). Landshaftlar transformatsiyasi va cho‘llanish muammolari. Tashkent: Fan.
11. Hikmatov, F. H., Adenbaev, B. E., & Yunusov, G. K. (2021). Water resources of Central Asia: current state and future changes. *Journal of Water Resources*, 48(2).
12. Nigmatov, A. N. (2015). Ekologiya va tabiatdan foydalanish. Tashkent: Universitet.
13. Мелибоева Ф. С. (2026). Климат Кокандского оазиса и его изменения. *Экономика и социум*, 2(141)-1, 815-820.
14. Rafikov, A. A. (1997). Geoekologik muammolar va ularning yechimlari. Tashkent: O‘qituvchi.
15. Chub, V. E. (2007). Climate Change and its Impact on the Hydrometeorological Processes in Uzbekistan. Tashkent: NIGMI.
16. Gudalov, M. R. (2019). Monitoring of oasis landscapes of Southern Uzbekistan using remote sensing. *International Journal of Geoinformatics*.
17. IPCC (2021). Climate Change 2021: The Physical Science Basis. Contribution of Working Group I to the Sixth Assessment Report.
18. MODIS Global Manual (2022). Vegetation Index Product (MOD13) User Guide.
19. USGS (2023). Landsat 8-9 Calibration and Validation Report.
20. FAO (2020). Global Forest Resources Assessment: Terms and Definitions.
21. Uzhydromet (2022). Yearly report on climate monitoring in Uzbekistan.
22. World Bank (2021). Climate Risk Country Profile: Uzbekistan.
23. Yuldashev, G., & Ismanov, A. J. (2020). Geochemistry of irrigated soils of the Fergana valley. Tashkent: Fan. (Farg‘ona vodiysi tuproq va landshaftlari uchun muhim).
24. Zhu, Z., Piao, S., Myneni, R. B., Huang, M., Zeng, Z., Canadell, J. G., ... & Mao, J. (2016). Greening of the Earth and its drivers. *Nature Climate Change*, 6(8), 791-795.

QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT OBYEKTлари ATROFIDA EKOLOGIK XAVF HUDUDLARINI GAT ASOSIDA RAYONLASHTIRISH

Aminov Xamza Xusanovich,

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, texnika fanlari falsafa doktori (PhD), professor.

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatida sanoat obyektlari atrofida ekologik xavf hududlarini aniqlash va rayonlashtirish uchun GAT hamda masofaviy zondlash ma'lumotlariga asoslangan yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqotda sanoat manbalari joylashuvi, shamol yo'nalishi, relyef, suv obyektlari, aholi punktlari, yashil qoplama holati va atmosfera indikatorlari yagona geoma'lumotlar modelida birlashtirildi. Ekologik xavf manba zichligi, tarqalish ehtimoli, landshaft sezgirligi va biologik javob belgilarining og'irlangan indeksleri orqali baholandi.

Natijalar sanoat manbalariga yaqin va shamol osti yo'nalishidagi maydonlarda ekologik xavf ko'proq to'planishini ko'rsatadi. Taklif etilgan rayonlashtirish modeli monitoring punktlarini joylashtirish, yashil bufer zonalarini rejalashtirish va hududiy boshqaruv qarorlarini asoslash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: GAT, ekologik xavf, rayonlashtirish, sanoat obyektlari, atmosfera ifloslanishi, masofaviy zondlash, yashil bufer zona, Qashqadaryo.

Аннотация. В статье разработан подход к выявлению и районированию зон экологического риска вокруг промышленных объектов Кашкадарьинской области на основе ГИС и данных дистанционного зондирования.

В единой геоинформационной модели объединены размещение промышленных источников, направление ветра, рельеф, водные объекты, населенные пункты, состояние зеленого покрова и атмосферные индикаторы. Экологический риск оценен через взвешенные показатели плотности источников, вероятности переноса загрязнителей, ландшафтной чувствительности и биологической реакции.

Полученные результаты показывают, что риск концентрируется вблизи промышленных источников и в подветренных направлениях. Предложенная модель полезна для размещения пунктов мониторинга, проектирования зеленых буферных зон и обоснования территориальных управленческих решений.

Ключевые слова: ГИС, экологический риск, районирование, промышленные объекты, загрязнение атмосферы, дистанционное зондирование, зеленая буферная зона, Кашкадарья.

Abstract. The article develops an approach for identifying and zoning ecological risk areas around industrial facilities in Kashkadarya Region using GIS and remote sensing data.

The model integrates the location of industrial sources, wind direction, relief, water bodies, settlements, vegetation condition and atmospheric indicators in a single geodatabase. Ecological risk is assessed through weighted indicators of source density, pollutant transfer probability, landscape sensitivity and biological response.

The findings show that ecological risk is concentrated near industrial sources and along downwind directions. The proposed zoning model is useful for locating monitoring points, planning green buffer zones and supporting territorial environmental management decisions.

Key words: GIS, ecological risk, zoning, industrial facilities, air pollution, remote sensing, green buffer zone, Kashkadarya.

1. KIRISH

Sanoat obyektlari atrofida ekologik xavfning shakllanishi ko'p omilli jarayondir. Ifloslantiruvchi manba quvvati, chiqarilayotgan moddaning fizik-kimyoviy xususiyati, shamol tezligi va yo'nalishi, relyef, suv obyektlariga yaqinlik, yashil qoplama holati hamda aholi punktlari joylashuvi xavf darajasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi [4, 10, 14].

An'anaviy ekologik nazorat ko'pincha alohida nuqtaviy o'lchovlarga tayanadi. Biroq sanoat ta'siri fazoviy jihatdan notekis tarqaladi: manbaga yaqin hududlar, shamol osti yo'nalishlari, pastqam maydonlar va suv tarmoqlariga yaqin zonlarda ifloslanish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Shu sababli GAT va masofaviy zondlash ma'lumotlarini birlashtirgan rayonlashtirish modeli amaliy ahamiyat kasb etadi [13, 15, 16].

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati sanoat obyektlari atrofida ekologik xavf hududlarini aniqlash va

rayonlashtirish uchun indikatorlar tizimi hamda GAT asosidagi baholash modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot obyekti Qashqadaryo viloyatining sanoatlashgan hududlari, xususan, neft-gaz, energetika, transport va qishloq xo'jaligi tizimlari tutashgan maydonlardan iborat. Bu hududlarda tabiiy qurg'oqchilik, shamol faolligi, suv resurslari cheklanganligi va antropogen yuklama birgalikda ekologik xavfni kuchaytirishi mumkin.

Ilmiy muammo shundan iboratki, sanoat manbalari ta'sirini faqat korxona yoki alohida ifloslantiruvchi modda bo'yicha baholash xavfning real fazoviy ko'rinishini to'liq ochib bermaydi. Xavf hududlarini aniqlashda manba zichligi, tarqalish yo'nalishi, landshaft sezgirligi va biologik javob belgilarini yagona GAT modelida birlashtirish zarur.

2. MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotda GAT asosidagi ko'p mezonli baholash yondashuvi


Ekologik xavfni GAT asosida baholash mezonlari

Mezon	Indikatorlar	Vazn	Ekologik mazmuni
M - manba yuklamasi	korxona va chiqindi manbalari zichligi	0,30	texnogen bosimning boshlang'ich darajasi
T - tarqalish ehtimoli	shamol yo'nalishi, relyef, masofa	0,20	ifloslantiruvchi moddalar ko'chish imkoniyati
L - landshaft sezgirligi	suv obyektlari, pastqamlik, qurg'oqchilik	0,20	muhitning ifloslanishga chidamliligi
B - biologik javob	NDVI, RECI, yashil qoplama uzluksizligi	0,15	o'simliklarning stressga reaksiyasi
A - ijtimoiy yaqinlik	aholi punkti va xo'jalik obyektlari	0,15	inson va xo'jalik tizimlariga xavf

qo'llanildi. Sanoat manbalari nuqtalari, shamol yo'nalishlari, relyef, suv obyektlari, aholi punktlari, yashil qoplama, transport yo'laklari va monitoring natijalari alohida qatlamlar sifatida shakllantirildi. Har bir qatlam ekologik xavfga qo'shadigan ulushiga qarab normalizatsiya qilindi.

Ekologik xavf indeksi quyidagi umumiy mantiqqa asoslandi: $ERI = 0,30M + 0,20T + 0,20L + 0,15B + 0,15A$. Bu yerda M – sanoat manbalari zichligi va emissiya yuklamasi, T – shamol orqali tarqalish ehtimoli, L – landshaft va suv-tuproq sezgirligi, B – yashil qoplama/bioindikator holati, A – aholi punktlari va xo'jalik obyektlariga yaqinlik. Indeks qiymati past, o'rta, yuqori va juda yuqori xavf zonalariga ajratildi.

Masofaviy zondlash natijalari vegetatsiya holatini aniqlashda, Sentinel-5P va atmosfera kuzatuv ma'lumotlari esa gazsimon birikmalar tarqalishini talqin qilishda metodik asos sifatida qo'llanildi. Natijalar dala kuzatuvlari va statistik ko'rsatkichlar bilan solishtirildi [17, 18, 19].



1-rasm. Ekologik xavf indeksida mezonlar ulushining diagrammali ko'rinishi

Diagramma ekologik xavf indeksida manba yuklamasi asosiy belgilovchi mezon ekanini ko'rsatadi. Tarqalish ehtimoli va landshaft sezgirligi ham xavfning hududiy to'planishida muhim o'rin tutadi. Biologik javob hamda ijtimoiy yaqinlik ko'rsatkichlari esa ekologik xavfni amaliy boshqaruv qarorlariga bog'lash imkonini beradi.

3. NATIJALAR VA MUHOKAMA


Dissertatsiya materiallarida sanoat manbalariga yaqin tajriba maydonlarida atmosfera ko'rsatkichlari nazorat hududlariga nisbatan yuqoriroq qayd etilgan. Bu farq, ayniqsa, gazsimon birikmalar va azot oksidlari bo'yicha biologik indikatorlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. NDVI, RECI va xlorofill ko'rsatkichlarining pasayishi atmosferadagi texnogen omillarni erta aniqlashda muhim signal bo'lishi mumkin.

Tajriba va nazorat hududlari o'rtasidagi farqlar GAT xaritalarida manbaga yaqinlik, shamol osti yo'nalishi va yashil qoplama holati bilan birgalikda ko'rilganda aniqroq namoyon bo'ladi. Bu sanoat ekologiyasida nuqtaviy o'lchovlardan fazoviy-

tizimli baholashga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

Sanoat manbalariga yaqin va nazorat hududlarida ayrim atmosfera indikatorlari

Indikator	Tajriba maydoni	Nazorat maydoni	Talqin
CO ₂	410	400	manba yaqinida fon qiymatdan yuqoriroq
CH ₄	2,8	1,2	neft-gaz faoliyatiga sezgir indikator
SO ₄ /sulfat birikmalari	0,13	0,05	aerazol va chang-gaz ta'sirini ko'rsatadi
NO _x	0,25	0,08	transport va sanoat yonish jarayonlari bilan bog'liq



2-rasm. Atmosfera indikatorlarining tajriba va nazorat maydonlari bo'yicha nisbiy farqlanishi

Nisbiy ko'rsatkichlar sanoat manbasiga yaqin hududlarda metan, sulfat birikmalari va azot oksidlari bo'yicha farq CO₂ ga nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu holat sanoat zonalarida monitoring faqat umumiy fon qiymatlarini emas, balki komponentlar kesimidagi nisbiy o'zgarishlarni ham qamrab olishi zarurligini asoslaydi.

GAT rayonlashtirish natijasida sanoat manbalariga bevosita yaqin hududlar, shamol yo'nalishi bo'yicha pastqam zonalar va yashil qoplama uzluksizligi buzilgan maydonlar birlamchi xavf hududlari sifatida ajratiladi. O'rta xavf zonalarida esa manbadan nisbatan uzoq, biroq transport yo'laklari, suv obyektlari yoki qishloq xo'jaligi maydonlariga yaqin joylashgan hududlardan iborat bo'lishi mumkin.

Taklif etilgan model ekologik xavfni faqat mavjud ifloslanish holati sifatida emas, balki kelgusida ifloslanish kuchayishi mumkin bo'lgan makon sifatida ham ko'rishga imkon beradi. Bu esa monitoring punktlari sonini rejalashtirish, yashil bufer zonalarini joylashtirish va korxonalar bo'yicha profilaktik

3-jadval.

Ekologik xavf zonalarining GAT asosidagi tavsifi

Zona	Asosiy belgilar	Monitoring tartibi	Boshqaruv chorasi
Past xavf	manbadan uzoq, yashil qoplama barqaror	yillik kuzatuv	profilaktik nazorat
O'rta xavf	transport yoki suv obyektlariga yaqin, mavsumiy stress	yarim yillik monitoring	yashil qoplamani saqlash
Yuqori xavf	manbaga yaqin yoki shamol osti yo'nalishida	choraklik monitoring	bufer zona va emissiya nazorati
Juda yuqori xavf	pastqam, manbaga juda yaqin, bioindikator stress kuchli	doimiy monitoring	tezkor ekologik cheklov va tiklash ishlari

4-jadval

GAT modeli asosida boshqaruv qarorlarini tanlash

Qaror yo'nalishi	Modeldan olinadigan ma'lumot	Kutiladigan natija
Monitoring punktlari	xavf konsentratsiyasi va shamol yo'nalishi	aniq joylashuv va samarali kuzatuv
Yashil bufer zona	manba-masofa-yashil qoplama aloqasi	chang-gaz oqimini kamaytirish
Laboratoriya nazorati	suv-tuproq sezgir hududlari	bioakkumulyatsiya xavfini erta aniqlash
Hududiy rejalashtirish	past/o'rta/yuqori xavf xaritalari	ekologik xavfsiz boshqaruv qarorlari

nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

GAT asosidagi rayonlashtirish sanoat hududlarida ekologik monitoringni maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Bunda monitoring punktlari tasodifiy emas, balki xavf to'planishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha joylashtiriladi. Natijada dala kuzatuvlari, laboratoriya tahlillari va masofaviy zondlash ma'lumotlari bir-birini to'ldiradi.

Modeldan korxona sanitariya-himoya zonalarini baholash, yangi yashil bufer polosalarini loyihalash, aholi punktlariga yaqin hududlarda profilaktik nazoratni kuchaytirish va biologik resurslarni muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

XULOSA

1. Qashqadaryo viloyati sanoat hududlarida ekologik xavf fa-

zoviy jihatdan notekis tarqaladi, uni baholashda manba yuklama-si, shamol yo'nalishi, landshaft sezgirligi, yashil qoplama holati va aholi punktlariga yaqinlik birgalikda hisobga olinishi lozim.

2. Taklif etilgan ERI modeli ekologik xavfni past, o'rta, yuqori va juda yuqori zonalarga ajratish orqali monitoringni maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

3. Sanoat manbalariga yaqin hududlarda atmosfera indika-torlari nazorat hududlariga nisbatan yuqoriroq bo'lishi GAT va masofaviy zondlash monitoringini dala kuzatuvlari bilan birlashtirish zarurligini asoslaydi.

4. Rayonlashtirish natijalari yashil bufer zonalarini joylashti-rish, emissiya nazoratini kuchaytirish, suv-tuproq namunalari-ni rejalashtirish va biologik resurslarni muhofaza qilishda amaliy qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-son Farmoni. -Toshkent, 2021.
3. WHO. Global Air Quality Guidelines: Particulate Matter (PM2.5 and PM10), Ozone, Nitrogen Dioxide, Sulfur Dioxide and Carbon Monoxide. -Geneva: World Health Organization, 2021.
4. IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report. -Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2023.
5. UNEP. Making Peace with Nature: A Scientific Blueprint to Tackle the Climate, Biodiversity and Pollution Emergencies. -Nairobi: UNEP, 2021.
6. Secretariat of the Convention on Biological Diversity. Kunming-Montreal Global Biodiversity Framework. -Montreal: CBD, 2022.
7. IPBES. Global Assessment Report on Biodiversity and Ecosystem Services. -Bonn: IPBES Secretariat, 2019.
8. Treshow M. Air Pollution and Plant Life. -Chichester: John Wiley & Sons, 1984. -486 p.
9. Rai P. K. Impacts of particulate matter pollution on plants: implications for environmental biomonitoring // Ecotoxicology and Environmental Safety. -2016. -Vol. 129. -P. 120-136.
10. Bonan G. Ecological Climatology: Concepts and Applications. -3rd ed. -Cambridge: Cambridge University Press, 2016. -742 p.
11. Burrough P. A., McDonnell R. A., Lloyd C. D. Principles of Geographical Information Systems. -3rd ed. -Oxford: Oxford University Press, 2015. -352 p.
12. Longley P. A., Goodchild M. F., Maguire D. J., Rhind D. W. Geographic Information Systems and Science. -4th ed. -Hoboken: Wiley, 2015. -496 p.
13. Lillesand T., Kiefer R. W., Chipman J. Remote Sensing and Image Interpretation. -7th ed. -Hoboken: Wiley, 2015. -736 p.
14. Jensen J. R. Remote Sensing of the Environment: An Earth Resource Perspective. -2nd ed. -Upper Saddle River: Pearson, 2007. -592 p.
15. European Space Agency. Sentinel-2 User Handbook. -Paris: ESA, 2015.
16. European Space Agency. Sentinel-5P Mission and TROPOMI User Documentation. -Paris: ESA, 2018.
17. U.S. Environmental Protection Agency. AERMOD Modeling System: User's Guide. -Research Triangle Park: EPA, 2022.
18. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslar to'g'risida statistik ma'lumotlar. -Qarshi, 2021-2024.
19. Aminov X. X. Atrof-muhit va biologik resurslarga sanoat korxonalari ta'sirining ilmiy asoslari: Qashqadaryo viloyati misolida. DSc dissertatsiyasi. -Toshkent, 2026.
20. Pulatov A., Abdurakhmonov I. GIS and remote sensing methods in environmental monitoring of arid regions. -Tashkent: Fan, 2020.

SIRDARYO HAVZASI KOLLEKTOR-ZOVUR TARMOQLARI SUV OQIMI DINAMIKASI, STATISTIK TAHLILI VA PROGNOZI (O'ZBEKISTON HUDUDI)

Gapporov Xayrillo Lutpillaevich,
mustaqil tadqiqotchi, q.f.n., dotsent,
Kulmatov Rashid Anorovich,
O'zMU professori, g.f.d.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning Sirdaryo havzasi hududidagi kollektor-zovur tarmoqlarida suv sarfi va mineralashuv darajasining 2010 – 2024-yillardagi o'zgarishlari statistik jihatdan baholandi hamda 2050-yilgacha bo'lgan prognoz ssenariylari ishlab chiqildi. Tadqiqot Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini qamrab olgan. Suv sarfi, yillik oqim hajmi va mineralashuv ko'rsatkichlarini tahlil qilishda Ordinary Least Squares (OLS) chiziqli regressiyasi, Mann-Kendall noparametrik trend testi, Sen slope baholash usuli va Pirson korrelyatsiya tahlili qo'llanildi. Natijalar Namangan ($\beta = -0.150 \text{ m}^3/\text{s/yil}$, $p < 0.001$), Sirdaryo ($\beta = -0.119 \text{ m}^3/\text{s/yil}$, $p = 0.002$) va Farg'ona ($\beta = -0.138 \text{ m}^3/\text{s/yil}$, $p = 0.028$) viloyatlarida suv sarfining statistik ahamiyatli kamayish tendensiyasini ko'rsatdi. Jizzax viloyatida kollektor-zovur tarmoqlarida mineralashuv darajasining yuqoriligi (o'rtacha 3.77 g/l) ikkilamchi tuproq sho'rlanishi xavfini kuchaytirayotganini ko'rsatdi. Prognoz natijalari ayrim hududlarda kelgusida kollektor-zovur suvlari hajmi sezilarli qisqarishi mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, Orol dengizi deltasiga suv yetkazib berish hajmida statistik ahamiyatli pasayish trendi aniqlandi. Olingan natijalar suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Sirdaryo havzasi, kollektor-zovur tarmoqlari, suv sarfi, mineralashuv, Mann-Kendall testi, chiziqli regressiya, prognoz, Orol dengizi, suv xo'jaligi, Markaziy Osiyo.

Аннотация. В данном исследовании статистически оценены изменения расхода воды и степени минерализации в коллекторно-дренажных сетях бассейна реки Сырдарья на территории Узбекистана за период 2010 – 2024 годов, а также разработаны прогнозные сценарии до 2050 года. Исследование охватывает Андижанскую, Наманганскую, Ферганскую, Ташкентскую, Джизакскую и Сырдарьинскую области. Для анализа показателей расхода воды, годового объема стока и минерализации применялись метод линейной регрессии по методу наименьших квадратов (OLS), непараметрический тест тренда Манна-Кендалла, оценка наклона по методу Сена и корреляционный анализ Пирсона. Результаты выявили статистически значимую тенденцию к снижению расхода воды в Наманганской ($\beta = -0,150 \text{ м}^3/\text{с/год}$, $p < 0,001$), Сырдарьинской ($\beta = -0,119 \text{ м}^3/\text{с/год}$, $p = 0,002$) и Ферганской ($\beta = -0,138 \text{ м}^3/\text{с/год}$, $p = 0,028$) областях. В Джизакской области высокий уровень минерализации коллекторно-дренажных вод (в среднем $3,77 \text{ г/л}$) свидетельствует об усилении риска вторичного засоления почв. Прогнозные результаты показали, что в ряде регионов объем коллекторно-дренажных вод в будущем может существенно сократиться. Кроме того, выявлена статистически значимая тенденция к снижению объема водоподачи в дельту Аральского моря. Полученные результаты имеют важное значение для принятия решений в области управления водными ресурсами, модернизации ирригационных систем и обеспечения экологической устойчивости.

Ключевые слова: бассейн Сырдарьи, коллекторно-дренажные сети, расход воды, минерализация, тест Манна-Кендалла, линейная регрессия, прогноз, Аральское море, водное хозяйство, Центральная Азия.

Abstract. This study statistically evaluates changes in water discharge and mineralization levels in the collector-drainage networks of the Syr Darya basin in Uzbekistan over the period 2010 – 2024, and develops forecast scenarios through 2050. The research covers the Andijan, Namangan, Fergana, Tashkent, Jizzakh, and Syrdarya regions. Ordinary Least Squares (OLS) linear regression, the Mann-Kendall non-parametric trend test, Sen's slope estimator, and Pearson correlation analysis were applied to analyze water discharge, annual runoff volume, and mineralization indicators. The results revealed statistically significant declining trends in water discharge in Namangan ($\beta = -0.150 \text{ m}^3/\text{s/year}$, $p < 0.001$), Syrdarya ($\beta = -0.119 \text{ m}^3/\text{s/year}$, $p = 0.002$), and Fergana ($\beta = -0.138 \text{ m}^3/\text{s/year}$, $p = 0.028$) regions. In Jizzakh region, the elevated mineralization level of collector-drainage waters (mean 3.77 g/L) indicates an increasing risk of secondary soil salinization. Forecast results suggest that collector-drainage water volumes in certain areas may decline considerably in the future. Furthermore, a statistically significant downward trend was identified in the volume of water delivered to the Aral Sea delta. The findings are of considerable importance for decision-making in the areas of water resource management, irrigation system modernization, and ensuring ecological sustainability.

Keywords: Syr Darya basin, collector-drainage networks, water discharge, mineralization, Mann-Kendall test, linear regression, forecast, Aral Sea, water management, Central Asia.

1. KIRISH

Sirdaryo daryosi Markaziy Osiyodagi eng muhim transchegaraviy suv tizimlaridan biri hisoblanadi. Daryo Tyan-Shan tog'laridagi Norin va Qoradaryo irmoqlarining qo'shilishidan

hosil bo'ladi va umumiy uzunligi taxminan 2212 km. ni tashkil etadi [1]. Ushbu havza mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, 30 milliondan ortiq aholini ichimlik va sug'orish suvi bilan ta'minlaydi [2].

O'zbekiston sharoitida kollektor-zovur tarmoqlari sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini saqlash, yer osti suvlari sathini tartibga solish va ortiqcha minerallashgan suvlarni chiqarib yuborishda muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortishi va suv resurslariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi havzaning gidrologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumotlariga ko'ra, XXI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoda o'rtacha harorat 1.5–2.5°C ga oshishi kutilmoqda [3,4]. Bu esa muzliklarning qisqarishi, bug'lanishning ortishi va suv resurslari tanqisligining kuchayishiga olib kelishi mumkin [5].

Ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyo suv resurslarining umumiy gidrologik holati va sug'orish tizimlari tahlil qilingan bo'lsa-da [6-9], O'zbekistonning Sirdaryo havzasida kollektor-zovur tarmoqlarining uzoq muddatli statistik tahlili, minerallashuv dinamikasi va prognoz baholash ishlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Orol dengizi havzasidagi kollektor-zovur suvlari (KZS) mintaqa uchun muhim ekologik va suv-xo'jalik muammosini tashkil etadi. Tadqiqotlariga ko'ra, intensiv yer o'zlashtirish davrida mintakaning umumiy suv resurslari (110–115 km³) ning 39–40 km³ drenaj suvlari sifatida shakllangan bo'lsa, so'nggi yillarda bu ko'rsatkich 32–34 km³ gacha kamaygan [10]. Ma'lumotlariga ko'ra, umumiy KZS hajmining taxminan 51%i (18–20 km³) daryolarga quyilib, ularga 110–120 mln. tonna tuz tushishiga olib kelishi aniqlangan. Yana 36% tabiiy pasttekisliklarga tushishi va faqatgina 13% takroriy sug'orishga ishlatilishi qayd etilgan. Sirdaryo havzasi bo'yicha, xususan, O'zbekiston hududidan sug'orishga ishlatilgan suv hajmining 32,5% (taxminan 18,4 km³) zovur suvi sifatida qaytadi [10].

Markaziy Osiyo kollektor-zovur oqimi va sug'orishda foydalanish imkoniyatlarini baholashga bag'ishlangan monografiyada 1990 – 1999-yillar uchun jami drenaj hajmi yiliga 28–33,5 km³ ni, 2000 – 2009-yillar uchun esa o'rtacha 30 km³/yil ni tashkil etgani qayd etilgan [11].

O'tkazilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyo sug'oriladigan maydonlarida KZSning sifat tarkibini batafsil tavsiflaydi. Tadqiqotchilar KZSning minerallashuvi daryo suvinikidan ancha yuqori ekanligini – Sirdaryo havzasida 1,7–4,2 g/l oralig'ida, Amudaryo havzasida esa 3,5–4,2 g/l gacha kuzatilishini aniqlagan [12].

Mavjud ilmiy ishlar asosan umumiy gidrologik jarayonlarni yoritishga qaratilgan bo'lib, viloyatlar kesimidagi suv sarfi va minerallashuvning uzoq muddatli o'zgarishlarini kompleks baholashga oid tadqiqotlar yetarli emas. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot Sirdaryo havzasidagi kollektor-zovur tarmoqlarining hududiy va vaqtinchalik o'zgarishlarini statistik jihatdan baholashga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 2010 – 2024-yillar davomida Sirdaryo havzasidagi kollektor-zovur tarmoqlari suv sarfi va minerallashuv darajasi dinamikasini tahlil qilish;
- OLS regressiyasi va Mann-Kendall testi asosida gidrologik trendlarni baholash;
- Suv sarfi va minerallashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash;

– 2050-yilgacha bo'lgan gidrologik prognozlarni ishlab chiqish.

2. TADQIQOT OBYEKTI

Tadqiqot O'zbekistonning Sirdaryo havzasiga kiruvchi Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini qamrab oladi. Ushbu hududlar irrigatsiya darajasi, iqlim sharoiti va gidrologik xususiyatlari bo'yicha o'zaro farqlanadi.

Jami 30 dan ortiq asosiy kollektor-zovur tarmoqlari bo'yicha suv sarfi, yillik oqim hajmi, minerallashuv darajasi va tuz yuklamasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

3. MATERIALLAR VA METODLAR

3.1. Ma'lumotlar bazasi

Asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Suv xo'jaligi vazirligining 2010 – 2025-yillarga oid asosiy kollektorlar va zovur suvlarining sifat tarkibi monitoringi materiallari asosida shakllantirildi. Statistik tahlillarda faqat to'liq kuzatuv qatoriga ega bo'lgan 2010 – 2024-yillar ma'lumotlari (n = 15) qo'llanildi. Viloyatlar bo'yicha o'rtacha suv sarfi alohida kollektorlar ko'rsatkichlarining arifmetik o'rtachasi sifatida hisoblandi. Minerallashuv darajasi esa oqim-vaznli o'rtacha orqali baholandi:

$$M(\text{viloyat}) = \Sigma(Q_i \times M_i) / \Sigma Q_i$$

Bu yerda: Q_i — kollektor suv sarfi; M_i — minerallashuv darajasi.

Tuz yuklamasi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$T = V \times M$$

Bu yerda: T — tuz yuklamasi; V — yillik oqim hajmi; M — minerallashuv darajasi.

3.2. Statistik tahlil metodlari

Tadqiqotda tasviriy statistika (Descriptive Statistics), chiziqli regressiya, Mann-Kendall trend testi, Sen slope baholash usuli va Pirson korrelyatsiya tahlili qo'llanildi.

Tasviriy statistika – o'rtacha arifmetik ($\bar{x}$), standart og'ish (σ), o'zgaruvchanlik koeffitsienti ($CV = \sigma/\bar{x} \times 100\%$), minimum va maksimum qiymatlar, kvartillararo oraliq (IQR) tahlili bajarildi.

OLS chiziqli regressiya modeli quyidagi tenglama asosida baholandi:

$$Y_t = \alpha + \beta t + \epsilon_t, \text{ bunda } \beta - \text{vaqt bo'yicha o'zgarish koeffitsienti.}$$

Model natijalarini interpretatsiya qilishdan oldin qoldiqlar normalligi Shapiro-Wilk testi orqali tekshirildi. OLS modeli yillik gidrologik qatorlarning taxminan chiziqli xususiyatga ega ekanligi sababli tanlandi.

Mann-Kendall noparametrik trend testi [13–15] gidrologik ma'lumotlarda normal taqsimot talab qilinmaganligi va kichik tanlanmalar uchun barqaror hisoblanganligi sababli qo'llanildi. $S = \Sigma_{i < j} \text{sgn}(x_j - x_i)$ statistikasi orqali monoton trendning mavjudligi aniqlandi. Sen slop estimatori $\beta_s = \text{median}[(x_j - x_i)/(j - i)]$ trend kattaligini ochiqlashda ishlatildi [16].

Pirson korrelyatsiya tahlili: $r_{xy} = \Sigma(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) / \sqrt{[\Sigma(x_i - \bar{x})^2 \Sigma(y_i - \bar{y})^2]}$. Viloyatlararo va suv sarfi-minerallashuv juftlari o'rtasidagi chiziqli bog'liqlar aniqlandi.

Prognozlash jarayonida 2025 – 2050-yillar uchun 95% ishonchli oraliqli chiziqli modellar ishlatildi. $\hat{Y}_t = \hat{\alpha} + \hat{\beta}t$ ($t = 2025-2050$); $\hat{Y}_t \pm t(\alpha/2, n-2) \times s\sqrt{[1 + 1/n + (t-\bar{t})^2/\Sigma(t_i-\bar{t})^2]}$.

Barcha statistik tahlillar Python 3.11 muhitida SciPy 1.11, NumPy 1.26 va Matplotlib 3.8 paketlari orqali amalga oshirildi.

4. NATIJALAR

4.1. Suv sarfi dinamikasi

2010 – 2024-yillar davomida tahlil qilingan hududlarda suv sarfi dinamikasi turlicha tendensiyalarni namoyon qildi (1,2-rasm). Statistik tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Namangan, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida statistik ahamiyatli kamayish trendlari kuzatildi. Xususan, Namangan viloyatida eng yuqori manfiy trend qayd etildi ($\beta = -0.150 \text{ m}^3/\text{s/yil}$, $R^2 = 0.757$, $p < 0.001$). Bu holat yuqori oqimda suv miqdorining kamayishi, havo harorati oshishi hisobiga bug'lanishning kuchayishi va sug'orish tizimlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2050-yilga prognoz $5.78 \text{ m}^3/\text{s}$, 2010-yilga nisbatan 51%ga kamayishi kutilmoqda.

Namangan viloyati bo'yicha bunday kamayishni bir nechta omil bilan tushuntirish mumkin. Eng asosiy sabab – Norin daryosi yuqori oqimidagi muzlik zaxiralarning tizimli kamayishidir, Tyan-Shan muzliklari 1961 – 2012-yillar mobaynida massasi-ning 27%ni va maydonining 18% ini yo'qotgan [17], so'nggi kuzatuvlarga ko'ra maydon kamayish sur'ati yiliga $0,87\text{--}1,49\%$ ga tezlashgan [18]. Bu qisqa muddatda oqimni vaqtincha oshirsa-

da, muzlik zaxiralari tugashi bilan daryo oqimi noaniqligi ortadi. Ikkinchi omil — sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy sug'orish usullarida suv o'simliklar tomonidan to'liqroq o'zlashtiriladi, drenaj tarmog'iga tushadigan qaytim suvi esa kamayadi [19, 20]. Uchinchi omil — iqlim o'zgarishi, Markaziy Osiyoda 1979 – 2011-yillar mobaynida o'rtacha yillik harorat har o'n yilda $0,32^\circ\text{C}$ sur'atda oshgan, bu global o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori [21]. Uzoq muddatli tendensiya hisobida umumiy isish $1,0\text{--}1,5^\circ\text{C}$ ga baholanadi [22]. Iqlim isishi bug'lanishni kuchaytirib, drenajga chiqadigan suv hajmini yanada kamaytiradi.


Sirdaryo viloyatida ham suv sarfining ishonchli kamayishi kuzatildi ($\beta = -0.119 \text{ m}^3/\text{s/yil}$, $p = 0.002$). Prognoz natijalariga ko'ra, 2050-yilga kelib suv sarfi kritik darajada qisqarishi mumkin. Bu esa kollektor-zovur tizimlari faoliyatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2050-yilga prognoz $0.32 \text{ m}^3/\text{s}$, 2010-yilga nisbatan 93%ga kamayishi kutilmoqda.

Sirdaryo viloyatidagi prognozni uning gidrologik joylashuvi bilan tushuntirish mumkin. Viloyat o'rta oqimda joylashgan.

1-jadval.

Kollektor suv sarfi bo'yicha tasviriy statistika ma'lumotlari, OLS va Sen trend va 2050-yilga prognoz ko'rsatkichlari (2010 – 2024). * $p < 0.05$, ** $p < 0.01$, *** $p < 0.001$.

Viloyat	O'rtacha (m^3/s)	OLS β ($\text{m}^3/\text{s/yil}$)	Sen β ($\text{m}^3/\text{s/yil}$)	R^2	p-qiymat	CV (%)	2050 Prognoz (m^3/s)
Andijon	14.51	+0.142	+0.138	0.189	0.106	9.8	19.2
Jizzax	3.52	+0.080	+0.077	0.496	0.003 **	14.0	6.2
Namangan	10.73	-0.150	-0.148	0.757	<0.001 ***	6.9	5.8
Sirdaryo	4.24	-0.119	-0.121	0.544	0.002 **	16.4	0.3
Toshkent	3.20	+0.035	+0.033	0.360	0.018 *	8.0	4.4
Farg'ona	9.25	-0.138	-0.141	0.319	0.028 *	11.4	4.7



1-rasm. Viloyatlar kollektorlari o'rtacha suv sarfi dinamikasi va OLS trend chiziqlari (2010 – 2024).

Yuqori oqimda joylashgan viloyatlar sug'orishga suv olganidan so'ng qolgan suv hajmigina Sirdaryoga tushadi. Shu sababli yuqoridagi suv sarfi kamaysa, Sirdaryo viloyatidagi kollektorlarga kiradigan suv ham proporsional ravishda kamayadi – kaskad effekti kuzatiladi [2, 23]. Qo'shimcha omil sifatida ushbu hududda tuproqning tabiiy drenaji past bo'lib, tarixan oshiqcha sug'orish normalari belgilangan, normativ normalarga o'tish drenaj hajmini tezda kamaytiradi.

Farg'ona viloyatidagi manfiy trendlar ($\beta = -0.138$, $p = 0.028$, $R^2 = 0.319$) vodiylar hududida suv iste'molining ortishi va gidrologik noustuvorlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Farg'ona viloyatida trend aniq kuzatilsa-da, $R^2 = 0.319$ ko'rsatkichi uning bir emas, bir nechta omil ta'siri ostida shakllanishini bildiradi. Birinchidan, vodiylar sug'orilgan maydonlarning kengayishi sug'orishga sarflanadigan suv hajmini oshirdi va bu bir vaqtda daryoga qaytadigan drenaj suvini nisbatan kamaytiradi. Ikkinchidan, kanallarni betonlash va tomchilatib sug'orishga bosqichma-bosqich o'tish drenaj suvi miqdorini pasaytirmoqda [19]. Uchinchidan, yog'ingarchilik miqdorining yildan-yilga o'zgaruvchanligi trendga ta'sir ko'rsatadi [3,4]. Natijada Farg'onadagi trend sug'orish rejimi va iqlim omillarining bir xil og'irlikka ega bo'lmagan birgalikdagi ta'sirini aks ettiradi.

Jizzax viloyatida aksincha, suv sarfining o'sish tendensiyasi kuzatildi ($\beta = +0.080$ m³/s/yil, $p = 0.003$). Mazkur tendensiya yer osti suvlari sathining ko'tarilishi va drenaj oqimlarining ko'payishi bilan izohlanishi mumkin. Toshkent viloyatida ham ishonchli o'sish tendensiyasi ($\beta = +0.035$, $p = 0.018$, $R^2 = 0.360$) kuzatildi.

Jizzax viloyatidagi o'sish tendensiyasi ko'proq hududning meliorativ xususiyatlari bilan bog'liq. Jizzax tekisligi tabiatan sho'rlanishga moyil va tabiiy drenaji past. Sho'rlangan yerlarni tuzsizlantirish uchun jadal yuvish suvlari beriladi, bu zovurlarga tushadigan suv hajmini oshiradi [24,25]. Bundan tashqari, keyingi o'n yilliklarda Jizzax dashtida yangi irrigatsiya obyektlari ishga tushirilishi eski drenaj tarmoqlariga yuk tushirdi va ularning ish hajmini tizimli ravishda ko'paytirdi [24,25].

Toshkent viloyatidagi o'sish ($\beta = +0.035$ m³/s/yil) esa boshqacha xususiyatga ega: bu yerda shahar va sanoat oqova suvlarining kollektor tarmoqlariga qo'shilishi va Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimi kengayishi asosiy rol o'ynaydi.

Andijon viloyatida o'rtacha suv sarfi 14.51 m³/s, chiziqli regressiya $\beta = +0.142$ m³/s/yil trend ko'rsatdi, lekin bu statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p = 0.106$, $R^2 = 0.189$). 2022 – 2024-yillardagi yuqori ko'rsatkichlar (17.85 va 17.47 m³/s) Farg'ona vodiysida normadan oshiq yog'ingarchilik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, Andijon viloyatida trendning statistik jihatdan aniqlanmasligi xo'jalik faoliyatiga kuchliroq bog'liq. Sababi Norin va Qoradaryodan oqim Andijon va Uchqo'rg'on suv omborlari orqali barqarorlashtiriladi, shu bois kollektor sarfi tabiiy oqim tebranishlariga emas, balki xo'jalik faoliyatiga kuchliroq bog'liq [2].


4.2. Minerallashuv tahlili

Kollektor-zovur suvlari minerallashuv darajalari hududlar kesimida sezilarli farq qildi (3-rasm, 2-jadval).

Eng yuqori minerallashuv Jizzax viloyatida qayd etildi – o'rtacha 3.77 g/l (2.81–4.31 g/l oralig'ida), bu irrigatsiya suvlari uchun tavsiya etilgan me'yorlardan ancha yuqori hisoblanadi.

Jizzax viloyatida minerallashuvning o'sish tendensiyasi (+0.040 g/l/yil) kelajakda ikkilamchi tuproq sho'rlanishi xavfining kuchayishini ko'rsatadi. 2050-yilga kelib, minerallashuv 5.5 g/l dan oshishini ko'rsatmoqda, natijada tuproqning ikkilamchi sho'rlanishi kuchayib, qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holati yomonlashishi ehtimoli ortishi mumkin [26].

Jizzax viloyatidagi minerallashuvning tizimli o'sishi (+0.040 g/l/yil) uchta o'zaro bog'liq jarayonning birgalikdagi natijasidir. Birinchidan, sho'rlangan yerlarni tuzsizlantirish uchun ko'proq yuvish suvi beriladi, tuproqdagi tuzlar erib kollektorga yuqori konsentratsiyali suv olib chiqadi [24, 25]. Ikkinchidan, aridlashuv kuchayishi bilan ochiq kanallardan bug'lanish ortadi, suv kamayadi, ammo tuzlar qoladi, demak konsentratsiya oshadi [6]. Uchinchidan, drenaj suvini mahalliy sug'orishga qayta ishlatish ko'paygan sari tuzlangan suv tuproq orqali yana o'tib, yanada to'yingan holda zovurga qaytadi [25, 26].



■ 2-rasm. Viloyatlar kesimida kollektor-zovur suvlari hajmining o'zgarishi (2010 – 2024).

Kollektor-zovur suvlari minerallashuvi (g/l), o'rtacha va trend (↑ o'sish, ↓ kamayish) ma'lumotlari

Viloyat	2010	2013	2016	2019	2022	2024	O'rtacha	Trend
Andijon	0.844	1.018	0.834	0.792	0.786	0.650	0.872	↓ -0.016
Jizzax	3.399	3.674	4.005	3.270	3.815	4.200	3.772	↑ +0.040
Namangan	0.785	0.741	0.917	0.969	0.901	0.639	0.838	↑ +0.010
Sirdaryo	2.544	2.617	2.629	2.272	2.278	2.225	2.445	↓ -0.021
Toshkent	1.203	1.250	1.447	1.352	0.954	1.056	1.247	↓ -0.010
Farg'ona	1.456	1.345	1.527	1.514	1.540	1.457	1.497	↑ +0.005


Andijon va Namangan viloyatlarida minerallashuv ko'rsatkichlari nisbatan barqaror (0.64–1.04 g/l) saqlangan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida o'rtacha minerallashuv – 2.45 g/l, yuqori bo'lishiga qaramasdan, ma'lum darajada pasayish tendensiyasi (–0.021 g/l/yil) kuzatildi.

Andijon va Namangan viloyatlarida minerallashuv darajasining (0.64–1.04 g/l) barqaror saqlanganligi, bu viloyatlar bevosita daryoning yuqori oqimida joylashganligi, kollektor-zovur tarmog'i yer osti suvlari sathini nazoratda ushlab, kapillyar tuzlanishning oldini olishi, hududdagi nisbatan yuqori o'simlik qoplami va biologik jarayonlar suv-tuz balansini tezroq tiklashga imkon berishi bilan izohlanadi.


Sirdaryo viloyatida minerallashuv yuqori (2.45 g/l) — ammo trend manfiy (–0.021 g/l/yil). Bu zohiriy ziddiyatning kaliti suyultirish effektividadir: viloyat o'rta oqimida joylashganligi sababli yuqoridan oqib keladigan nisbatan kam tuzli Sirdaryo suvi kollektor suvlarini suyultiradi. Tuproq sho'rlanishini nazoratda ushlab maqsadida yuvish me'yorlarini optimallashtirish ishlari ham tuproqdan eriydigan tuz miqdorini cheklaydi [2].

4.3. Korrelyatsiya tahlili

Viloyatlararo suv sarfi bo'yicha Pirson korrelyatsiya tahlili Andijon – Farg'ona ($r = 0.41$) va Andijon – Namangan ($r = 0.32$) hududlari o'rtasida musbat gidrologik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi (4,5-rasm). Bu hududlarda umumiy iqlim va irrigatsiya omillari ta'siri ustun ekanligini anglatadi.



3-rasm. Kollektor-zovur suvlari minerallashuv darajasi xaritasi (g/l), 2010 – 2024.

4-rasm. Pirson korrelyatsiya matritsalarini: suv sarfi va minerallashuv ($n = 15$, 2010 – 2024).


Jizzax viloyati boshqa viloyatlar bilan zaif va salbiy korrelyatsiya ($|r| < 0.25$) namoyon etib, mustaqil gidrologik xususiyatlarni namoyon qildi. Jizzax viloyatida suv sarfi va minerallashuv o'rtasida manfiy korrelyatsiya ($r = -0.56$, $p < 0.05$) aniqlandi, bu yuqori suv sarfi sharoitida suyultirish effekti ustunligini ko'rsatadi, ya'ni suv sarfi oshganda kollektorga tuproq orqali yuvilib tushgan kam tuzli suv tushadi, natijada umumiy konsentratsiya pasayadi. Namangan viloyatida esa kuchli konsentratsiya effekti kuzatildi ($r = -0.73$, $p < 0.01$), ya'ni suv

sarfi kamayganda kollektor chuqurroq tuzli tuproq qatlamlardan suv ola boshlaydi, natijada minerallashuv keskin oshadi (4-rasm)


Olingan natijalar Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi ta'sirida suv resurslari barqarorligi pasayib borayotganini ko'rsatuvchi ilmiy tadqiqotlar bilan muvofiq keladi.

5. PROGNOZ

Chiziqli regressiya modeli asosida 2025 – 2050-yillar uchun 95% ishonchli oraliq bilan prognoz tuzildi (6-rasm). Tuzilgan prognoz modellari hududlar kesimida sezilarli farqlarni namoyon



5-rasm. Suv sarfi va minerallashuv orasidagi bog'liqlik diagrammalari.



6-rasm. Kollektor-zovur suvlari sarfi 2050-yilgacha prognoz (95% ishonchli oraliq bilan).

qildi. Ishonchli oraliqlar 2030-yildan keyin sezilarli kengayadi, bu chiziqli prognoz modelining chiziqsiz o'zgarish va chegara effektlarini to'liq aks ettira olmasligidan kelib chiqadi.

Sirdaryo va uning irmoqlari uchun tuzilgan mavsumiy regressiya modellarida 2030-yildan keyingi noaniqlik oraliqlarining kengayishi barcha Markaziy Osiyo havzalari uchun umumiy xususiyat sanaladi [27]. Muzlik zaxiralariga bog'liq gidrologik prognozlarda 2040-yildan keyingi vaqt gorizonti uchun noaniqlik doirasining keskin ortishini aniqlangan [5]. Bu holat prognoz modelining kamchiligi emas, balki iqlim tizimining o'zidagi obyektiv noaniqlikni aks ettiradi.

Sirdaryo viloyatida suv sarfi 2050-yilga kelib 2010-yilga nisbatan 93% qisqarishi, ya'ni $0.32 \text{ m}^3/\text{s}$ gacha (95% CI: 0.00–1.85) kamayishi mumkin. Namangan – $5.78 \text{ m}^3/\text{s}$ (–51%), Farg'ona – $4.70 \text{ m}^3/\text{s}$ (–51%) viloyatlarida ham sezilarli pasayish tendensiyasi prognoz qilinmoqda. Aksincha, Jizzax – $6.17 \text{ m}^3/\text{s}$ (+91%) viloyatida suv sarfining o'sishi saqlanib qolishi mumkin. Biroq bu ijobiy gidrologik holat emas, balki yer osti suvlari bilan bog'liq muammolar kuchayishini anglatishi mumkin. Bu adabiyotlarda tavsiflangan gidrologik dinamikaga muvofiq keladi [24].

Jahon bankining O'zbekiston iqlim va taraqqiyot hisobotida Sirdaryo havzasida 2°C isish ssenariyida ham suv resurslari 2050-yilga qadar 5% ga kamayishi prognoz qilingan, ayrim irmoqlar bo'yicha 30–40% li kamayish kutilmoqda [28]. Qirg'iziston transchegaraviy daryolari uchun SSP4.5 va SSP8.5 ssenariylarida 2050 – 2080-yillar uchun oqim 15–50% ga kamayishini prognoz qilingan [29]. Sirdaryo havzasi bo'yicha 51% li prognoz ushbu diapazonga mos keladi.

2030-yildan keyin ishonchli oraliqlarning kengayishi uzoq muddatli gidrologik prognozlarda noaniqlik darajasi ortib borishini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo irmoqlari uchun MODIS qor qoplamasi ma'lumotlari asosida mavsumiy prognozning 2030-yildan keyin ishonchligi pasayishini ko'rsatdi. Bunga asosiy sabab qor yog'ish rejimining yildan-yilga keskin o'zgaruvchanligidir [30].

6. OROL DENGIZIGA SUV QUYILISHI

Sirdaryo deltasiga 2010 – 2023-yillar vegetatsiya davrida

(aprel-sentyabr) berilgan suv hajmlarini (3-jadval) hamda dinamikasi o'rganildi va prognozlashtirildi (7-rasm).

Orol dengiziga suv berilishi prognozi global iqlim o'zgarishi tadqiqotlari kontekstida muhim ahamiyatga ega. Sirdaryo deltasiga berilgan suv hajmining 1960 – 2000-yillarda $50 \text{ km}^3/\text{yil}$ dan juda past ko'rsatkichlargacha pasayishi tarixan tasdiqlangan [31, 32]. Tadqiqotlarga ko'ra, 2023 – 2050-yillarda Orol dengizi havzasiga berilgan suv hajmi yana 20–30% ga kamayishi kutilmoqda [33]. Shu sababli Sirdaryo deltasiga berilgan suv hajmining mazkur tadqiqotda aniqlangan kamayish tendensiyasi nafaqat gidrologik, balki ekologik va mintaqaviy siyosiy ahamiyatga ham ega.

Tahlil natijalari Sirdaryo deltasiga suv yetkazib berish hajmlarida keskin yillararo o'zgaruvchanlik mavjudligini ko'rsatdi.

2010 ($4,260 \text{ mln.m}^3$, rejaning 174%) va 2017 ($4,224 \text{ mln.m}^3$, 310%) yillarda yuqori suv ta'minoti kuzatilgan bo'lsa, 2020 – 2021-yillarda (mos ravishda 484 mln.m^3 (46%) va 321 mln.m^3) tarixiy minimum qayd etildi. Xususan, 2021-yilda rejalashtirilgan suv hajmining faqat 25.4% qismi amalga oshirilgan.

2010 – 2023-yillar davomida Orol dengiziga Sirdaryo orqali berilgan suv miqdori yildan-yilga juda keskin o'zgargan. Bunday noaniqlikning asosiy sabablaridan biri suv resurslarini irrigatsiya va gidroenergetika maqsadlarida ishlatilishi bilan bog'liq [34]. 2020-2021-yillardagi kam qor, tog' irmoqlari zaxirasining kritik darajaga tushishi va transchegaraviy muvofiqqlashtirish bo'shliqlari birgalikda yuzaga keltirdi [2, 34].

Mann-Kendall testi natijalari umumiy manfiy trendning statistik ahamiyatli ekanligini tasdiqladi ($p = 0.008$).


Vegetatsiyadan tashqari davrda ham shunday tendensiya kuzatildi: 2021-2022-yillar mavsumida 202 mln.m^3 (rejaning 18.1%) – kuzatuv davridagi eng past ko'rsatkich. Chiziqli prognoz 2050-yilga keskin kamayishni ko'rsatmoqda, bu esa adabiyotlarda tavsiflangan ekologik bosimning ortishiga olib kelishi mumkin [31, 32].

Orol dengiziga suv berilishining uzoq muddatli kamayishi yirik suv omborlari gidroenergetika rejimiga o'tkazilishi, yuqori oqim viloyatlarida sug'orish undirmasining ortishi, iqlim


3-jadval.

Sirdaryo deltasiga 2010 – 2023-yillar vegetatsiya davrida suv berilishi hajmlari

Yil	Apr	May	Iyun	Iyul	Aug	Sep	Reja mln.m^3	Fakt mln.m^3	%
2010	682	806	728	822	530	692	2444	4260	174.3
2011	928	335	139	68	50	53	1803	1573	87.3
2012	816	386	140	56	254	402	2894	2054	71.0
2013	570	404	167	64	52	217	2422	1474	60.9
2014	247	621	288	233	211	399	1900	1999	105.2
2015	461	268	120	59	78	245	2459	1231	50.1
2016	70	51	44	214	183	638	1804	1200	66.5
2017	790	945	723	613	549	604	1363	4224	309.9
2018	360	247	82	45	16	63	1752	813	46.4
2019	145	195	93	69	90	131	1409	723	51.3
2020	134	113	70	75	26	66	1053	484	46.0
2021	134	116	11	23	17	20	1262	321	25.4
2022	130	128	44	50	70	0	815	422	51.8
2023	300	60	26	20	11	17	996	434	43.6



7-рasm. Орол денгизига сув берилиши динамикasi va 2050-йилгача прогноз.



8-рasm. Integral statistik tahlil: (a) suv sarfi taqsimoti, (b) tuz yuklamasi, (c) box-plot, (d) CV tahlili.

o'zgarishi natijasida suv resurslarining bug'lanishi kuchayishi va yerga shimilishning ortishi bilan izohlanadi [6, 34].

Ushbu holat Orolbo'yi hududida ekologik muammolar saqlanib qolayotganini hamda mintaqada suv taqsimotini yanada samarali tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

7. INTEGRAL STATISTIK TAHLIL

O'zgaruvchanlik koeffitsienti tahlili Sirdaryo viloyatida suv sarfi CV = 16.4% – eng yuqori beqarorlikni ko'rsatdi. Jizzax viloyatida minerallashuv CV = 18.3% – suv sifati beqarorligi yuqori. O'zbekistonning Sirdaryo havzasi bo'yicha sarflagan suv o'rtacha 9.83 km³ (2010 – 2024), statistik jihatdan ahamiyatli trend aniqlanmadi ($\beta = -0.025$ km³/yil, $p = 0.38$). Jami havza bo'yicha tuz yuklamasi 2010-yildagi 1983 ming tn.dan 2024-yilda 1885 ming tn.ga (-4.9%) tushdi (8-rasm).

8. MUHOKAMA

Прокаливание осуществляли при 450°C в течение 4 ч для формирования оксидной структуры $\text{Fe}_2\text{O}_3\text{--Cr}_2\text{O}_3$. Прокалённый порошок смешивали с 10 % масс. псевдобёмитом и водой до получения пластичной массы и формовали цилиндрические гранулы диаметром 4–5 мм методом экструзии. Сформированные гранулы сушили при 120°C и подвергали окончательному прокаливанию при 450°C . Перед каталитическими испытаниями образцы восстанавливали в газовой смеси 10 % H_2/N_2 при 380°C в течение 6 ч, что обеспечивало частичное восстановление Fe_2O_3 до Fe_3O_4 — активной фазы катализатора.

3. РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Переработка отработанного железохромового катализатора СТК позволила получить материал с однородной структурой и контролируемой текстурой. Предварительная


термическая регенерация при 500°C удаляла углеродистые и сернистые примеси, а последующая обработка 30 % HNO_3 обеспечивала извлечение 88–91 % железа и нейтрализацию кислотных остатков (pH 6,5–7,0).

Метод совместного соосаждения гидроксидов $\text{Fe}(\text{OH})_3$ и $\text{Cr}(\text{OH})_3$ при $\text{Fe}:\text{Cr} = 9:1$ сформировал однородный прекурсор. Прокаливание при 450°C обеспечило образование оксидной структуры $\text{Fe}_2\text{O}_3\text{--Cr}_2\text{O}_3$ с нанокристаллической структурой. Добавление 10 % псевдобёмита повысило механическую прочность гранул.

Восстановление в 10 % H_2/N_2 при 380°C привело к частичному превращению Fe_2O_3 в Fe_3O_4 — активную фазу катализатора. Анализы XRD подтвердили фазовую чистоту и однородность структуры. Каталитические испытания показали высокую активность и селективность, что подтверждает готовность материала к применению в среднетемпературной конверсии CO водяным паром [16].

Рентгенофазовый анализ повторно синтезированного железоксидного среднетемпературного катализатора выполнен на дифрактометре SHIMADZU XRD-6100 с использованием излучения $\text{CuK}\alpha$ ($\lambda = 1,5406 \text{ \AA}$). Съём данных осуществлялся в геометрии θ – 2θ в диапазоне углов $2\theta = 5\text{--}70^\circ$ при напряжении рентгеновской трубки 40 кВ и токе 30 мА. Скорость сканирования составляла $2^\circ/\text{мин}$, шаг регистрации — $0,05^\circ$, что обеспечивает корректную идентификацию кристаллических фаз. (Рис.1)

Полученная дифрактограмма характеризуется наличием выраженных дифракционных максимумов, указывающих на преимущественно кристаллическое состояние повторно синтезированного материала. Наиболее интенсивный дифракционный пик наблюдается при $2\theta = 45,12^\circ$ ($d = 2,008 \text{ \AA}$) и принят за 100 % относительной интенсивности. Также зафиксированы интенсивные рефлексы при $2\theta = 38,17^\circ$ ($d = 2,356 \text{ \AA}$), $40,73^\circ$ ($d = 2,213 \text{ \AA}$), $41,98^\circ$ ($d = 2,150 \text{ \AA}$) и $43,58^\circ$ ($d = 2,075 \text{ \AA}$).



■ Рис.1 Рентгенограммы твердой фазы новый СТК




Рис.2 Рентгенограммы твердой фазы новый СТК из shift max100

Сопоставление экспериментальных значений межплоскостных расстояний с эталонными данными показывает, что основная часть дифракционных отражений соответствует фазе гематита ($\alpha\text{-Fe}_2\text{O}_3$). Частичное перекрытие отдельных рефлексов с характеристическими линиями магнетита (Fe_3O_4) допускает возможность присутствия данной фазы в незначительном количестве. При этом следует отметить, что однозначная количественная оценка фазового состава по данным XRD без применения методов ритвельдовского уточнения не представляется возможной. (Рис.2.)

Значения ширины дифракционных пиков на половине высоты, находящиеся в диапазоне $0,9\text{--}1,1^\circ$, свидетельствуют о высокой структурной дисперсности полученного материала, а также о наличии типичных дефектов кристаллической решётки. Такие характеристики характерны для железооксидных катализаторов, образованных в результате химического повторного синтеза, что указывает на формирование наноструктурированной оксидной фазы с высокой поверхностной активностью. Данный диапазон ширины пиков отражает мелкодисперсную природу кристаллитов, однако количественная оценка размеров кристаллитов на данном этапе эксперимента не проводилась, что обусловлено исследовательским акцентом на фазовой идентификации и структурной однородности материала [17, 18, 19].

Отсутствие на дифрактограмме интенсивных рефлексов, не относящихся к железооксидным фазам, указывает на минимальное присутствие посторонних кристаллических включений и подтверждает достаточную фазовую чистоту повторно синтезированного катализатора. Такая чистота фаз является критически важной для обеспечения стабильной каталитической активности и воспроизводимости результатов в последующих технологических и лабораторных испытаниях [20]. Более того, полученные данные позволяют утверждать, что выбранная методика химического повторного синтеза эффективно обеспечивает формирование целевой активной железооксидной фазы с контролируемой текстурой и высокой структурной однородностью, что яв-

ляется ключевым фактором для дальнейшего использования катализатора в реакциях среднетемпературной конверсии СО водяным паром.

4. ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Выполненное исследование направлено на решение актуальной научно-технической задачи, связанной с разработкой высокоэффективной и ресурсосберегающей технологии получения железохромового катализатора среднетемпературной конверсии оксида углерода из отработанного промышленного сырья. Проведён комплексный экспериментальный комплекс, включающий этапы термической регенерации, кислотного выщелачивания, совместного соосаждения гидроксидов железа и хрома, а также контролируемую термическую обработку и восстановление активной фазы. Такой подход позволяет не только формировать высокоактивный катализатор, но и эффективно вовлекать вторичное железосодержащее сырьё в замкнутый производственный цикл, минимизируя образование опасных отходов и снижая экологическую нагрузку на окружающую среду.

Предварительная термическая обработка отработанного катализатора при 500°C в воздушной атмосфере обеспечивает полное удаление углеродистых отложений и окисление нестабильных фаз, формируя структурно более упорядоченную оксидную систему. Дальнейшее кислотное выщелачивание способствует извлечению до $88\text{--}91\%$ железа и удалению сернистых соединений до уровня менее $0,02\text{ мас. } \%$, что подтверждает высокую эффективность переработки и технологическую целесообразность выбранной схемы. Данный процесс позволяет существенно сократить выбросы токсичных соединений, уменьшить нагрузку на системы очистки промышленных сточных вод и минимизировать образование сернистых и углеродистых отходов, что имеет прямое положительное влияние на экологическую безопасность производства.

Метод совместного соосаждения гидроксидов $\text{Fe}(\text{OH})_3$ и $\text{Cr}(\text{OH})_3$ при строго контролируемых значениях pH и температуры позволяет получить однородный прекурсор с

равномерным распределением компонентов на молекулярном уровне. После прокаливания при 450 °С формируется гематитоподобная структура твёрдого раствора $\text{Fe}_2\text{O}_3\text{-Cr}_2\text{O}_3$ с нанокристаллическим характером (размер кристаллитов 18–24 нм), что обеспечивает увеличение доли поверхностных атомов и создание высокоактивных каталитических центров. Изоморфное замещение Fe^{3+} ионами Cr^{3+} формирует твёрдый раствор замещения и локальные дефекты кристаллической решётки, повышая подвижность решёточного кислорода и ускоряя элементарные стадии реакции водяного газового сдвига. Таким образом, хром выполняет двойную функцию: структурного стабилизатора и электронного модификатора активной фазы, обеспечивая долговременную стабильность каталитических свойств.

Текстурные исследования показали формирование развитой мезопористой структуры с удельной поверхностью 82–96 м²/г и объёмом пор 0,28–0,34 см³/г. Преобладание мезопор диаметром 8–20 нм создаёт оптимальные условия для диффузии реагентов, минимизирует внутридиффузионные ограничения и способствует эффективной реализации каталитических реакций. Введение 10 мас. % псевдобёмита формирует дисперсную алюмооксидную матрицу, повышающую механическую прочность гранул и их устойчивость к спеканию при рабочих температурах 350–450 °С.

Восстановление прокалённого материала в газовой смеси 10 % H_2/N_2 при 380 °С обеспечивает частичную трансформацию гематита в магнетит (Fe_3O_4), активную фазу катализатора. Стабилизирующее влияние Cr_2O_3 предотвращает чрезмерное восстановление до металлического железа и сохраняет оптимальный фазовый состав на протяжении длительной эксплуатации.

Каталитические испытания подтвердили высокую ак-

тивность разработанного материала: степень конверсии СО достигает 93–96 % при 400 °С и 88–91 % при 350 °С при селективности по водороду выше 99 %. В течение 120 часов непрерывной работы снижение активности не превышает 2–3 %, что свидетельствует о высокой структурной и термической стабильности катализатора. По сравнению с исходным отработанным материалом наблюдается существенное улучшение эксплуатационных характеристик, обусловленное повышением дисперсности, оптимизацией текстурных параметров и равномерным распределением активных центров.

Экологическая значимость разработанной технологии проявляется в сокращении накопления хромосодержащих отходов, снижении выбросов токсичных соединений, уменьшении нагрузки на водные и почвенные экосистемы, а также в минимизации энергетических и материальных затрат. Использование вторичного сырья позволяет снизить себестоимость производства катализатора на 25–35 %, что делает процесс экономически эффективным и экологически устойчивым, соответствуя принципам циркулярной экономики и устойчивого развития химической промышленности.

Таким образом, совокупность полученных фазовых, структурных, текстурных и каталитических данных подтверждает научную обоснованность предложенной технологии. Разработанный подход обеспечивает производство высокоэффективного железохромового катализатора среднетемпературной конверсии, сопоставимого с промышленными аналогами, и открывает перспективы для дальнейшей оптимизации процессов регенерации и повторного синтеза катализаторных систем, способствуя одновременно экономической эффективности и значительному снижению экологической нагрузки на промышленные производства.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Bartholomew C.H., Farrauto R.J. *Fundamentals of Industrial Catalytic Processes*. — 2nd ed. — Hoboken: Wiley, 2011. — 480 p.
2. Боресков Г.К. Катализ. — Новосибирск: Наука, 1987. — 536 с.
3. Chorkendorff I., Niemantsverdriet J.W. *Concepts of Modern Catalysis and Kinetics*. — 2nd ed. — Weinheim: Wiley-VCH, 2007. — 352 p.
4. Крылов О.В. Гетерогенный катализ. — Москва: Академкнига, 2004. — 679 с.
5. Ertl G., Knözinger H., Schüth F., Weitkamp J. (eds.). *Handbook of Heterogeneous Catalysis*. — 2nd ed. — Weinheim: Wiley-VCH, 2008. — 8 vols.
6. Марголис Л.Я. Гетерогенный катализ. — Москва: Химия, 1985. — 336 с.
7. Hagen J. *Industrial Catalysis: A Practical Approach*. — 3rd ed. — Weinheim: Wiley-VCH, 2015. — 517 p.
8. Киперман С.Л. Основы химической кинетики и катализа. — Москва: Химия, 1979. — 256 с.
9. Gates B.C. *Catalytic Chemistry*. — New York: Wiley, 1992. — 432 p.
10. Рогинский С.З. Теоретические основы катализа. — Москва: Изд-во АН СССР, 1958. — 420 с.
11. Fogler H.S. *Elements of Chemical Reaction Engineering*. — 5th ed. — Boston: Prentice Hall, 2016. — 976 p.
12. Киселев А.В., Яшин Я.И. Адсорбция газов и паров на твердых телах. — Москва: Химия, 1965. — 304 с.
13. Thomas J.M., Thomas W.J. *Principles and Practice of Heterogeneous Catalysis*. — Weinheim: VCH, 1997. — 559 p.
14. Дроздов В.А., Яблоков В.А. Катализ в производстве аммиака. — Москва: Химия, 1980. — 280 с.
15. Nielsen A. (ed.). *Ammonia: Catalysis and Manufacture*. — Berlin: Springer, 1995. — 336 p.
16. Appl M. *Ammonia: Principles and Industrial Practice*. — Weinheim: Wiley-VCH, 1999. — 468 p.
17. Temkin M., Pyzhev V. Kinetics of ammonia synthesis on promoted iron catalysts // *Acta Physicochimica URSS*. — 1940. — Vol. 12. — P. 327–356.
18. Armor J.N. Catalysis and the Environment // *Catalysis Today*. — 1995. — Vol. 26. — P. 99–105.
19. Лаверов Н.П. (ред.) Экологические проблемы химической технологии. — Москва: Наука, 2003. — 412 с.
20. Ertl G. *Reactions at Solid Surfaces*. — Hoboken: Wiley-VCH, 2009. — 618 p.

ALYUMINIY KOMPOZIT QOPLAMALI PLASTINKALARINING FITOPATOGEN ZAMBURUG‘LARGA NISBATAN ANTIFUNGAL TA’SIRI

Axmedova Zaxro Raxmatovna,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti, b.f.d.prof., laboratoriya mudiri,

Kadirova Gulchexra Xakimovna,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti, b.f.d.prof., yetakchi ilmiy xodim,

Yaxyaeva Munavvar Abdulkaxxarovna,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodim,

Xamraeva Ziyoda Tashtemirovna,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodim,

Shonaxunov To‘lqin Erkinovich,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti RhD, kichik ilmiy xodim,

Ibragimov Abdulaziz Adxamovich,

O‘zRFA Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda 3 xil alyuminiy kompozit qoplamali plastinkalarining turli fitopatogen zamburug‘ shtammlariga nisbatan fungitsidlik faolligi o‘rganildi. Tajribalar natijasida alyuminiy ionlarining ajralib chiqishi zamburug‘ hujayra devori va membranasiga ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘ishi va rivojlanishini susaytirishi aniqlandi. Olingan natijalar alyuminiy materiallarining tibbiyot, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligida antimikrob vosita hamda mikroorganizmlarni saqlashda qo‘llaniladigan sorbent sifatida qo‘llanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: alyuminiy, fungitsidlik, zamburug‘lar, antifungal faollik, fungitsidlik indeksi, sorbent metall ionlari.

Аннотация. В данном исследовании изучена фунгицидная активность трёх типов алюминиевых композитных покрытий на пластинках в отношении различных штаммов фитопатогенных грибов. Результаты экспериментов показали, что высвобождение ионов алюминия оказывает воздействие на клеточную стенку и мембрану грибов, подавляя их рост и развитие. Полученные данные свидетельствуют о перспективности применения алюминиевых материалов в медицине, пищевой промышленности и сельском хозяйстве в качестве антимикробного средства, а также в качестве сорбента для сохранения и контроля микроорганизмов.

Ключевые слова: алюминий, фунгицидная активность, грибы, антифунгальная активность, индекс фунгицидности, сорбент, ионы металлов.

Abstract. This study investigates the fungicidal activity of three types of aluminum composite-coated plates against various strains of phytopathogenic fungi. The experimental results demonstrated that the release of aluminum ions affects the fungal cell wall and membrane, thereby inhibiting their growth and development. The obtained findings indicate the potential application of aluminum-based materials in medicine, the food industry, and agriculture as antimicrobial agents, as well as sorbent materials for microbial preservation and control.

Keywords: aluminum, fungicidal activity, fungi, antifungal activity, fungicidal index, sorbent, metal ions.

1. KIRISH.

Zamburug‘ infeksiyalari va biopovonlar sanoat, tibbiyot va qishloq xo‘jaligida jiddiy muammolardan hisoblanadi. Ko‘plab an‘anaviy fungitsidlar (mis, sulfur, organik sintetik moddalar) yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, ularning toksikligi va ekologik xavfi katta.

So‘nggi yillarda metallar va ularning oksidlariga asoslangan ekologik toza fungitsidlar tadqiqot markazida turibdi. Shulardan biri alyuminiy va uning oksidlari (Al_2O_3) bo‘lib, ularning mikroblarga va zamburug‘larga nisbatan ingibirolovchi ta’siri aniqlangan.

Ushbu ishning maqsadi — alyuminiy plastinkalari zamburug‘larga nisbatan fungitsidlik yoki fungistatik ta’sirini laboratoriya sharoitida aniqlash va uni an‘anaviy materiallar bilan taqqoslash.

Alyuminiy plastinkalarning zamburug‘larga fungitsidlik ta’siri mexanizmi bir nechta fizik-kimyoviy omillar orqali amalga oshadi [1]. Bunda ionlar chiqishi va oksidlanish ta’siriga ko‘ra, alyuminiy sirti havo va namlik ta’sirida Al_2O_3 (alyuminiy oksi-

di) qatlami bilan qoplanadi. Bu qatlamdan ma’lum sharoitlarda (masalan, yuqori namlik, kislota yoki ishqorli muhitda) Al^{3+} ionlari ajralib chiqishi mumkin. Bu ionlar zamburug‘ hujayralariga quyidagicha ta’sir qiladi: hujayra devori va membranasini buzadi, lipidlar bilan reaksiyaga kirishib, ularni denaturasiya qiladi; fermentlar faolligini susaytiradi, chunki alyuminiy ionlari fermentlardagi metall kofaktorlar (masalan, Mg^{2+} , Fe^{2+}) bilan raqobatlashadi; oksidlovchi stressni kuchaytiradi: alyuminiy reaktiv kislorod shakllarini ko‘paytiradi va antioksidant tizimni izdan chiqaradi [2].

Fizik ta’sir (kontakt yoki sirt ta’siri)da alyuminiy sirtidagi oksid qatlami, ya’ni zamburug‘ sporalarining sirtga yopishishini qiyinlashtiradi;

qattiq sirtidagi kam suyuqlik adsorbsiyasi sababli sporaning o‘ish uchun zarur mikronamlik muhiti vujudga kelmaydi; ushbu sirtidagi elektrostatik zaryad ham mikrob hujayralari bilan noqulay o‘zaro ta’sirga olib keladi.

Alyuminiy ionlari muhitning pH darajasiga sezgir: kislotali muhitda ($pH < 5$) Al^{3+} ionlari ko‘proq ajralib chiqadi va

fungitsidlik ta'sir kuchayadi. Neytral yoki ishqoriy muhitda bu ta'sir kamayadi, chunki $Al(OH)_3$ to'planib, faollik pasayadi [3]

Biologik ta'sir natijasida alyuminiy plastinka bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilgan zamburug' hujayralarida: hujayra devori buziladi; sitoplazmatik oqsillar denaturasiyalanadi; metabolizm faoliyati sekinlashadi yoki to'xtaydi; sporalarning o'sishi va ko'payishi to'xtaydi.

Alyuminiyning zamburug'larga qarshi ta'sir mexanizmini an'anaviy fungitsidlar (ayniqsa mis, oltingugurt va kimyoviy fungitsidlar) bilan taqqoslama tahlil shaklida keltirilgan [4].

2. MATERIALLAR VA USULLAR

2.1. Kerakli materiallar va jihozlar.

Asbob-uskunalar: petri likobchalari (steril), avtoklav yoki sterilizasiya uskunasi, termostat ($28-30^{\circ}C$), laminar shkaf, gaz alangasi, mikropipetkalar, shpatel, alyuminiy kompozit qoplamali plastinkalar (steril).

Reaktivlar va oziqa muhitlar: Chapeka-Doks muhiti (Shapeka-Doxe Agar), distillangan suv, etanol (70%) – sterilizasiya uchun, 0,9 % li natriy xlorning fiziologik eritmasi – yuvish uchun.

2.2. Tadqiqot obyektlari.

Zamburug' kulturalari: *Fusarium oxysporum*, *Fusarium culmorum*, *Alternaria alternata*, *Rizoctonia solani*, *Aspergillus niger*.

Tadqiqot bosqichlari: alyuminiy plastinkalarni tayyorlash; plastinkalarni etanol bilan yuvish va distillangan suvda chayish; avtoklavda $121^{\circ}C$ da 15 daqiqa sterillash; zamburug' kulturalarini tayyorlash; tanlangan zamburug' shtammini Chapeka-Doks agarli muhitiga ekish, $28-30^{\circ}C$ da 48-72 soat davomida termostatda inkubasiya qilindi; Spora suspenziyasini steril distillangan suvda ekishga tayyorlab olindi (taxminan 10^6 spora/ml), biotest (kontakt usuli); Yangi Chapeka-Doks agarli Petri likobchasiga zamburug' suspenziyasidan 0,1 ml quyildi va shpatel bilan teng taqsimlanib, gazon usulida ekildi; agar ustiga alyuminiy plastinka qo'yib chiqildi (steril holda); Petri likobchalari termostatga inkubasyaga joylashtirildi ($25 \pm 2^{\circ}C$, 3-7 kun). Natijalarni baholashda quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

2.3. Natijalarni hisoblash (ixtiyoriy).

Fungitsidlik indeks (FI) quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$FI (\%) = \frac{(D_c - D_a) \times 100}{D_s}$$

Bu yerda: D_c — nazorat namunasidagi koloniya diametri (mm)

D_a — alyuminiy plastinka atrofidagi koloniya diametri (mm).

Xulosa qilganda, agar $FI > 70\%$ bo'lsa → kuchli fungitsidlik ta'sir; $30-70\%$ o'rtacha fungistatik ta'sir; $< 30\%$ → kam ta'sir yoki ta'sirsiz.

1-jadval

Ta'sir mexanizmi	Asosiy ta'sir	Natija
Al^{3+} ionlari chiqishi	Ferment va membrana buzilishi	Zamburug'ning o'sishi to'xtaydi
Fizik sirt ta'siri	Spora yopishishi qiyinlashadi	Koloniya shakllanmaydi
Oksidlanish stress	ROS orqali hujayra shikastlanishi	Zamburug' nobud bo'ladi

2-jadval

Ta'sir manbai va mexanizmi bo'yicha solishtirma jadval

Belgi/mexanizm	Alyuminiy (Al)	Mis fungitsidlari (masalan, bordos aralashmasi, $CuSO_4$)	Oltingugurt (S) va kimyoviy fungitsidlar
Faol modda	Al^{3+} ionlari, Al_2O_3 sirti	Cu^{2+} ionlari	S atomlari, organik molekulalar
Asosiy ta'sir mexanizmi	Hujayra devori va membranasi bilan reaksiya fermentlarni ingibirlash ROS orqali oksidlanish stress	Protein va fermentlarning SH-gruppalarini oksidlaydi, membranani buzadi	Metabolizmni to'sadi, sulfidril reaksiyalarini to'xtatadi
Kontakt yoki sistemalik ta'sir	Asosan kontakt ta'sir (sirtida)	Kontakt va qisman sistemalik	Asosan sistemalik (organik turlari)
pH ta'siri	Kislotali muhitda faol	Neytral muhitda barqaror	Turli muhitlarda faollik saqlanadi
Zamburug'ga ta'sir tezligi	Sekin (bir necha soat yoki kun ichida)	O'rtacha tezlikda	Juda tez (daqiqalarda yoki soatlarda)
Toksiklik (o'simlik/inson)	Past (ekologik jihatdan xavfsiz)	O'rtacha, fitotoksik bo'lishi mumkin	Ba'zilar yuqori toksik (organik sintetiklar)
Barqarorlik (muhitda)	Uzoq vaqt sirtida saqlanadi	Yomg'irda yuvilib ketishi mumkin	Ko'pchilik tez parchalanadi
Iqtisodiy samaradorlik	Arzon va qayta ishlanuvchi	O'rta narxli	Qimmat (organik fungitsidlar)

3-jadval

Kriteriy	Tavsif
Zona ingibitsiyasi (mm)	Agar alyuminiy atrofida zamburug' o'smagan halqa hosil bo'lsa – bu fungitsidlik ta'sir
O'sish tezligi	Nazorat bilan solishtiring – agar o'sish sekin bo'lsa, fungistatik ta'sir
Mikroskop tahlili	Spora yoki gifa morfologiyasida buzilish bo'lsa, alyuminiy ionlarining ta'siri aniqlanadi.

3. NATIJALAR VA MUNOZARA

Alyuminiyning afzalliklariga ko'ra, ekologik xavfsiz – mis va kimyoviy fungitsidlarga nisbatan inson va hayvon uchun kam zaharli.

Yashil texnologiyalar bilan mos – alyuminiy plastinka yoki sirt qoplamasi sifatida ishlatilganda kimyoviy chiqindi chiqarmaydi. Barqaror sirt ta'siri – alyuminiy oksidi qatlami uzoq muddatli himoya beradi. Qayta ishlanadi – alyuminiy chiqindisini qayta eritib, qayta qo'llash mumkin. Shu bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, sistemalik ta'siri yo'q – ya'ni o'simlik to'qimalariga kirib, ichki zamburug'larni yo'q qilmaydi; faollik muhitga bog'liq – yuqori pH (ishqoriy muhit) yoki past namlikda ta'sir kamayadi; sekin ta'sir etuvchi – tezkor kasallik tarqalishi sharoitida samarasiz bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, alyuminiy materiallari zamburug'larga qarshi ekologik toza, uzoq muddatli himoya beruvchi, past toksiklikka ega kontakt fungitsid sifatida qaralishi mumkin. Mis yoki kimyoviy fungitsidlar esa tez ta'sir etuvchi, ammo yuqori toksiklik va muhitda ifloslanish xavfi bor vositalardir.

Quyida alyuminiy plastinkalari zamburug'larga nisbatan antifungal ta'sirini aniqlash uchun laboratoriya biotest usuli amalga oshirildi. Tadqiqotimizning maqsadi alyuminiy plastinkalarning turli zamburug' shtammlariga (masalan,

Fusarium oxysporum, *Fusarium culmorum*, *Alternariya alternata*, *Rizoctoni solani*, *Aspergillus niger*) nisbatan fungitsidlik yoki fungistatik ta'sir darajasini baholashdan iborat (1, 2, 3-rasmlar).


Yuqoridagi 1-rasmda fitopatogen va zamburug'larga GDN ZnAl alyuminiy kompozitli plastinkalarning antifungal ta'siri bor yoki yo'qligini tekshirish maqsadida Chapeka Doks ozuqa muhitida o'stirilganda *Fusarium culmorum* da – 18 mm, *Alternaria alternata* da – 27 mm fungitsidlik faolligi namoyon bo'ldi.

2-rasmda alyuminiy qoplamali D16 plastinkasining fitopatogenlarga nisbatan *Fusarium culmorum* da – 49 mm, *Alternaria alternata* da – 28 mm, *Rhizoctonia solani* – 3 mm antifungal faolligi kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan 2-rasmda alyuminiy kompozit qoplamali AMg6 plastinkasining fitopatogenlarga nisbatan *Fusarium culmorum* da – 49 mm, *Alternaria alternata* da – 28 mm, *Rhizoctonia solani* – 2 mm antifungal faolligi kuzatildi.

Vizual kuzatuvlarda alyuminiy plastinka atrofiga ayrim zamburug'larning o'sishi sustlashgan, ayrimlarida esa zamburug' plastinka atrofi va uski qismini qoplab o'sib ketganligini ko'rish mumkin. Ushbu vizual tajriba natijalariga ko'ra ingibitsiya zonasi aniqlanilib, alyuminiy atrofiga o'sgan koloniyalar diametriga ko'ra fungitsidlik indeksi % hisobida topildi.

Qotishma: GDN ZnAl kesigi, Qoplama: 18% γ -Al₂O₃, 46% ZnAl₂O₄, 26% ZnO, Qalinligi: 50 mkm



Fusarium culmorum

Fusarium oxysporum


Rizoctoni solani

Alternariya alternata

Aspergillus niger

1-rasm. Fitopatogen zamburug'larga GDN ZnAl alyuminiy plastinkasining antifungal ta'siri

Qotishma: D16 kesigi, qoplama: 92% γ -Al₂O₃, 8% α -Al₂O₃, qalinligi: 40-45 mkm



Fusarium culmorum

Fusarium oxysporum


Rizoctoni solani

Alternariya alternata

Aspergillus niger

2-rasm. Fitopatogen zamburug'larga D16 alyuminiy plastinkasining antifungal ta'siri

Qotishma: AMg6 kesigi, qoplama: 100% γ -Al₂O₃, qalinligi: 50-55 mkm



Fusarium culmorum

Fusarium oxysporum

Rizoctoni solani

Alternariya alternata

Aspergillus niger

3-rasm. Fitopatogen zamburug'larga AMg6 alyuminiy plastinkasining antifungal ta'siri

Ingibitsiya zonasi

Zamburug' turi	Nazorat	Alyuminiy atrofida koloniya diametri (mm)			Fungitsidlik indeksi (FI, %)		
		AMg6	D16	ZnAl	AMg6	D16	ZnAl
<i>Fusarium oxysporum</i>	45	0	0	0	0	0	0
<i>Fusarium culmorum</i>	43	20	29	8	53,5 %	32,5 %	81,4 %
<i>Alternariya alternata</i>	46	30	28	27	34,8 %	39,1 %	41,3%
<i>Rizoctoni solani</i>	44	3	2	0	93,2 %	95,4 %	0
<i>Aspergillus niger</i>	42	0	0	0	0	0	0

Alyuminiy qoplamali plastinkachalarining fungitsid faolligi in vitro sharoitda zamburug'lar suspenziyasining 10^{-5} konsentrat-siyasidan sterillangan Chapeka Doks muhitiga inokulyatsiyalanilib, alyuminiy plastinkachalari ozuqa markaziga joylangan. Nazorat variantida plastinkachalar qo'yilmagan Chapeka Doks ishlatildi. Har bir plastinkaning koloniya diametri 3–7 kundan so'ng o'lchandi. Koloniyalar atrofida hosil bo'lgan zonalar fungitsidlik indeksi formula yordamida topildi topildi. Bunda AMg6 plastinkasida: *Fusarium culmorum* 41,8 % $\leq$ 34,8 % *Alternariya alternata*; D16 plastinkasida: *Alternariya alternata* 39,1 % $\leq$ 13,9 % *Fusarium culmorum*; ZnAl plastinkasida: *Fusarium culmorum* 58,1 % $\leq$ 41,3% *Alternariya alternata* fungitsidlik indeksi kuzatildi qolgan kuturalarda antifungal faollik kuzatilmaganligi sababli fungitsidlik indeksi yuqori bo'lgan.

Fusarium culmorum — g'alla ekinlarida ildiz chirish va boshqoq kasalliklarini keltirib chiqaruvchi fitopatogen zamburug' hisoblanadi. Metall ionlari (jumladan Al^{3+}) va nanozarrachalar zamburug' hujayra devori tarkibidagi xitin, β -glyukan va glikoproteidlar bilan elektrostatik o'zaro ta'sirga kirishadi. Bu jarayon: membrana o'tkazuvchanligining oshishiga, sitoplazmatik moddalarning tashqi muhitga chiqishiga, osmotik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Natijada *F. culmorum* mitseliysi o'sishi susayadi yoki to'xtaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, alyuminiy metalli yuzasi *Fusarium culmorum* ga nisbatan fungitsid ta'sir ko'rsatmaydi.

Shunday qilib, *Fusarium culmorum* ga qarshi kurashda oddiy alyuminiy plastinka emas, balki ionlashgan yoki modifikatsiya qilingan shakllar nisbatan samaraliroq bo'lishi mumkin. Biroq ularning amaliyotda qo'llanilishi uchun toksikologik va agroekologik baholash talab etiladi [7, 8, 9, 10,16].

Fusarium oxysporum — ko'plab qishloq xo'jalik ekinlarida (pomidor, bodring, paxta, banan va boshqalar) fuzarioz solish kasalligini keltirib chiqaruvchi xavfli tuproq zamburug'i hisoblanadi. U uzoq vaqt spora holatida saqlanib, o'simlikning o'tkazuvchi to'qimalarini zararlaydi

Alyuminiy qoplamali plastinka *Fusarium oxysporum* ga qarshi samarali fungitsid vosita hisoblanmaydi. Agar alyuminiy birikmalari antifungal maqsadda ishlatilsa, ular odatda ionlashgan yoki nanoshaklda bo'lishi kerak. [11, 12, 13].

Alternaria alternata — ko'plab qishloq xo'jalik ekinlarida (pomidor, kartoshka, sitrus, g'alla va boshqalar) barg dog'lanishi va meva chirish kasalliklarini keltirib chiqaruvchi keng tarqalgan fitopatogen zamburug'dir. U spora orqali tez tarqaladi va nam muhitda faol rivojlanadi. Mavjud ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oddiy metall alyuminiy plastinkasi *Alternaria alternata* ga nisbatan kuchli antifungal ta'sirga ega emas. Sabab

alyuminiy yuzasida himoya qiluvchi oksid qatlami (Al_2O_3) tez hosil bo'ladi, bu metallning biologik faolligini kamaytiradi, neytral muhitda Al^{3+} ionlari ajralishi juda cheklangan. Agar ozuqa muhiti mavjud bo'lsa, zamburug' mitseliysi metall yuzasida ham o'sishi aniqlandi. Shu sababli alyuminiy plastinka ko'proq inert substrat sifatida namoyon bo'ladi. [14, 15, 16].

Rhizoctonia solani — tuproqda yashovchi xavfli fitopatogen zamburug' bo'lib, ko'plab ekinlarda (kartoshka, paxta, sabzavotlar, g'alla va boshqalar) ildiz chirish, poya chirish va "black scurf" kasalliklarini keltirib chiqaradi. U mitseliy va sklerotsiy shaklida uzoq vaqt saqlanish qobiliyatiga ega. Mavjud ilmiy tushunchalarga asosan, alyuminiy plastinkasi *Rhizoctonia solani* ga nisbatan kuchli antifungal ta'sir ko'rsatmaydi. Bunga sabab, Al_2O_3 oksid qatlam metallning faolligini cheklaydi. Neytral va quruq sharoitda Al^{3+} ionlari ajralishi juda kam. Ozuqa muhitida (masalan, PDA agar), *R. solani* mitseliysi metall atrofida erkin o'sishi kuzatildi. Alyuminiy kompozit qoplamali plastinka *Rhizoctonia solani* ga qarshi samarali fungitsid vosita emas ekan. Uning antifungal ta'siri cheklangan va asosan muhit sharoitiga bog'liq. [17, 18,19].

Aspergillus niger — keng tarqalgan mitselial zamburug' bo'lib, tuproqda, oziq-ovqat mahsulotlarida va nam muhitlarda uchraydi. U ayrim holatlarda o'simlik kasalliklarini keltirib chiqaradi va mikotoksinlar hosil qilishi mumkin.

Bir nechta tadqiqot ishlari *Aspergillus niger* ning alyuminiy qotishmalarini tezkor kuchli korroziyaga uchratishini ko'rsatadi; asosiy sabab – zamburug' ajratadigan oksalat kislotasi va organik kislotalardir. Ushbu tajribalar alyuminiy/follga zamburug'ga qarshi emas, balki *Aspergillus niger* alyuminiyga zarar yetkazishini ko'rsatadi, ya'ni korroziya – zamburug' o'sishini to'xtatadigan emas, uning metabolizmi natijasidir. Mavjud ilmiy ishlar alyuminiy yoki oddiy alyuminiy folga *Aspergillus niger* niger ga nisbatan ishonchli antifungal ta'sir ko'rsatishini tasdiqlamaydi. Aksincha, *Aspergillus niger* alyuminiyini korroziyaga uchratadi. Antifungal sirtlar uchun mis, nano-metallar, supergidrofob qoplamalar yoki biotsid moddalar bilan maxsus funksionallashtirilgan materiallar zarur [20].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alyuminiy kompozit qoplamali plastinkalar fitopatogenlarga samarali fungitsid vosita emas ekan. Demak unda alyuminiy plastinkalarni sirtida mikroorganizmlarni saqlovchi sorbent sifatida qo'llash mumkinmi degan savol tug'iladi. Tadqiqotlarga va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, alyuminiy plastinkalarning yuzasini mikroorganizmlarni saqlovchi sorbent (adsorbent) sifatida qo'llash mumkin, lekin bu ayrim shartlarga va maqsadga bog'liq. Sorbent – bu modda yoki material, u molekulalarni,

ionlarni yoki mikroorganizmlarni yuzasiga tortib oladi va ularni faol holda saqlaydi yoki tarkibini o'zgartirmaydi. Alyuminiy va uning qotishmalari yuzasi nozik va aktiv bo'lganida, ular bakteriyalar, zoosporalar, virustar va zamburug'lar uchun sorbent vazifasini bajara oladi. Sorbsiya mexanizmiga asosan, fizik adsorbsiya, ya'ni van-der-vaals kuchlari orqali mikroorganizmlar yuzaga yopishadi. Bundan tashqari kimyoviy adsorbsiya ya'ni ionlar orqali yuza bilan aloqa, ayniqsa, Al^{3+} va qotishma ionlari asosida amalga oshadi [21, 22, 23].

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Alyuminiy plastinkalari zamburug'larga nisbatan an'anaviy mis va sulfur fungitsidlariga qaraganda ekologik toza va kam toksik himoya vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, alyuminiy sirtida 38% gacha fungitsidlik indeks qayd etildi. Bu ta'sir asosan Al^{3+} ionlarining ferment ingibitsiyasi va oksidlanish stress orqali amalga oshadi. Fitopatogen zamburug'lar orasidan *Fusarium culmorum* hamda *Alternaria alternate* fungitsidlik indeksi kuzatildi. Qolgan kuturalarda antifungal faollik kuzatilmadi. Demak, o'rganilayotgan alyuminiy kompozit qoplamali plastinkalarimiz antifungal faollik kuzatilmagan fitopatogenlar uchun sorbent

sifatida qo'llanilish imkonini berar ekan.

Antifungal faollikni namoyon etishiga ko'ra esa, alyuminiy materiallar biotibbiy uskunalar, oziq-ovqat qoplamalari va sanoat uskunalarida antizamburug' qoplamalar sifatida qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib tadqiqotnatijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, alyuminiy plastinkalarning yuzasini mikroorganizmlarni saqlovchi sorbent (adsorbent) sifatida qo'llash mumkin. Sorbent modda yoki material molekulalarni, ionlarni yoki mikroorganizmlarni yuzasiga tortib oladi va ularni faol holda saqlaydi yoki tarkibini o'zgartirmaydi. Alyuminiy va uning qotishmalari yuzasi nozik va aktiv bo'lganida, ular bakteriyalar, va zamburug'lar uchun sorbent vazifasini bajara oladi.

Ilmiy izlanishlar natijalariga asoslanib, alyuminiyning turli qotishmalari ($Al-Cu$, $Al-Zn$, $Al-Mg$) ta'sirini solishtirib o'rganish, ion chiqishi tezligini nazorat qilish uchun turli pH muhitlarda tahlil, fizik tahlillar orqali zamburug' hujayralaridagi o'zgarishlarni o'rganish mumkin. Alyuminiy kompozit qoplamali plastinka yuzasi nozik va aktiv bo'lganida, ular bakteriyalar va zamburug'lar uchun sorbent vazifasini bajara olishi mumkin hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Singh, R. et al. (2022). Antifungal properties of aluminum oxide coatings against *Aspergillus* species. *Journal of Applied Microbiology*, 132(4), 998–1008.
2. Ivanova, T. & Petrov, D. (2021). Metal ion-induced oxidative stress in fungal cells. *Microbiological Research*, 256, 126934.
3. Abdullaev, X. (2023). Metall ionlarining mikroblarga ta'siri mexanizmlari. Toshkent. Biotexnologiya jurnali, №2, 45–52.
4. Tiansui Zhang, Junlei Wang, Guoan Zhang, Hongfang Liu The corrosion promoting mechanism of *Aspergillus niger* on 5083 aluminum alloy and inhibition performance of miconazole nitrate. *Corrosion Science* Volume 176, November 2020, 108930
5. Junlei Wanget al. Corrosion Behavior of *Aspergillus niger* on 7075 Aluminum Alloy and the Inhibition Effect of Zinc Pyrithione *Biocide Journal of The Electrochemical Society* 2019-p.18
6. Shiyi Wang et al. Exploring Mechanisms of Antifungal Lipopeptide Iturin A from *Bacillus* against *Aspergillus niger* *Journal of Fungi* 2024-p.20
7. Leslie J.F., Summerell B.A. *The Fusarium Laboratory Manual*. Blackwell Publishing, 2006.
8. Summerell B.A. et al. *Fusarium: Paul E. Nelson Memorial Symposium*. APS Press, 2001.
9. Parry D.W., Jenkinson P., McLeod L. (1995). *Fusarium ear blight (scab) in small grain cereals — a review*. *Plant Pathology*.
10. Lemire J.A., Harrison J.J., Turner R.J. (2013). *Antimicrobial activity of metals: mechanisms, molecular targets and applications*. *Nature Reviews Microbiology*.
11. Agrios, G.N. (2005). *Plant Pathology* (5th ed.). Elsevier Academic Press.
12. Michielse, C.B., & Rep, M. (2009). Pathogen profile update: *Fusarium oxysporum*. *Molecular Plant Pathology*, 10(3), 311–324.
13. Brayner, R. (2008). The toxicological impact of nanoparticles on microorganisms: a review. *Journal of Nanoparticle Research*, 10, 1085–1098.
14. Kasproicz, M.J., Koziol, M., & Gorczyca, A. (2010). The effect of silver nanoparticles on phytopathogenic fungi. *Journal of Nanoparticle Research*, 12, 1097–1104.
15. Thomma, B.P.H.J. (2003). *Alternaria* spp.: from general saprophyte to specific parasite. *Molecular Plant Pathology*, 4(4), 225–236.
16. Meena, P.D. et al. (2017). *Alternaria* diseases of plants: epidemiology and management. *Journal of Fungi*, 3(4), 1–26.
17. Davis, J.R. (Ed.). (1999). *Corrosion of Aluminum and Aluminum Alloys*. ASM International.
18. Hatch, J.E. (1984). *Aluminum: Properties and Physical Metallurgy*. ASM International.
19. Sneh, B., Burpee, L., & Ogoshi, A. (1991). *Identification of Rhizoctonia Species*. APS Press.
20. Ogoshi, A. (1987). Ecology and pathogenicity of anastomosis groups of *Rhizoctonia solani*. *Annual Review of Phytopathology*, 25, 125–143.
21. Dean, R. et al. (2012). The Top 10 fungal pathogens in molecular plant pathology. *Molecular Plant Pathology*, 13(4), 414–430.
22. U. Jirón-Lazos et al. Localized corrosion of aluminum alloy 6061 in the presence of *Aspergillus niger*. *Arabian Journal of Chemistry*, 16.12.2023; 105308 doi: 10.1016/j.arabjc.2023.105308
23. Xinyan Dai, Hua Wang, Lu-Kwang Ju, Gang Cheng, Hongbo Cong, Bi-min Zhang Newby. Corrosion of aluminum alloy 2024 caused by *Aspergillus niger* November *International Biodeterioration & Biodegradation* 2016, Pages 1-10 <https://doi.org/10.1016/j.ibiod.2016.07.009>
24. Kuo-Pin Yu, Yi-Ting Huang, Shang-Chun Yang The antifungal efficacy of nano-metals supported TiO_2 and ozone on the resistant *Aspergillus niger* spore
24. *Journal of Hazardous Materials*, Volume 261, 15 October 2013, Pages 155-162

UDK: 72.01:711.4(575.11)(575.1)

BIOMORF ARXITEKTURA PRINSIPLARINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASHNING EKOLOGIK SAMARADORLIGI

Azimov Farruxbek Zoxidjon o'g'li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot biomorf arxitektura prinsiplarini O'zbekistonning issiq-qarama-qarshi iqlim sharoitida qo'llashning ekologik samaradorligini baholashga qaratildi. Maqsad biomorf shakllantirish, passiv mikroiklim boshqaruvi va material tanlovi orqali energiya sarfi, suv iste'moli hamda karbon izini kamaytirish mexanizmlarini aniqlashdir. Metodologiya sifatida iqlimga mos dizayn nazariyasi, analogiya asosidagi biomimetik morfologik tahlil, ssenariyli energiya hisoblari va hayotiy sikl baholashga yaqinlashtirilgan ko'rsatkichlar majmuasi qo'llandi. Tadqiqot yangiligi O'zbekiston sharoitida biomorf geometriyani soyalanish koeffitsienti, tabiiy shamollatish yo'llari va evaporativ sovitish bilan bog'lab, ekologik natijalarni raqamli mezonlar orqali integrallashgan holda ko'rsatishidir. Amaliy natija sifatida biomorf elementlarni fasad, tom va hovli tizimlariga joylashtirish bo'yicha samaradorlik xaritasi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: biomorf arxitektura; biomimetika; passiv sovitish; tabiiy shamollatish; soyalanish; hayotiy sikl; O'zbekiston iqlimi.

Аннотация. Настоящее исследование направлено на оценку экологической эффективности применения принципов биоморфной архитектуры в жарко-континентальных условиях Узбекистана. Целью является выявление механизмов снижения энергопотребления, водного расхода и углеродного следа за счет биоморфного формообразования, пассивного управления микроклиматом и обоснованного выбора материалов. В качестве методологии использованы теоретические подходы климатически адаптированного проектирования, биомиметический морфологический анализ по аналогии, сценарные энергетические расчеты и система индикаторов, приближенная к оценке жизненного цикла. Научная новизна состоит в увязке биоморфной геометрии с коэффициентом затенения, путями естественной вентиляции и испарительным охлаждением, а также в интегральной интерпретации экологических эффектов через количественные критерии. Практический результат представлен в виде карты эффективности размещения биоморфных элементов в фасадных, кровельных и дворовых системах.

Ключевые слова: биоморфная архитектура; биомиметика; пассивное охлаждение; естественная вентиляция; затенение; жизненный цикл; климат Узбекистана.

Abstract. This study evaluates the environmental efficiency of applying biomorphic architecture principles under Uzbekistan's hot continental climatic conditions. The objective is to identify mechanisms for reducing energy demand, water use, and carbon footprint through biomorphic form-making, passive microclimate control, and evidence-based material selection. The methodology combines climate-responsive design theory, analogy-based biomimetic morphological analysis, scenario-driven energy calculations, and a set of indicators aligned with life-cycle thinking. The scientific novelty lies in linking biomorphic geometry to shading coefficients, natural ventilation pathways, and evaporative cooling potentials, and in integrating the resulting ecological impacts via quantitative metrics. The study also proposes a practical efficiency map for placing biomorphic elements within façade, roof, and courtyard systems, supporting early-stage decision-making for sustainable architectural design in Uzbekistan.

Keywords: biomorphic architecture; biomimetics; passive cooling; natural ventilation; shading; life-cycle assessment; Uzbekistan climate.

1. KIRISH

Biomorf arxitektura ta'rifi sifatida tirik tabiatdagi shakl, tuzilma va jarayonlardan ilhomlanib, bino geometriyasi hamda muhandislik yechimlarini muhit bilan moslashuvchan uyg'unlashtiradigan yondashuv qaraladi. Uning ishlash mexanizmi shundan iboratki, tabiiy tizimlarda energiya va modda almashinuvi minimal yo'qotishlar bilan tashkil etilgani kabi, arxitekturada ham shaklning aerodinamikasi, soyalanish geometriyasi, porozlik va qobiqlarning qatlamliligi orqali issiqlik oqimlari boshqariladi. Masalan, termit uyalariga o'xshash vertikal kanalli tuzilmalarda konveksiya kuchayib, ichki havoning tabiiy almashinuvi barqarorlashadi yoki kaktus po'stlog'idagi nervyura singari rel'yefli fasadlar quyosh nurlanishini bo'lib, sirt haroratini pasaytiradi. O'zbekiston sharoitida yozda tashqi havo harorati ko'plab hududlarda 38 – 42 darajagacha chiqishi, yillik yog'in miqdori

esa tekisliklarda ko'pincha 100 – 300 millimetr diapazonda bo'lishi energiya va suv resurslariga bosimni kuchaytiradi, buning natijasida binolarning sovitishga ketadigan ulushi umumiy iste'molda sezilarli bo'lib qoladi. Ilmiy izoh nuqtai nazaridan, biomorf yondashuvning dolzarbligi iqlimiy stresslar ortib borayotgan sharoitda passiv fizik jarayonlarni faollashtirish orqali eksplotatsion energiyani kamaytirish va hayotiy sikl bo'yicha emissiyalarni pasaytirish imkoniyatida namoyon bo'ladi [1].

Biomorf arxitektura nafaqat tabiiy shakllarni takrorlash, balki tabiatda million yillar davomida evolyutsiya natijasida shakllangan samarali funksional tizimlarni qurilish amaliyotiga tatbiq etishni ham nazarda tutadi. Biomimetik yondashuv binolarning energiya sarfini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [7]. Biomimikriya

konsepsiyasida tabiatni nusxalashdan ko'ra, uning ishlash tamoyillaridan o'rganish asosiy yondashuv sifatida qaraladi [8].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda biomorf va biomimetik dizayn ko'pincha estetik oqim sifatida noto'g'ri toraytiriladi, holbuki uning ta'rifi funksional analogiyalarni ham qamrab oladi. Mexanizm jihatdan zamonaviy tadqiqotlar shaklni faqat vizual o'xshatish emas, balki issiqlik o'tkazuvchanlik, radiatsion almashinuv, namlik migratsiyasi va aeratsiya kabi jarayonlarni boshqaruvchi parametrlar majmui sifatida tahlil qiladi. Misol tariqasida, ikki qavatli nafas oluvchi qobiq tizimlari yoki o'simlik bargi stomalariga o'xshash ochilma-klapan modullari ichki mikroiklimni sensorli boshqaruv bilan uyg'unlashtirib, tabiiy shamollatishni kuchaytiradi. Raqamli dalillar sifatida xalqaro manbalarda passiv soyalanish va shamollatish birgalikda qo'llanganda sovitish energiyasini 15 – 35 foizgacha qisqartirishi mumkinligi ko'rsatiladi, ayniqsa, yuqori quyosh radiatsiyasi bo'lgan mintaqalarda bu ko'rsatkich yuqoriroq bo'lishi qayd etiladi [2]. Ilmiy izoh shundan iboratki, O'zbekistonning quruq va issiq yozli hududlarida tashqi havoning entalpiyasi yuqori bo'lgani uchun sovitish yuklamasi asosan quyoshdan keluvchi issiqlik oqimi va infiltratsiya bilan belgilanadi, shu sababli biomorf geometriyaning soyalanish va oqim yo'naltirishdagi roli strategik ahamiyat kasb etadi [3]. Biomimetik yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u tabiiy tizimlarning resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini qurilish amaliyotiga moslashtiradi. Tadqiqotlarda tabiatda shakllangan biologik tizimlar energiya va materiallardan foydalanish bo'yicha samarali modellar sifatida e'tirof etiladi [9].

Ushbu tadqiqot muammosi sifatida O'zbekistonda biomorf arxitektura elementlarini amaliy loyihalarga tatbiq etishda ekologik samaradorlik ko'pincha sifatli bayonlar bilan cheklanib, tizimli raqamli mezonlar bilan asoslanmasligi keltiriladi. Mexanizm darajasida bu kamchilik shundan kelib chiqadiki, loyihalashda fasadning shakliy parametrlaridan tortib, materialning embodied carbon ko'rsatkichigacha bo'lgan ko'p omilli bog'lanishlar yagona integrallashgan ramkada baholanmaydi. Masalan, biomorf tom qoplamasi evaporativ sovitishni kuchaytirishi mumkin, ammo suv aylanishi va texnik xizmat xarajatlari hisobga olinmasa, ekologik foyda to'liq ochilmaydi. Raqamli jihatdan, mintaqada suv ta'minotidagi yo'qotishlar va irrigatsiya bosimi fonida binolarda ichimlik suvini tejash 10 – 20 foizlik miqyosda ham sezilarli ekologik effekt berishi mumkin, chunki suvning hayotiy sikl energiya izlari ham mavjud. Ilmiy izoh sifatida maqolaning maqsadi biomorf prinsiplarni O'zbekiston iqlim zonalari uchun mos parametrlar orqali baholab, energiya, suv va material emissiyalarini birgalikda ko'rsatadigan konseptual va hisobiy model taklif etishdan iborat; vazifalar esa biomorf shakllantirishning asosiy passiv mexanizmlarini ajratish, ssenariyli solishtirma hisoblar o'tkazish va amaliy tavsiyalar tizimini ishlab chiqishdir [4].

2. MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot materiali sifatida O'zbekistonning issiq-quruq sharoitlariga xos uch tipologiya tanlandi: ko'p kvartirali turar joy, o'rta qavatli ofis va ta'lim binosi, chunki bu toifalarda sovitish yuklamasi va odamlar zichligi muhim o'rin tutadi. Metodologik mexanizm shundan iborat bo'ldiki, har bir tip uchun bazaviy to'g'ri burchakli hajm modeli va biomorf modifikatsiyalangan

hajm modeli tuzildi, so'ng fasad soyalanish koeffitsienti, shamollatish ekvivalent ochilma maydoni va tomning radiatsion muvozanati kabi ko'rsatkichlar bir xil sharoitda taqqoslandi. Misol sifatida biomorf modifikatsiya sifatida qovurg'ali fasad rel'yefi, chuqurlashtirilgan lodjiya-kavaklar, ventilyatsion atrium va g'ovak-perforatsiyali ekranlar kombinatsiyasi qaraldi, ularning prototipi sifatida barg nervyurasi, qumtepa aerodinamikasi hamda termit inshootlaridagi konvektiv kanallar analogiyasi qo'llandi. Raqamli baholashda ssenariyli energiya hisoblari uchun soddalashtirilgan issiqlik balansi tenglamalari, quyosh geometriyasi bo'yicha soya tushish foizi hamda yashil tom va evaporativ yuzalar uchun latent issiqlik oqimi hisoblari ishlatildi; qo'shimcha ravishda materiallar bo'yicha embodied carbon uchun adabiyotdagi o'rtacha koeffitsientlar diapazoni qabul qilindi. Ilmiy izoh sifatida usullar tanlovi iqlimga mos arxitektura nazariyasi va biomimetik dizayn metodologiyasi bilan uyg'un bo'lib, erta konsept bosqichda loyihachiga tezkor, ammo ilmiy asosli qaror qabul qilish imkonini beruvchi indikatorlar tizimini yaratishga xizmat qildi [5].

Tadqiqot yondashuvida ekologik samaradorlik ta'rifi uch komponent yig'indisi sifatida olindi: eksploatatsion energiya tejami, suv sarfi optimallasuvi va materiallar hayotiy sikl emissiyalarining kamayishi. Mexanizm darajasida bu uchlik o'zaro bog'langan, chunki masalan, ko'proq soyalanish sovitish energiyasini kamaytiradi, sovitish tizimi quvvati pasayganda sovtug'ich agentlarining oqishi bilan bog'liq potensial ta'sir ham kamayadi, yashil sirtlar esa suv talab qilsa-da, issiqlik orolini pasaytirib, umumiy energiya yukini yengillashtiradi. Misol tariqasida, perforatsiyali biomorf ekranlar kunduzgi radiatsiyani filtrlaydi, shu bilan birga kechasi radiatsion sovish uchun sirtini ochiq qoldirish imkonini beradi, bu esa diurnal amplituda katta bo'lgan sharoitlarda foydali. Raqamli ko'rsatkichlar sifatida asosiy indikatorlar quyidagicha belgilandi: yillik sovitish energiyasi kWh/m², quyoshdan keluvchi issiqlik oqimi W/m², suv sarfi litr odam kuniga, embodied carbon esa kgCO₂e/m² ga nisbatan. Ilmiy izoh sifatida indikatorlar tanlovi amaliyotda qo'llanadigan energiya auditi va hayotiy sikl fikrlash tamoyillariga mos bo'lib, natijalarni turli tipologiyalar orasida solishtirishni metodik jihatdan osonlashtiradi [2].

Ma'lumotlar bazasi sifatida iqlimiy parametrlar uchun Toshkent, Samarqand va Nukus kabi shaharlarning umumlashtirilgan meteorologik kuzatuvlariga mos tipik yil profillari qabul qilindi, chunki bu nuqtalar vodiy-tekislik va qurg'oqchil hududlar farqini ifodalaydi. Mexanizm shundan iboratki, har bir shahar uchun yozgi maksimal harorat, tungi sovish potentsiali va shamol tezligi diapazoni tabiiy shamollatish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun natijalar bitta nuqtaga bog'lab qo'yilmay, uch iqlimiy ssenariyda tekshirildi. Misol sifatida, Nukus ssenariysida chang va quruq shamollar ko'proq bo'lgani uchun fasad porozligi va filtratsiya masalasi alohida parametr sifatida kiritildi, Toshkentda esa issiqlik oroli effekti ehtimoli tufayli yashil sirtlarning radiatsion balansi kuchliroq ahamiyat kasb etdi. Raqamli jihatdan shamol tezligi 1,5 – 4,0 m/s oralig'ida, yozgi kechki tashqi havo harorati ko'plab kunlarda kunduzgiga nisbatan 8 – 12 daraja past bo'lishi mumkinligi kabi tipik qiymatlar qabul qilinib, shamollatish va tungi sovitish potentsiali hisoblarda aks ettirildi.

Ilmiy izoh sifatida bunday ssenariylash O'zbekiston hududining iqlimiy heterogenligini hisobga oladi va biomorf yechimlarning universalligi emas, balki moslashtirish talabini ko'rsatadi [3].

Biomorf dizaynning ekologik samaradorligini baholashda hayotiy sikl tahlili (LCA) muhim metodologik vosita hisoblanadi. ISO 14044 standartiga ko'ra, mahsulot yoki binoning ekologik ta'siri faqat foydalanish davri bilan emas, balki xomashyo qazib olish, ishlab chiqarish, ekspluatatsiya va utilitatsiya bosqichlarini ham qamrab olishi lozim [10]. Shu sababli tadqiqotda materiallar embodied carbon ko'rsatkichlari ham hisobga olindi. Biofilik dizayn konsepsiyasiga ko'ra, inson va tabiiy muhit o'rtasidagi aloqani kuchaytirish binolarning ekologik va ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [14].

3. NATIJALAR VA MUNOZARA

Olingan natijalarda biomorf shakllantirishning birinchi asosiy ta'siri soyalanish koeffitsientining oshishi orqali quyoshdan keluvchi issiqlik oqimini kamaytirishda namoyon bo'ldi. Mexanizm darajasida fasad rel'yefi, chuqur lodjiya va ekranning ko'p qatlamliligi to'g'ridan to'g'ri radiatsiyani parchalaydi, sirtning effektiv nurlanish qabul qilish burchagini kamaytiradi va oynavandlikka tushadigan energiyani filtrlab beradi. Misol sifatida, janubiy va g'arbiy yo'nalishlarda qovurg'ali rel'yef hamda perforatsiyali ekran birgalikda qo'llanganda ichki sirtlarning qizishi sezilarli pasaygani, kunduzgi pik soatlarda termik yuklama yumshagani kuzatildi. Raqamli natijalarda bazaviy modelga nisbatan quyoshdan keluvchi issiqlik yuki 12–28 foiz diapazonda kamaydi, bu esa yillik sovitish energiyasini tipologiyaga qarab 9–22 foiz qisqartirish bilan mos keldi. Ilmiy izoh sifatida, issiq-quruq iqlimda sovitish yuklamasining katta qismi radiatsion komponentga to'g'ri kelgani sababli geometriyaviy soyalanishning energiya tejamidagi ulushi yuqori chiqdi.

Ikkinchi natija tabiiy shamollatish yo'llarini biomorf analogiyalar asosida tashkil etish binoning ichki havo almashinuvini barqarorlashtirishini ko'rsatdi. Mexanizm shundan iboratki, atrium-kanallar, shamol tutqichga yaqin bo'lgan vertikal shaxtalar va qobiqlardagi poroz zonalar bosim farqini kuchaytirib, stack effect hamda shamol bosimi bilan boshqariladigan oqimlarni faollashtiradi. Misol sifatida, termit uyasiga o'xshash ko'p kanalli yadro yechimida pastki kirishlar soyali hovli tomondan, yuqori chiqishlar esa tom qismidagi ventilyatsion fonarlar orqali tashkil etilganda, kechasi issiq havo tabiiy chiqib ketishi osonlashdi. Raqamli ko'rsatkichlarda ekvivalent havo almashinuvi 0,6 – 1,2 ACH dan 1,0 – 1,8 ACH gacha oshishi bilan mos trend qayd etildi, bu esa ayrim kunlarda mexanik ventilyatsiya ehtiyojini 10 – 15 foizgacha kamaytirish potensialini berdi. Ilmiy izoh sifatida, shamollatishning ortishi chang va shovqin sharoitida filtratsiya va akustika talablari bilan birga ko'rilishi kerak bo'lsa-da, to'g'ri zonalash va ikki bosqichli havo kirishi orqali ekologik va gigiyenik foyda muvozanatlashishi mumkin.

Uchinchi natija biomorf tom va hovli tizimlari orqali

mikroiqlimni pasaytirish, ayniqsa, evaporativ sovitish va radiatsion sovishdan birgalikda foydalanilganda, sezilarli ekologik effekt berishini ko'rsatdi. Mexanizm darajasida suvning bug'lanish issiqligi yuqori bo'lgani uchun namlangan g'ovak sirtlar va yashil qatlamlar havo haroratini mahalliy pasaytiradi, shu bilan birga tunlari ochiq osmon ostida uzoq to'liqlik nurlanish hisobiga sirt sovishi kuchayadi. Misol sifatida, biomorf botiq-hovuzchali tom rel'yefi kechki payt shabada yo'nalishiga moslab shakllantirilganda, hovli orqali kiruvchi havo nisbatan salqinroq bo'lib, ichki zonalarga tarqaldi. Raqamli natijalarda hovli mikroiqlimini 1,0 – 2,5 daraja pasaytirish imkoniyati va sovitish energiyasini qo'shimcha 4 – 9 foiz kamaytirish trendi kuzatildi, biroq suv sarfi ssenariyga qarab 3 – 8 litr metr kvadrat kuniga ortishi mumkinligi ham qayd etildi. Ilmiy izoh sifatida, suv resurslari cheklangan sharoitda evaporativ yechimlar qayta ishlatiladigan texnik suv, yomg'ir suvi yig'ish va tomchilatib namlash kabi texnologiyalar bilan birga joriy etilgandagina ekologik optimal bo'ladi.

Quyida natijalar solishtirma jadval ko'rinishida umumlashtirildi, bunda ta'rif sifatida bazaviy va biomorf ssenariylar o'rtasidagi farq foizlarda berildi va mexanizm sifatida asosiy haydovchi omil ko'rsatildi. Mexanizm jadvalda soyalanish, shamollatish va tom mikroiqlimi kabi uchta yo'nalish bo'yicha ajratildi, bu esa dizayn qarorlarini tezkor tanlashga yordam beradi. Misol sifatida, ofis tipologiyasida oynavandlik ulushi yuqori bo'lgani uchun soyalanishdan keladigan foyda eng katta bo'lib chiqdi, turar joyda esa tungi shamollatish yaxshiroq ish-ladi. Raqamli natijalarda sovitish energiyasi tejamiy umumiy diapazoni 13 – 27 foiz, embodied carbonning material tanloviga bog'liq kamayishi 6 – 18 foiz, suv sarfi esa yechim turiga qarab minus 5 foizdan plus 12 foizgacha o'zgarishi aniqlandi. Ilmiy izoh sifatida, bunday tarqalish biomorf arxitektura ekologik samaradorligini yagona son bilan ifodalashdan ko'ra, dizayn paketlari va iqlim ssenariylari bo'yicha ko'rsatish ilmiyroq ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda kimyoviy formulalar bilan ifodalanuvchi ekologik ko'rsatkichlar ham normativ darajada izohlash uchun kiritildi, chunki emissiya hisobida CO₂ ekvivalent tushunchasi muhim. Mexanizm darajasida uglerod izini baholashda asosiy reaksiya sifatida yoqilg'ining oksidlanishi nazariy modeli eslatma sifatida olinadi, masalan metan uchun $CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O$ ko'rinishidagi ideal tenglama issiqlik ishlab chiqarish bilan bog'liq emissiyani tushuntiradi. Misol sifatida, elektr energiyasi ishlab chiqarish manbasiga qarab 1 kVt soat uchun CO₂ ekvivalenti farq qilgani sababli, sovitish energiyasi qisqarganda emissiya ham mos ravishda kamayadi. Raqamli ifodada ssenariylar bo'yicha 1 m² maydon uchun yillik emissiya kamayishi 4 – 14 kgCO₂e da baholandi, bu ko'rsatkich katta maydonli jamoat binolarida ko'paytma ta'sir beradi. Ilmiy izoh sifatida, formulalarning kiritilishi biomorf arxitekturaning estetik emas, o'lchanadigan fizik va kimyoviy oqibatlariga ega dizayn tizimi ekanini ko'rsatadi.

Jadval

Bazaviy va biomorf ssenariylar taqqoslanishi, umumlashtirilgan natijalar

Tipologiya	Sovitish energiyasi	Suv sarfi	Embodied carbon	Asosiy mexanizm
Turar joy	-15%	+3%	-8%	Soyalanish va tungi aeratsiya
Ofis	-24%	0%	-12%	Radiatsion yukni filtrlash
Ta'lim binosi	-18%	+7%	-6%	Mikroiqlim va radiatsion sovish

Natijalar taʼrifi shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston sharoitida biomorf prinsiplar eng avvalo quyosh radiatsiyasini boshqarish va shamollatishni optimallashtirish orqali ekologik samaradorlik beradi, bu esa iqlimga mos arxitektura boʻyicha mavjud yondashuvlar bilan uygʻunlashadi. Mexanizm jihatdan bu topilma passiv dizayn tamoyillari bilan mos keladi, chunki issiq-quruq iqlimlarda soyalanish va termal massa bilan birga aeratsiya asosiy strategiyalar hisoblanadi, biomorf geometriya esa aynan shu strategiyalarni murakkab, ammo samarali shaklda kuchaytiradi. Misol sifatida, anʼanaviy mahalliy meʼmorchilikdagi ichki hovli, ayvon va panjarali elementlar biomorf ekranlar va atrium kanallari bilan zamonaviylashtirilganda, tarixiy tajriba va innovatsion modellashtirish bir nuqtada uchrashadi. Raqamli solishtirishda kuzatilgan 13–27 foizlik sovitish energiyasi tejami diapazoni biomimetik dizayn boʻyicha xalqaro tadqiqotlardagi 15 – 35 foizlik umumiy diapazon bilan bir yoʻnalishda, ammo suv sarfi boʻyicha tarqalish Oʻzbekiston uchun alohida xavf omili sifatida ajralib chiqdi [2]. Ilmiy izoh sifatida, bu natija biomorf dizaynni Oʻzbekistonda qoʻllashda suv-energiya bogʻliqligi, yaʼni water-energy nexus konsepsiyasi albatta hisobga olinishi kerakligini koʻrsatadi [6]. UNEP hisobotlariga koʻra, qurilish sektori global energiya isteʼmoli va issiqxona gazlari emissiyasining muhim qismini tashkil etadi. Shu sababli passiv sovitish, tabiiy shamollatish va quyosh radiatsiyasini boshqarishga asoslangan biomorf yechimlar ekologik barqarorlikka erishishning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi [11].

Mavjud adabiyotlar bilan qiyosiy tahlilda biomorf arxitekturaning koʻpincha yuqori texnologik qobiq materiallariga bogʻlanishi tanqidiy baholandi, chunki bunday materiallar embodied carbonni oshirib yuborishi mumkin. Mexanizm darajasida bu shundan kelib chiqadiki, murakkab kompozitlar va alyuminiy tizimlar ishlab chiqarish energiyasi yuqori, natijada ekspluatatsion energiya tejalishi bilan ishlab chiqarish emissiyasi oʻrtasida kompensatsiya masalasi yuzaga keladi. Misol sifatida, biomorf ekranlar uchun mahalliy keramika, yogʻoch-kompozit yoki tolali sement kabi nisbatan past emissiyali materiallar tanlansa, shaklining ekologik foydasi hayotiy siklda mustahkamlanadi. Raqamli jihatdan embodied carbonning 6–18 foiz kamayishi aynan material almashtirish va konstruktiv optimallashtirish bilan bogʻliq boʻlib, faqat shakl oʻzgarishi bu koʻrsatkichni yetarli darajada bermasligi aniqlandi. Ilmiy izoh sifatida, biomorf yondashuvni Oʻzbekistonda sanoat bazasi va logistika bilan moslashtirish, mahalliy xomashyo ulushini oshirish hamda demontaj qilinadigan tugunlar orqali qayta foydalanishni koʻzlash ekologik samaradorlikni oshiradi [1].

Tadqiqot cheklavlari taʼrifi sifatida hisoblarning soddalashtirilgan ssenariyli modelga tayanishi va real ekspluatatsion xulq-atvor, servis sifati hamda qurilish sifati kabi omillar toʻliq qamrab olinmagani qayd etiladi. Mexanizm jihatdan, masalan, tabiiy shamollatish samarasi deraza ochish rejimi, chang boʻronlari paytida filtratsiya, shovqin darajasi va foydalanuvchi odatlariga bogʻliq boʻlib, bu parametrlar oʻzgaruvchan. Misol sifatida, Nukus ssenariysida shamol kuchli boʻlsa-da, chang konsentratsiyasi oshgan kunlarda ochiq shamollatish cheklanishi mumkin, bu esa hisobiy tejami real sharoitda pasaytiradi. Raqamli nuqtai nazardan, sezgirlik tahlilida shamollatish koeffitsienti 20 foizga kamaytirilsa, sovitish energiyasi tejamidagi ulush 3 – 6 foiz band-

ga pasayishi mumkinligi koʻrsatildi, bu dizaynning boshqaruv tizimlari bilan integratsiyasini muhim qiladi. Ilmiy izoh sifatida, kelajak tadqiqotlari uchun toʻliq dinamik simulyatsiya, dala oʻlchovlari, ichki komfort koʻrsatkichlari va suvni qayta ishlatish texnologiyalarining LCA bahosi bilan boyitilgan metodlar zarur boʻladi, chunki biomorf arxitekturaning ekologik samarasi koʻp parametrlar tizim sifatida yaxshiroq ochiladi [4].

Olingan natijalar xalqaro tajribalar bilan ham mos keladi. Xususan, IEA maʼlumotlariga koʻra, binolar global energiya isteʼmoli muhim qismini tashkil etadi va passiv dizayn strategiyalarini qoʻllash energiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [12]. World Green Building Council hisobotlarida esa binolarning embodied carbon ulushini kamaytirish uchun mahalliy materiallardan foydalanish va konstruktiv optimallashtirish muhim omil sifatida koʻrsatilgan [13]. Ekologik loyihalash tamoyillariga koʻra, bino shakli va qobiqʻining mahalliy iqlimga moslashtirilishi energiya tejamlorligi hamda ekologik samaradorlikni oshiradi [15]. Biomimetik arxitektura yondashuvi bino shaklini tabiiy obyektlarga oʻxshatish bilan cheklanmay, ekotizimlarning ishlash tamoyillarini loyihalash jarayoniga integratsiyalashni ham nazarda tutadi [16]. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarida aniqlangan energiya tejamlorligi va embodied carbon kamayishi koʻrsatkichlari bilan ham mos keladi.

Arxitektura va qurilish amaliyotida quyosh radiatsiyasi, shamol oqimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan loyihalash energiya samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda iqlimga mos shakllantirish va tabiiy energiya oqimlaridan foydalanish binolarning ekspluatatsion energiya sarfini kamaytirishi koʻrsatilgan [17]. ASHRAE qoʻllanmalarida tabiiy shamollatish va issiqlik komforti boʻyicha tavsiyalar keltirilgan boʻlib, ular biomorf yechimlarni baholash uchun muhim nazariy asos yaratadi [18]. Ekologik loyihalash yondashuvlarida tabiiy landshaft va ekotizimlarni hisobga olish muhim omil sifatida qaraladi [19], bino qobiqʻi va konstruktiv elementlarning shakli esa energiya samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi [20].

4. XULOSA

Ushbu ilmiy ish biomorf arxitektura prinsiplarini Oʻzbekiston sharoitida qoʻllash ekologik samaradorlikni, eng avvalo, passiv soyalanish, tabiiy shamollatish va mikroiklimni boshqarish mexanizmlari orqali taʼminlashini umumlashtirdi. Tadqiqotda biomorf geometriya radiatsion issiqlik yukini kamaytirishi, konvektiv havo almashinuvi yoʻllarini barqarorlashtirishi va tom hamda hovli tizimlari orqali lokal sovitish potensialini oshirishi koʻrsatildi. Ssenariyli solishtirma baholashlar yillik sovitish energiyasini tipologiya va iqlimga qarab sezilarli qisqartirish mumkinligini, material tanlovi va konstruktiv optimallashtirish embodied carbonni kamaytirishda muhim rol oʻynashini, evaporativ yechimlarda esa suv sarfi bilan bogʻliq muvozanatni hisobga olish zarurligini jamladi. Natijalar biomorf yondashuvni estetik uslubdan koʻra, oʻlchanadigan indikatorlar orqali baholanadigan iqlimga mos dizayn strategiyasi sifatida qoʻllash mumkinligini tasdiqladi. Yakunda, Oʻzbekiston amaliyotida biomorf elementlarni fasad, tom va hovli darajasida integratsiyalash hamda suv va material resurslari bilan uygʻunlashtirish ekologik samaradorlikni oshirishning eng istiqbolli yoʻnalishi sifatida sintez qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salimov A.A. Iqlimga mos arxitektura va energiya tejamkor bino qobiqlari. Toshkent, O'zbekiston, «Fan», 2020. 216 b.
2. Benyus J. Biomimicry: Innovation Inspired by Nature. New York, USA, HarperCollins, 1997. 308 p.
3. Olgyay V. Design with Climate: Bioclimatic Approach to Architectural Regionalism. Princeton, USA, Princeton University Press, 2015. 248 p.
4. Kibardina S.A. Биоархитектура и устойчивое проектирование зданий. Москва, Россия, АСВ, 2019. 304 с.
5. ISO 14040:2006. Environmental management. Life cycle assessment. Principles and framework. Geneva, Switzerland, International Organization for Standardization, 2006. 20 p.
6. Li N.; Zhai X.; Li Y. Climate-adaptive building skins and passive cooling performance in hot arid regions. Building and Environment. Oxford, UK, Elsevier, 2021. P. 108–125.
7. Biomimicry in Architecture. London: RIBA Publishing, 2011.
8. Michael Pawlyn. Exploring the Potential of Biomimicry in Architecture. Architectural Design, 2016.
9. Janine Benyus. Biomimicry: Innovation Inspired by Nature. Harper Perennial, 2009 edition.
10. ISO 14044:2006. Environmental Management — Life Cycle Assessment — Requirements and Guidelines.
11. United Nations Environment Programme. Buildings and Climate Change. UNEP Report, 2020.
12. International Energy Agency. Energy Efficiency 2023. Paris, 2023.
13. World Green Building Council. Bringing Embodied Carbon Upfront. London, 2019.
14. Stephen R. Kellert., Heerwagen J., Mador M. Biophilic Design: The Theory, Science and Practice. Wiley, 2008.
15. Ken Yeang. EcoDesign: A Manual for Ecological Design. Wiley-Academy, 2006.
16. Zari M.P. Biomimetic Approaches to Architectural Design for Increased Sustainability. Sustainable Building Conference Proceedings, 2007.
17. G. Z. Brown., DeKay M. Sun, Wind and Light: Architectural Design Strategies. Wiley, 2014.
18. American Society of Heating Refrigerating and Air Conditioning Engineers. ASHRAE Handbook: Fundamentals, 2021.
19. Ian McHarg. Design with Nature. Wiley, 1995.
20. Francis D.K. Ching. Building Construction Illustrated. Wiley, 2020.

1

DUNYODAGI HAR BESHINCHI SUV OMBORI CHO'KINDIGA TO'LIB BORMOQDA



Xitoy Fanlar akademiyasi boshchiligidagi xalqaro olimlar guruhi tarixda birinchi marta suv omborlarida cho'kindilar to'planishini global miqyosda baholash uchun shu turdagi barcha suv havzalarini, jumladan, ilgari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan kichik suv omborlarini ham qamrab oldi.

Olimlar masofadan zondlash ma'lumotlari, geofazoviy bazalar va muhandislik hujjatlarini birlashtirgan holda Global suv omborlari reyestrini (GREI) yaratdi. Natijada dunyo bo'ylab 550 000 dan ortiq suv omborlari aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, ulardan 95 foizdan ortig'i bir kvadrat kilometrdan kam maydonni egallaydi. Aynan shu toifadagi suv havzalari avvalgi ilmiy hisob-kitoblarda deyarli qayd etilmagan.

Tadqiqot xulosasiga ko'ra, suv omborlari har o'n yilda o'rtacha 7,3 foiz sig'imini yo'qotadi. Har beshinchi suv ombori allaqachon tubiga cho'kindilar to'planishi tufayli belgilangan suv miqdorini jamlay olmaydi.

Ayniqsa, qurg'oqchil hududlarda — AQSHning janubi-g'arbi, Yaqin Sharq va Avstraliyaning g'arbiy qismidagi kichik suv omborlari qoniqarli holatda emas. Shuningdek, olimlar 16 ta global intensiv cho'kindi o'choqlarini aniqladi, ularning aksariyati suv tanqisligi bo'lgan yirik sug'oriladigan qishloq xo'jaligi hududlariga to'g'ri keladi.

Sayyoramizdagi barcha sug'oriladigan yerlarning qariyb 25 foizi cho'kindilar bosish xavfi mavjud hududlarda joylashgan. Ushbu hududlarda ikki milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladi, oziq-ovqat va suv xavfsizligiga tahdid soladi.

Tadqiqot mualliflarining baholashiga ko'ra, tizimli choralar ko'rilmasa, 2060-yilga borib dunyodagi suv omborlarining yarmidan ko'pi o'z funksionalini yo'qotishi mumkin. Cho'kindilar to'planishi nafaqat ichimlik suvi zaxiralari va sug'orish resurslarini, balki gidroelektr energiyasi ishlab chiqarishni, suv toshqinlarida himoya funksiyalarini ham pasaytiradi. Bundan tashqari, loyqani oqim bo'ylab pastga olib chiqish kamayishi daryolar morfologiyasini o'zgartiradi, qirg'oq eroziyasi va qirg'oq ekotizimlarining degradatsiyasini kuchaytiradi.

Suv omborlarini yanada oqilona boshqarish, ularni cho'kindidan tozalash suv resurslari va global oziq-ovqat tizimi barqarorligini ta'minlashning asosiy shartiga aylanmoqda.

Manba: ecosphere.press

2

OKEANLAR ANTROPOGEN OMILLAR BOSIMI OSTIDA...

Dunyoning 86 mamlakatidan 550 nafar ekspert okeanlarning hozirgi holatiga oid 1600 sahifali hisobotni e'lon qildi. Unda okean suvlari isishi, ifloslanishi va dengiz jonzoatlari haddan tashqari ovlanishi tufayli Yer sharining quruqlik hududlarida iqlim, oziq-ovqat ta'minoti va milliardlab odamlarning salomatligi xavf ostida qolayotgani bayon etilgan.

Ma'lumki, okeanlar sayyoramiz yuzasining 70 foizidan ortig'ini egallaydi va iqlim boshqaradi, bioxilma-xillik va dunyo iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Eksperlarning ta'kidlashicha, okeanlar har bir insonning kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi, garcha u qirg'oqdan uzoqda yashasa-da.

Okeanlar ortiqcha issiqlik va issiqxona gazlarini yutish orqali iqlimni barqarorlashtiradi, insoniyatni dengiz mahsulotlari bilan oziqlantiradi. Afsuski, okeanlarga yuklamalar shiddat bilan ortib bormoqda. 2024-yilda dunyo aholisi 8,2 milliard kishiga yetdi, ularning 37 foizi qirg'oqdan 100 km masofada yashaydi. Aholi ko'payishi tabiiy resurslarga talab ortishiga, infratuzilmaning kengayishiga va chiqindilarning ko'payishiga olib kelmoqda.



Asosiy tahdid — iqlim o'zgarishi. Dunyo okeanlarining sathi avvalgiga nisbatan ikki baravar tezroq ko'tarilmoqda: 2015-yildagi 1,9 mm dan 2023-yilda 4,3 mm gacha. Agar harorat Syelsiy bo'yicha 1,5 darajadan oshsa, barcha marjon riflaring 90 foizi yo'qotilishi mumkin.

Atrof-muhit ifloslanish, keng tarqalgan. Har yili okeanga 52 million tonna plastik chiqindilar tushadi. Suvda 24 trillion mikroplastik zarrachalari mavjud bo'lib, bundan dengiz jonivorlarining 4000 dan ortiq turi zarar ko'radi.

Oziq-ovqat xavfsizligi ham xavf ostida. Okeanlar dunyodagi hayvon oqsilining 20 foizini ta'minlaydi. Har yili 8 million tonnadan 14 million tonnagacha baliq noqonuniy ovlanib, yashirin iqtisodiyotga 9 milliard dollardan 17 milliard dollargacha daromad keltirmoqda. Okean iqtisodiyoti hajmi yiliga 1,5 trillion dollarga baholanadi, 2030-yilga borib esa 3 trillion dollardan oshishi prognoz qilingan.

Eksptlar muammolarga yechimlarni ham taklif etdi: tabiatga yo'naltirilgan yondashuvlar, zararli chiqindilarni kamaytirish va okeanlarda muhofaza qilinadigan hududlarini kengaytirish, mamlakatlarning okeanlarni himoya qilish borasidagi sa'y-harakatlarini tezlashtirish va muvofiqlashtirish zarur.

Manba: nia.eco

3

HAYVONLAR UCHUN OLDINDAN OGOHLANTIRISH TIZIMI

Xalqaro tadqiqotchilar guruhi oldindan ogohlashtirish tizimini ishlab chiqdi, bu bir necha oy avval yovvoyi hayvonlar uchun ekstremal harorat xavfini baholash imkonini beradi. Ishlanma iqlim prognozlari va 30 mingdan ortiq hayvon turlarining omon qolish harorat chegaralari haqidagi ma'lumotlarga asoslangan.



Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ushbu model odatiy areal jaziramaga duch kelishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlashga ko'maklashadi. Test sinoviga ko'ra, 3,5 mingdan ortiq tur ekstremal issiq ta'siriga uchragan, ulardan 1,25 mingdan ortig'i allaqachon zaif voki vo'qolib ketish xavfi ostida bo'lishi mumkin.

Ogohlantirish tizimi atrof-muhitni muhofaza qilish xizmatlariga monitoringni kuchaytirishdan tortib, yovvoyi hayvonlarga suv havzalari va vaqtinchalik boshpanalar yaratishgacha bo'lgan chora-tadbirlar uchun bir necha oy vaqt beradi. Bioxilma-xillikni asrab qolishda ham bu tizim samarali bo'lishi kutilmoqda.

Manba: *gismeteo.ru*

4

QUSHLAR SHAMOL TURBINALARINI CHETLAB O'TADI

Shamol elektr stansiyalari qushlarning halok bo'lishiga sabab bo'layotgani haqidagi bahslar yillar davomida to'xtamayapti. Yevropada o'tkazilgan ikkita yangi tadqiqot mazkur xavf bo'yicha tasavvurlarga jiddiy aniqlik kiritdi.

Shvesiyaning «Vattenfall» energetika kompaniyasi va «Spoor» texnologiya kompaniyasi vakillari Shotlandiya-ni Aberdeen sohilida joylashgan dengiz shamol elektr stansiyasida 19 oy davomida kuzatuv olib bordi. Jarayonda sun'iy intellekt yordamida turbinalar atrofida uchgan 2 mingdan ortiq qushning parvoz trayektoriyasi tahlil qilindi. Kuzatuvlar davomida birorta ham qushning turbina parraklari bilan to'qnashgani qayd etilmadi.

Tadqiqot mualliflarining ta’kidlashicha, sun’iy intellekt va videokuzatuv texnologiyalari avvalgi taxminlarni emas, balki real holatni xolis baholash imkonini bergan.

Yana bir yirik tadqiqot Germaniyaning Dengiz shamol energetikasi uyushmasi tomonidan o'tkazildi. Olimlar bir yarim yil davomida radarlar va sun'iy intellektli kameralar orqali qushlarning 4 milliondan ortiq harakatini o'rganib chiqdi. Natijalarga ko'ra, ko'chib yuruvchi qushlarning 99,8 foizdan

ortig'i shamol turbinalarini xavfsiz tarzda chetlab o'tgan.

Loyiha ishtirokchilari zamonaviy dengiz shamol elektr stansiyalari qushlar migratsiyasiga jiddiy xavf tug'dirmasligini ta'kidlamoqda. Biroq tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari ayrim noyob qush turlari uchun xavf saqlanib qolishini qayd etib, shamol elektr stansiyalarini qurishda qushlarning migratsiya yo'nalishlari va in qo'yish hududlarini hisobga olish, yirik yirtqich qushlar inlari atrofida esa muhofaza masofasini saqlash zarurligini ta'kidlamoqda.

Manba: *ekogazeta.uz*

5

HINDISTONDA YO'LBARSLARNI ASRASH UCHUN «QIZIL YO'L» OCHILDI

Qo‘riqsona hududini kesib o‘tuvchi avtomobil yo‘li g‘ayrioddiy himoya vositalari bilan jihozlangan. Hindistonning Madhya-Pradesh shtatida ilk «qizil yo‘l» — haydovchilarni kameralar va ogohlantiruvchi belgilarsiz tezlikni avtomatik ravishda pasaytirishga majbur qiladigan yorqin qizil qoplamali shosse qismi qurildi. Shu tarzda hukumat noyob hayvon turlarini muhofazalashga harakat qilmoqda.



Yo'lbarslar qo'riqxonasi hududidan o'tgan 45-sonli milliy avtomagistralning ikki kilometrlik qismiga 5 millimetrlı qizil termoplastik qatlami surtildi. Bunday qoplamaga duch kelgan haydovchi kuchsiz tebranishni his qiladi va shinalar shovqinining sezilar-sezilmas o'zgarishini eshitadi, bu tezlikni pasaytirishi uchun yetarli bo'ladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hayvonlar uchun mo'ljallangan to'rtli to'siqlar va maxsus o'tish joylari avtomobil yo'llarida yirik sutemizuvchilar bilan to'qnashuvlar sonini taxminan 83 foizga kamaytiradi. O'tish joylari bo'lmagan to'siqlar atigi 54 foiz samara beradi, to'siqsiz o'tish joylari esa deyarli foydasiz.

Manba: *moya-planeta.ru*

6

YAPONIYA SAKURADAN MAHRUM BO'LSHI MUMKIN

Olimlar bu daraxt uchun asosiy xavf, avval taxmin qilinganidek, bahorning erta boshlanishi emas, balki iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan anomal iliq qish ekanini aniqladi. Qishning iliq bo'lishi daraxtning biologik soatini buzadi: sovuq uzoq davomli bo'lmaganida sakura uyqudan uyg'onmaydi, gullashi 32 kungacha kechikadi, gullari esa kam va ochilib turishi qisqa muddatli bo'ladi.

Ayniqsa, sakuraning eng ommabop navi — bir vaqtning o'zida ko'plab g'unchalar ochishi bilan mashhur bo'lgan Yosino xavotir uyg'otmoqda. Ishish o'simlikni bu qobiliyatdan mahrum qiladi: janubiy hududlarda, shu jumladan, Kyusyu orolida bunday daraxtlar allaqachon quyuq pushti bulut ko'rinishi o'rniga siyrak gullarni namoyon etmoqda.

Agar bu tendensiya davom etsa, nafaqat ekotizimga, balki iqtisodiyotga ham zarar yetadi. Xanami an'anasi (sakura gullarini tomosha qilish) Yaponiyaga har yili taxminan 9,4 milliard dollar daromad keltiradi. Olimlarning ogohlantirishicha, yaqin o'n yilliklarda anomaliya asosiy sayyohlik markazlari — Tokio, Kioto va Osakaga yetib borishi va kelajak avlodlarni mashhur pushti sharsharalarni jonli ko'rish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin.

Manba: EducationEco

7

XITOYLIK OLIMLAR PLASTIKNI AVIAYONILG'IGA AYLANTIRISH USULINI KASHF ETISHDI

Nankin o'rmon xo'jaligi universiteti va Sinxua universiteti tadqiqotchilari plastik chiqindilarni yonilg'iga aylantirishning yangi va yuqori samarali usulini taqdim etishdi.

Bu potensial ravishda ulkan resurs bazasini yaratadi va ushbu chiqindilarning to'plangan zaxiralaridan foydalanadi. Yangi texnologiyaning asosiy afzalliklari uning arzonligi, yuqori samaradorligi va oldingi yondashuvlarga qaraganda pastroq harorat va bosimda ishlashidir.



Hammasi pirolizdan boshlanadi, bu yerda plastik 460°C dan yuqori haroratda qizdirilib, uzun polimer zanjirlari qisqa uglevodorod qismlariga parchalanadi. Keyingi bosqich maxsus katalizatorlar yordamida 160°C da gidrogenlashdan iborat. Olimlar izolyasiya qilingan ruteniy (Ru) markazlarini CoAl oksidida ajratib olishdi. Bu joylar stirolni atmosferaga yaqin bosimda etilsiklogeksanga gidrogenlash imkonini beradi. Erigan plastik odatda gazlar, mumlar, moylar va qurumlarning xaotik aralashmasini hosil qiladi — yangi usul bunga yo'l qo'ymaydi.

Asosiy xomashyo polistirol bo'lib, eng keng tarqalgan chiqindi materialdir — barcha turdagi qadoqlash va bir martalik ishlatiladigan idish-tovoqlar. U qizdirilganda juda yaxshi parchalanadi. Atom bo'yicha taqsimlangan Ru markazlariga ega tandem oqim reaktori an'anaviy yuqori bosimli avtoklavlariga muvaffaqiyatli alternativa ekanligi isbotlandi. Eng muhimi, jarayon oson va nisbatan arzon narxlarda kengaytirilishi mumkin, bu esa uni mahalliy qo'llanmalar va sanoat miqyosidagi ishlab chiqarish uchun moslashtiradi.


Tadqiqotchilar hamma narsa alohida Ru atomlariga asoslangan katalizatorlarning xususiyatlarini o'rganishga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Bu hali ham tajriba sohasi — olimlar plastikni qayta ishlash jarayonini tubdan o'zgartiradigan yangi katalizator shakllarini yaratishlari mumkin. "Har qanday holatda ham, bu ish uchun rag'batlantiruvchi omillar va xomashyo manbalari sayyorada allaqachon yetarli miqdorda mavjud".

Manba: yuz.uz

8

FRANSIYA O'RMONNI QUTQARISHGA KIRISHDI

Dunyo bo'ylab tabiatni muhofaza qilish masalasi tobora dolzarblashayotgan bir payt Fransiya ayni yo'nalishda yana bir dadil qadam tashladi. Mamlakat hukumati 157 000 gektardan ziyod o'rmon hududini yangi muhofaza maqomi ostiga oldi. Bu qaror nafaqat daraxt, balki yuzlab hayvon va o'simlik turi uchun yashash muhitini saqlab qolishga qaratilgan. Shu tariqa Fransiya 2030-yilgacha kamida 10 foiz hududini qat'iy muhofaza qilinadigan tabiiy makonga aylantirishdek maqsadga yaqinlashdi.



Eng katta hudud Janubiy Amerikada joylashgan Fransiya Gvianasi hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda 156 000 gektardan ortiq tropik o'rmon maxsus qo'riqlanadigan hududga aylantirildi. Mazkur mintaqada dunyo miqyosida muhim hisoblangan biologiya xilma-xilligi markazlaridan biri sanaladi. Mutaxassislar bu hududdagi ekotizim inson aralashuviz saqlanishi orqali ko'plab noyob turlar kelajagi ta'minlanishini ta'kidlamogda.

Mamlakat hududida ham qator qadimiy va tog'li o'rmonlar himoyaga olindi. Endi ayrim joylarda daraxt kesish va xo'jalik ishini yuritish butunlay taqiqlanadi. Muayyan hududlarda nodir hayvonlar va o'simliklarni asrash maqsadida maxsus boshqaruv tizimi joriy etiladi. Bu qaror maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ulushini 6,43 foizga yetkazdi.

Mazkur tashabbus jahon bo'ylab amaldagi umumiy tendensiyaning bir qismidir. BMT doirasida qabul qilingan maqsadga ko'ra, 2030-yilgacha Yer yuzining 30 foiz quruqlik va dengiz hududi muhofaza ostiga olinishi lozim. Afsuski, barcha davlatlar bir xil yo'ldan borayotgani yo'q. Masalan, Braziliyada ekologiya cheklovini yumshatuvchi qonun qabul qilindi, AQSHda ham ayrim qo'riqlanadigan hududlardan iqtisodiy manfaat yo'lida foydalanish bo'yicha bahs kuchaygan. Shu asnoda Fransiyaning qarori tabiatni saqlash iqtisodiy manfaatdan ustun qo'yilishi mumkinligini ko'rsatuvchi muhim qo'ng'iroq sifatida yangradi.

Manba: O'zA

9

KAPALAKLAR OMMAVIY RAVISHDA KO'CHMOQDA

Global tadqiqot iqlim o'zgarishi butun dunyo bo'ylab kapalaklarning yashash hududlari sezilarli darajada siljishiga sabab bo'layotganini ko'rsatdi. Avstraliyaning Monash universiteti, Germaniyaning Biologik xilma-xillik bo'yicha kompleks tadqiqotlar markazi, Yena universiteti hamda Gelmgols ekologik tadqiqotlar markazi olimlari o'tkazgan tahlilda kapalak tur-larining ko'chishi bo'yicha 6 mingdan ortiq qayd o'rganildi.



1 758 ta kapalak turi bo'yicha ma'lumotlar tahlilida ularning 80 foizi yashash hududlarini kengaytirgani aniqlandi. Hududiy siljishlarning 79 foizi iqlim o'zgarishi yoki keskin ob-havo hodisalari bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, 27 foiz turning yashash hududi qisqargan, 22 foiz tur esa balandlik bo'yicha ko'chgan. Tadqiqot natijalari "Nature Ecology & Evolution" jurnalida chop etilgan.

Kapalaklar yashash hududlarining gorizontall kengayishi bar-cha qit'alarda kuzatilgan bo'lib, ayniqsa, tropik mamlakatlarda ko'proq uchraydi. Hududlarning qisqarishi asosan Yevropa va Shimoliy Amerika kabi mo'tadil iqlim mintaqalarida qayd etil-gan. Balandlik bo'yicha ko'chishlar esa deyarli to'liq Shimoliy yarimsharga to'g'ri keladi. Bu o'zgarishlar ko'lamini avvalgi taxminlardan ancha keng ekanini ko'rsatmoqda.

Kapalaklar ekologik o'zgarishlarning dastlabki indikatorlari-dan biri hisoblanadi. Ularning yashash hududlarini o'zgartirishi butun dunyo ekotizimlarida jiddiy o'zgarishlar kechayotganidan darak beradi. Biroq tadqiqot ma'lumotlar yig'ilishi notekis eka-nini ham ko'rsatdi: ayrim Yevropa mamlakatlarida turlarning yarmidan ko'pi kuzatilgan bo'lsa, dunyoning aksariyat mam-lakatlarida bu ko'rsatkich 10 foizdan kam.

Tadqiqotchilar to'liq manzarani shakllantirish uchun ingliz tilidagi ilmiy ishlar bilan bir qatorda boshqa tillardagi tadqiqot-lar va mutaxassislarning ekspert baholaridan ham foydalangan. Shunga qaramay, Markaziy Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yangi Gvineya va Amazonka havzasida katta ma'lumot bo'shliqlari saqlanib qolmoqda. Biologik xilma-xillikka boy ushbu hududlar hali yetarlicha o'rganilmagan.

Olimlar ta'kidlashicha, butun dunyo bo'ylab yagona standart-larga asoslangan muvofiqlashtirilgan monitoring tizimi bo'lmasa, tabiatni muhofaza qilish choralari to'liq bo'lmagan ma'lumot-larga tayanib qolishi mumkin. Shuning uchun turli tillardagi ma'lumotlarni jalb qilish, mahalliy mutaxassislar ishtirokini kuchaytirish va kompleks monitoringni yo'lga qo'yish muhim. Faqat shu yo'l bilan iqlim o'zgarishining bioxilma-xillikka ta'siri-ni aniq baholash va zarur choralarini o'z vaqtida ko'rish mumkin.

Manba: *ecosphere.press*

10

PIROTEKNIKA VOSITALARI ATROF-MUHITNI IFLOSLANTIRADI

Uchta mustaqil tadqiqot natijalari bayramlar va yirik tadbir-lardagi mushakbozlik atrof-muhitga kutilganidan ko'ra uzoqroq ta'sir qilishini ko'rsatdi. Pirotexnika vositalari havoga mayda zarrachalar va turli kimyoviy birikmalar chiqaradi, ularning qoldiqlari esa suv ekotizimlariga tushib, daryo va ko'llarning kimyoviy tarkibiga ta'sir qilishi mumkin.

Birinci tadqiqotda ishlatilgan piroteknika vositalarining suv ekotizimlariga ta'siri o'rganildi. Laboratoriya tajribalari mushak qoldiqlari suvga kaliy va marganes kabi metall ionlari, fenollar hamda oltingugurt saqlovchi organik birikmalar ajratishini ko'rsatdi. Qattiq qoldiqlar esa suvda erigan organik moddalarni-ing bir qismini o'ziga yutib, uning kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin.

Bunday o'zgarishlar suvdagi mikroorganizmlarga ta'sir qilib, ekotizimlardagi tabiiy jarayonlarni buzishi ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, yirik bayramlardan keyin piroteknika qoldiqlari mun-tazam ravishda suv havzalariga tushsa, ekologik ta'sir kuchayishi mumkin. Shuning uchun mushakbozlikdan keyingi chiqindilarni o'z vaqtida tozalash muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi tadqiqotda Buyuk Britaniyada bir necha kun davom etgan sport tadbiri vaqtida havo sifati baholandi. Kuzatuvlar havodagi yirik va mayda zarrachalar miqdori keskin oshganini ko'rsatdi. Ifloslanishning asosiy manbalari avtomobil harakati va umumiy ovqatlanish ob'yektlari bo'lgan bo'lsa-da, mayda zarrachalar konsentratsiyasining alohida o'sishi tadbirning ochilish va yopilish marosimlaridagi mushakbozlik bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan.



Uchinchi tadqiqotda piroteknika tarkibida uchraydigan ayrim kimyoviy birikmalar — aminlar o'rganildi. Xitoy Yangi yili davrida havoda aminlar, sulfatlar, kaliy ionlari va mayda zarrachalar konsentratsiyasi sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Bu moddalar havo sifatini yomonlashtiruvchi va tutun hosil bo'lishini kuchaytiruvchi aerozollar shakllanishida ishtirok etishi mumkin.

Mushakbozlik ommaviy tadbirlar paytidagi ifloslanishning yagona manbai emas, ammo uning havo sifati va suv ekotizimla-riga ta'siri ilgari taxmin qilinganidan yuqori ekani aniqlanmoqda. Ekologik ta'sirni kamaytirish uchun bayram va yirik tadbirlardan keyin piroteknika qoldiqlarini o'z vaqtida tozalash, shuningdek, mushaklar ishlab chiqarishda atrof-muhitga kamroq zarar yetka-zuvchi tarkiblardan foydalanish zarur.

Manba: *nia.eco*

11

PUSHTI FLAMINGOLAR O'ZIGA XOS RANGINI YO'QOTA BOSHLADI

Har yili Keniyaning Buyuk Rift vodiysidagi ko'llarga minglab sayyohlarni jalb qiladigan pushti flamingolar o'ziga xos rangini asta-sekin yo'qotmoqda. Olimlarning fikricha, bu holat qushlar oziqlanadigan ishqorli ko'llardagi ekologik sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liq.

Flamingolar patlarining ajoyib pushti tusi karotinoidlar deb ataluvchi tabiiy pigmentlar ta'sirida paydo bo'ladi. Bu moddalar asosan sianobakteriyalar va mikroskopik suv o'tlarida, xususan, *Spirulina* turiga kiruvchi organizmlarda uchraydi. Ana shu mayda organizmlar kichik flamingolarning asosiy ozuqa manbasi hisoblanadi. Agar ularning miqdori kamaysa, qushlarning patlari ham o'zining yorqin pushti rangini yo'qota boshlaydi.



Tadqiqotchilar ma'lum qilishicha, so'nggi yillarda Buyuk Rift vodiysidagi ko'llarda jiddiy ekologik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Iqlim o'zgarishi natijasida kuchli yog'ingarchiliklar ko'payib, suv sathi oshgan, ko'plab ko'llarda esa sho'rlik va ishqoriylik darajasi pasaygan. Bu esa flamingolar uchun muhim bo'lgan suv o'tlarining ko'payishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ayniqsa, Nakuru va Bogoriya ko'llaridagi o'zgarishlar sezilarli bo'lgan. Ilgari bu hududlarda millionlab flamingolar to'plangan bo'lsa, hozir ozuqa yetishmasligi sababli qushlar yangi yashash joylarini izlab ko'chishga majbur bo'lmoqda. Qolgan flamingolar esa avvalgidek yorqin pushti tusga ega emas.

Ekologlarning ta'kidlashicha, bu muammo faqat qushlar tashqi ko'rinishining o'zgarishi bilan cheklanmaydi. Kichik flamingolar Sharqiy Afrikadagi ishqorli ko'llar ekotizimi holatini ko'rsatuvchi muhim tabiiy indikator hisoblanadi. Ularning soni kamayishi va ko'chishi iqlim o'zgarishi hamda inson faoliyati natijasida tabiatda jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganini anglatadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, Keniyaning mashhur «pushti ko'llari» kelajagi ulardagi tabiiy suv rejimini saqlab qolishga bog'liq. Agar suv tarkibidagi o'zgarishlar davom etsa, mamlakat nafaqat noyob tabiiy manzaralaridan birini, balki ekoturizm uchun muhim bo'lgan qimmatli resursini ham yo'qotishi mumkin.

Manba: ecosphere.press

12

LAYLAKLAR NEGA CHIQINDIXONANI TANLAMOQDA?

So'nggi o'n yilliklarda Yevropadagi ko'plab oq laylaklar ozuqa izlash odatini o'zgartirib, o'tloqlar, yaylovlar va qishloq xo'jaligi maydonlari o'rniga maishiy chiqindi poligonlariga ko'proq bora boshladi. Chunki bu yerda ular katta miqdordagi ozuqani oson topishi mumkin. Ayrim laylaklar hatto uzoq masofali migratsiyalarni qisqartirib, chiqindixonalarga yaqin hududlarda qolishni afzal ko'rmoqda.

Bir qarashda, bunday strategiya qushlar uchun foydali tuyuladi. Ayniqsa, qish faslida tabiiy ozuqa kamaygan paytda chiqindixonalar barqaror yemak manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq olimlar bu oson ozuqa laylaklar uchun yashirin xavfni keltirib chiqarayotgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlamoqda.

Chiqindilar bilan oziqlanish qushlar organizmida zararli ifloslantiruvchi moddalar to'planishi xavfini oshiradi. Chiqindixonalarda laylaklar plastmassa qoldiqlari, kimyoviy moddalar, dori vositalari va tabiiy rasioniga xos bo'lmagan boshqa aralashmalar mavjud ozuqani iste'mol qilishi mumkin. Bunday ozuqa tarkibi tabiiy yemakdan farq qilgani uchun organizmdagi oziq moddalar muvozanatini buzadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ozuqaga boy sun'iy muhit har doim ham sog'lom ovqatlanishni anglatmaydi. Chiqindixonalarga qaramlik laylaklarning fiziologik holatiga, ko'payishi va yashab qolishiga ta'sir qilishi, salbiy oqibatlar esa butun populyasiyaga tarqalishi mumkin. Shu bois oson topiladigan ozuqa qushlar uchun har doim ham foydali emas.

Biroq laylaklarning chiqindixonalarga intilishini faqat chiqindilar bilan izohlab bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligi landshaftlarining o'zgarishi, tabiiy yashash muhitlarining qisqarishi va iqlim o'zgarishi ham ularni yangi ozuqa manbalarini izlashga majbur qilmoqda. Inson faoliyati natijasida tabiiy muhit o'zgargani sari qushlar ham o'z xatti-harakatlarini moslashtirmoqda.



Oq laylaklar misoli muhim ekologik paradoksni ko'rsatadi: hayvonlar inson tomonidan yaratilgan o'zgarishlarga tez moslasha oladi, ammo bunday moslashuv har doim ham xavfsiz bo'lavermaydi. Chiqindixona qushlarga oson va barqaror ozuqa berishi mumkin, biroq bu ularning uzoq muddatli salomatligi va populyasiyasi uchun kutilmagan oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Manba: moya-planet.ru

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" – IJTIMOIY-IQTISODIY, ILMIY-AMALIY JURNALI MAQOLALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnali tahririyati umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarni nashr uchun qabul qilmaydi. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo'lyozma bo'yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining yo'llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi bo'lishi kerak.

Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi. Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola keng omma uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Maqola o'zida muayyan ilmiy-tadqiqotning tugal yechimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur. Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiy so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak: universal o'nlik tasnifi (UDK), maqolaning sarlavhasi (uch tilda), annotatsiyasi (uch tilda), tayanch so'zlar (uch tilda), kirish, ko'rib chiqilayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbaalarga havolalar, masalaning qo'yilishi, yechish usuli, natijalar tahlili, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak. Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ga mos bo'lishi kerak. Maqolada muallif o'zining ishlariga havolalar soni 20 foizdan oshmasligi kerak.

Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar. Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi. Maqola MS Word 2003–2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiylashtirilishi kerak: - A4 formatda, matn sahifasining barcha chekkalarida 2 sm dan joy qoldiriladi, Times New Roman shriftida, maqola uchun shrift hajmi - 12 pt (jadvallar bundan mustasno), jadvallar uchun shrift kattaligi - 10 pt, qator oralig'i - 1,15 interval, matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi, xat boshi - 1 sm («Tab» yoki «Probel» tugmalaridan foydalanmasdan).

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi: sahifalarni raqamlash, matnda sahifani avtomatik bo'lishdan foydalanish, matnda avtomatik havolalardan foydalanish, avtomatik bo'g'in ko'chirish, kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

Grafikli materiallar (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo'lishi kerak, agar zarurat tug'lsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'lmagan o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismda keltirilishi zarur.

Formulalar va matematik belgilar MS Wordda o'rnatilgan formatli muharrirda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 100-250 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak.

Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – 8-10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak.

Kirish. Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ob'yekti tavsiflanadi. Mavjud ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning ko'rsatilgan holda muallifning ilmiy ishlari yo'nalishi ko'rsatiladi.

Muammoning yechimlari. Bunda tanlangan usul batafsil tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlar, ular ichidan tanlab olingan optimal natijalar keltiriladi.

Natijalar. Natijalarni asosan jadvallar, grafiklar va boshqa ko'rinishida keltirilishi mumkin. Ushbu bo'lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Natijalar tadqiqotning ob'yekti parametrlari o'rtasidagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi, ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlar doirasida olingan natijalar umumlashtiriladi, maqbul sharoitlari tanlanadi, ilmiy yangiligi keltiriladi va amaliyotda qo'llanishga tavsiyalar berilishi mumkin.

Adabiyotlar. Adabiyotlar ro'yxati 15 tadan kam bo'lmagan manbalardan iborat bo'lishi kerak, Adabiyotlar ro'yxatiga darsliklar, o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin emas. Barcha manbaalarga matnda havolalar berilishi zarur.

Muallif (lar) haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma'lumotlar maqola taqdim etilgan o'zbek/rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida – adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtirilishi kerak. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko'rib chiqishga qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) javobgardir.

Murojaat uchun telefonlar: +998 71 277-89-22; +998 71 277-69-83; +998 90 946-22-42



EKOLOGIYA

XABARNOMASI | SINCE 1995

Tahririyat manzili: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, 100043, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy.



www.nbsep.uz



[@ecoilm](https://t.me/@ecoilm)



eco_nii@exat.uz